

828
sh-78

FRÉDÉRIC SHOPEN

G'AROYIB SKRIPKA



JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

821
Sh 98

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

KEYT SHOPEN

G'AROYIB SKRIPKA

Hikoyalar

- 0458 -



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.111(73)-32
KBK 84(7AQSh)

Sh 78

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurbay
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Shopen, Keyt

G'aroyib skripka. [Matn]: hikoyalar / K. Shopen; tarjimonlar:

Q. Yusupova va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-6343-4-3

Sh 78

Qo'ligizdagi to'plamdan jahon adabiyotida o'ziga xos o'rin tutgan adiblar qalamiga mansub hikoyalar o'rin olgan. Kitobda jamlangan hikoyalar ravon tili, voqealar bayoni, mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi.

O'ylaymizki, sizga taqdim etilayotgan ushbu kitob ko'ngil mulkingizdan munosib o'rin oladi.

UO'K: 821.111(73)-32
KBK 84(7AQSh)

ISBN 978-9943-6343-4-3

© Q. Yusupova va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna'kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon halqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Halqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir hayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrdagi siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, G. de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dunder, Dino Butsati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chander, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zunder, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'iralariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutahassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifatini, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida halqimiz ma'naviyati va axloqiy o'zgarishlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyiha uchun kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la boshishga ishonamiz. Va, umid qilamizki, hayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni hayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon halqimiz uchun manfaatli qilsin!

BAHOR GULLARI

1

Yomg'ir yog'yapti. Yirik, yumshoq tomchilar odamlarning qo'llari va iyaklariga urilib atrofga sachrayapti, ular shunaqangi ajabtovur tomchilarki, xuddi tongda yuquga ketayotgan erinchoq yulduzlarga o'xshab ketadi. „Kep qoling atirgullarga! Mana nilufargullardan oling! Mana binafshagullardanam bor!“ Har yer-har yerdan turli-tuman ovozlari, mana shunday baqiriqlar har kuni bu yerda takrorlanib turadi. Biroq sotilayotgan, bir quchoq qilib o'rab qo'yilgan nilufargullar shu turishida ko'proq so'lgan gulkaramlarday bo'lib ko'rinadi. Ayol g'ichirlagan zambilg'altakni sudrab u yoqdan bu yoqqa qarab yo'rg'alaydi har kun. Zambilg'altakdan chirkin, badbo'y is dimoqqa uriladi. Hech kim undan biron dona gul sotib olmaydi. Siz shundoq o'sha yo'l ustidan yurib o'tsangiz ham bo'ladi, ammo bu yo'lak ustida oyoq qo'ygani joy topolmaysiz. Bu yerdagi har bitta do'kon butun molini tashqariga ochib-sochib tashlagan, ularning har biridan dimiqqan, qo'lansa hid atrofga taraladi, irkit, dog' bosgan har-xil latta-puttalar bu manzarani yana-da yoqimsiz qilib ko'rsatadi. Aslida, bu kir-chir matolar haridorning diqqatini tortish maqsadida ataylab ilib qo'yilgan. Odamlarning kulgisi qistaydi! Do'konlar oldida qator qilib tizib tashlangan katta-kichik stollar ustida ham bir dunyo betartib lash-lushlar ivirsib yotadi, keraksiz o'yinchoqlar

deysizmi, eski surat ramkalari deysizmi, xullas, har balo bor. Bu joyda yana sap-sariq poxol shlapalar tog'dek bo'lib, xuddi hamirdan qilingan ulkan piramidalar misol uyulib yotibdi. Yana rang-barang oyoq kiyimlar bilan hech kimga loyiq kelmaydigan haddan ziyod kichkina va rasvo botinkalar ham qatorasiga terib tashlangan. Tag'in bir do'konda xotin-qizlar uchun ko'k rangdagi, erkaklar uchun pushti rangdagi, bir-biriga mutlaqo zid tusdagi ajabtovur makintoshlar ham sotiladi. Makintoshlarning har birining ichida „Bebe“ degan tushunarsiz yoziqqa beixtiyor ko'zingiz tushadi...

— Kep qoling nilufargullarga! Atirgullardan oling! Mana bu shirin binafshagullarga bir qarang! — sho'rlik ayol kun uzog'i g'ichirlagan aravasini sudragancha tinmay shu gapni baqirib-chaqirib takrorlaydi. Ammo zambilg'altakka birov qo'liniyam tekizmaydi. Undagi gullar ko'proq so'ligan va chirik karamlarday ko'rinishda. Uni yetaklab yurgan ayolning og'ir, bo'liq jussasi hadeb aravasini sudrayverganidan hansirab-hansirab, oxiri bata-mom holdan toyadi. Bir burchakka borib suyanadi-da, qo'lansa is o'mashib qolgan burnini karamgullarning ildiziga tekizgancha horg'in uyquga ketadi... Eh, bu yerdan kim ham biron narsa harid qilardi?.. Bari yaroqsiz, foydasiz narsalar bo'lsa... Sotuvchilarning aksari ayollar. Ular qattiq va sovuq kursilarga o'tirib olgancha, atrofga mudragan va ma'nisiz nigohlarini qadagancha kunni kech qiladi. Ahyon-ahyonda ulardan biron tasi o'rnidan turadi-da, so'lib yotgan gullari bargini changlattasi bilan nari-beri artgan bo'lib, yana joyiga kelib o'tiradi. Hatto bu joydagi manaman degan ishbilarmon, har doim mandarin rangli ko'zoynagini burniga qo'ndirgancha atrofga olazarak nazar solib yurguvchi qorindor kishi ham o'zi-

ning komik ko'rinishdagi afshalarining biron-tasini pul-lay olmay, chorasiz bo'lib turaveradi...

Shu chog'da burchakdagi bir bo'm-bo'sh xona ichidan eski pianining xira ovozi chiqib qoladi, unga skripka bilan nay jo'r bo'ladi. Xonaning liqildoq eshiklari ustiga aji-buji harflarda bunday deb yozib qo'yishgan: „Eng yangi qo'shiqlar. Eng birinchi qavatda. Kirish zali bo'sh“. Ammo bu g'arib xonaning eshiklari doim ochiq turgani bilan inson zoti bu yerga mo'ralab ham qo'ymaydi. Yomg'irli, ma'yus kunda bunaqa lavhalar beshbattar yurakni ezadi. Xona kiraverishida eti ustixoniga yopishib ketgan, oyog'iga almisoqdan qolgan shippakni ilib olgan bir kishi tashqariga umidvor mo'ltiraydi. Bu boyaqish titilib ketgan shlapasining bir chetiga singan pat ham qadab olgan. Shunday havoda ham shunaqa kiyinadimi esi joyida odam! Ammo shlapadagi pat siniq bo'lsayam, juda allambalo. Ehtimol, eski shlapaning aybini yopish uchun uni siniq bo'lishiga qaramay, biroz po'rim ko'rinish uchun ataylab qadab olgandir o'sha bechora kishi. Ehtimol, shu g'aroyib pat kuchi bilan har kuni bor ovozi qo'ygancha doim bir xil gapni qaytaraverishdan zerikmayotgandir:

— Kep qoling! Kep qoling! Arzon, yangi qo'shiqlar bor! Kep qoling! Bu qo'shiqlar ijrochisining har biri Ov-ro'poda katta nufuzga ega. Orkestri rosayam mashhur, bundan zo'rini hech qayerdan topolmaysiz! Hayotning bu zavqidan bahra oling, bunday imkonni bir marta o'tkazib yubordingizmi, qayta topa olmaysiz!

Hech kim qimir etmaydi. Ular nimagayam ishonsin axir? Ular bu qo'shiqlarni aytgan qizlarni besh qo'ldek yaxshi bilishadi. To'g'ri, ular nomdor qo'shiqchilar, biri qaymoqrang libosda, yana biri esa dengizdek moviy tus-

dagi kiyimda koʻzni olar darajada sollanib rasmga tushib qoʻyishgan. Biroq ularning turishlari odamning ensasini qotiradi. Oyoqlarini keng kerib olgancha, viqor bilan boshlarini orqaga tashlab, koʻm-koʻk boʻyalgan koʻzlarini suzib olishgan. Buning ustiga skripkachilarning tishlangan timoqlari va naychilarning haddan tashqari uzun, shalviroq yenglari ham gʻashga tegadi — bularning hammasi ular kuylayotgan qoʻshiqlar kabi judayam eski va siyqasi chiqqan...

Ancha vaqtgacha musiqa davom etib, tantanavor ovoz gumburlab turadi. Shunda zerikkan bironta haddor tashqaridan boʻy choʻzib qarashi bilan boyagi kishi oʻshanday tantanavor qiyofada koʻzdan yoʻqoladi. Ovozlar oʻchadi. Bazoʻr sado berayotgan pianining ham, skripka bilan nayning ham tovushi pasayib-pasayib, oxiri tinadi. Birgina deraza yuzini toʻsib turgan shaldiroq darpardaning shamolda yengil mavjlanib tebranishigina birinchi qavatda mudom harakatda turadi...

Yomgʻir haliyam yogʻyapti, atrof asta-sekin bulutli havo ichida gʻira-shira koʻrinishga kirmoqda...

— Kep qoling atirgullarga! Nilufargullardan opketing! Loaqal shirin binafshagullarimni sotib oladigan biron odam bormi?

2

„Umid! Sen baxtsiz va orzuparast soʻlgʻin ayolning yagona yupanchisan! Qoʻy, eng soʻnggi dil torimni uzib tashlama, meni omon saqla, o, umid! Yaqin orada jinni boʻlib qolamanmi deb qoʻrqaman. Yuragim kundan kunga tobora zaiflashib bormoqda, xuddi soʻligan gullarim kabi... Aslida, har bir nafasim yashashga intiq, har bitta nafasim!

Mana, tong otdi. Men boʻlsam hamon oʻzimdek huvullagan karavotda shiftga termilgancha oʻlikdek yotibman. Hademay ertalabki quyosh nurlari daryo ortidan bosh koʻtaradi-da, titroq toʻlqinlar osha mening gʻarib shiftim boʻylab ipakdek yoyilib ketadi. Tashqaridagi allaqanday bolgʻa taqillashiga quloq tutib yotaman, qayerdadir qarsillab ochilgan eshik, soʻngra uning oʻshanday taraqlab yopilishiga hayolim boʻlinadi. Yo tavba! Shu mening uyimmi? Anavi bir tomoni qiyshiq oʻrindiqaqqa betartib tashlab qoʻyilgan mening kiyimlarimmi? Hatto nam yostiqlik ostiga ham soʻqqabosh ayolning munglari muhrlangan. Bu uyda faqat soatgina baxtiyor, u tinmay bong chaladi. O! Sal boʻlsa esimdan chiqayozibdiku! Oʻrimdan sakrab turdim-u, eshikka qarab chopdim. Faqat tezroq, tezroq! O, umid, meni qoʻlla!

— Sutingiz, xonim, — deb qoldi yotoqxonaning yolgʻizgina oqsochi menga zarda aralash.

— Voy, rahmat, — yuragim taka-puka boʻlayotgan boʻlsa-da, oʻzimni mamnun va iltifotli qilib koʻrsatishga urindim. — Ha, kechirasiz, miss, mabodo menga hat-pat kelmadimi?

— Yoʻq, hech vaqo kelmadi, xonim.

— Lekin pochtachi bugun kelishga vaʼda bergandi-ku, u menga javob hati opkelgan boʻlishi kerak edi?

— Ha, umi? Yarim soat yo bir soatcha avval ketib boʻlgan, xonim.

Eshikni yopdim. Bir lahza gʻarib xonam ichida tik oyoqda turib qoldim. Axir men haridorbop gullarga buyurtma bergandim-ku! Endi bu eski, soʻligan gullarimni nima qilaman? Kinga sotaman?..

Ayol boshini quyi solgancha simtoʻrlari tarang va sovuq karavotiga choʻkdi. O, umid! Bechora ayolga ma-

dad qil! Uning qalbidagi eng oxirgi hayot rishtalarining uzilishiga yoʻl qoʻyma!

Lekin gulchi ayolning nigohlarida endi hech maʼno yoʻq. Umidning qoʻlidan ham endi hech narsa kelmaydi. Ming uringani bilan bari bekor. Bari behuda...

3

Tun yogʻdusi ostida miltillab oqayotgan uzun daryo chetidagi mayda tosh yotqizilgan tor soʻqmoq boʻylab ayol ohista qadam tashlaydi. U anchagina yoʻl bosib qoʻygan, biroq odimlari juda sust va istaksiz edi. Atrofda goʻzal oqshom kechardi, osmon nafis nilufargul tusida ajib jilo sohib turar, daryo esa goʻyo binafshagul barglarini yopinib olganday tinmay oʻziga mahliyo etardi. Yolgʻizoyoq yoʻl chekkasi boʻylab katta va boʻydor daraxtlar oqshom nurlari quchogʻida titranar, daryo uzra kechki sayrga chiqqan oʻynoqi qayiqalar esa ayolning oyoqlari tagigacha daryo toʻlqinlarini urib, suvni mayin mavjlantirmoqda edi. Mana, ayol yurishdan toʻxtadi. Birdan ortiga oʻgirilib uzoq qarab qoldi. Yoʻl chetidagi qator daraxtlardan biriga suyandi-yu, qoʻllari bilan ikki yuzini mahkam berkitib oldi: u yigʻlayotgan edi. Hamon daraxtga yopishgancha harakatsiz qotib turarkan, qoʻllari yuzidan tushib, oʻziga judayam qadrdon nimanidir qidrish bilan betoqatlana boshladi. Ayol bukchaygan yelkalari osha kichkinagina kulrang roʻmolini yopinib olgandi, u oʻsha roʻmoliga qoʻl tegizdi-da, uning uchlari bilan yana yuzlarini toʻsdi, keyin u yogʻidan bu yogʻiga asta tebrana boshladi.

Ammo gʻamga va koʻzyoshga doim tutqun boʻla olmaydi kishi, ayol sekin-sekin yupanib, oxiri batamom sokin va mahzun tortib qoldi. Bir qoʻli bilan sotuvchilik

fartugini tekislagancha, sochlarini orqaga silkib oʻynadi. Oʻziga boʻysunmagan holda bir-ikki qadam tashladi. Ammo yurib dadil yurolmadi, ortiga chekindi-da, tagʻin boyagi daraxtga borib suyanib oldi. Tevarakda tobora quyilib kelayotgan tun shuʼlari avj olar, ular barcha uylar ichiga oʻrnatilgan kirar, daraxtlarning yangi chiqargan barglari uchida yaltirar, hatto oʻyinqaroq qayiqalar tomongacha ergashib borardi. Ayol bir nafas mavhumlik tebrasida daraxtdan ajralolmay turdi, soʻngra tunning inijlik bilan oppoq, kulrang va qora soyalarga aylanib borishiga koʻz tikib turdi-da, keyin misoli suratdek bu yerdan ketib qoldi.

O, sho'rpushona keksa ona qush! Shu tobda Ma Parker shiddatkor va alamzada qushga o'xshab ko'rindi.

— O'lim, aslida, har bir odamning muvaffaqiyatidir, missis Parker! — xitob qildi yozuvchi.

Ma Parker lom-mim demadi. U boshini eggancha qo'lida ish fartugi va bir juft shippagi solingan eski haltasi bilan cho'loqlana-cho'loqlana oshxona tomon yo'l oldi. Yozuvchi qoshlarini ko'tardi-da, bir uh tortdi, keyin yana nonushtasini yeya boshladi.

— Ko'nikishdan boshqa nima iloji bor bechoraning, — dedi u o'ziga o'zi likopchadagi marmaladdan bir donasini og'ziga solarkan.

Ma Parker g'imirlagancha oshxona ichida o'z yumushlari bilan andamon bo'la boshladi. Egnidagi kiyimlarini yechib, eshik orqasidagi ilgakka ildi-da, qaznoqda turgan juldur kamzolini olib kiydi. Keyin beliga peshbandini mahkam qilib bog'ladi-da, oyoq kiyimlarini yechish uchun yerga cho'k tushdi. Bu faqirona botinkalarni kiyib-yechish Ma Parkerga adog'i yo'q bir azob edi, bu uning yillar davomida bardosh qilib kelayotgan iztirobi edi. Lekin keksa ona bu mashaqqatga allaqachon ko'nikib ketgan, u yuzlarini bujmaytirgancha oyoqlarini jaloddek berahm botinkalari dastidan ozod qilishga urinar, to iplarini yechib, bor kuchi bilan ularni oyog'idan tortib olguncha naq qaro terga botib ketardi. Axiyri bu balodan qutulgach, devorga suyanib, chuqur-chuqur xo'rsinar va bir muddat tizzalarini ohista uqalab o'tirardi...

— Buvi! Buvijon!

Ayolning kichik nabirasi tugmadek jaji ko'rinishdagi tufchalari bilan uning tizzasi ustiga sakrab chiqib oldi. U hozirgina o'ynab-o'ynab, ko'chadan hovliqib, horib kirib kelgandi.

QISMAT

Har seshanba kuni uyini keksa oqsoch Ma Parker tozalab ketadigan yozuvchi o'sha kuni ham eski odati bo'yicha ostonadan hatlashi bilanoq undan katta nabirasining sog'ligi haqida ko'ngil so'radi. Ma Parker nimqorong'i zalda shundoqqina oyoq artiladigan ho'l latta ustida turgancha yozuvchiga eshikni yopishiga ko'maklashgan bo'lib bazo'r ovoz chiqardi.

— Biz uni kecha dafn etdik, xo'jayin, — dedi u ich-ichidan ezilib.

— Oh, azizim mening! Qattiq taassufdaman! — deb yubordi yozuvchi chin dildan achinib. U nonushtasini oxirigacha yemadi. Egniga juda eskirib ketgan tungi hatlatini ilib olgancha, bir qo'lida g'ijimlab olgan gazetasini yoyib, uni o'qishga kirishdi. Biroq yozuvchi o'zini rosa noqulay sezardi. To o'zining iliqqina ijodxonasiga ravona bo'lguncha keksa va sho'rlik bu ayolga bir og'iz gap aytish unga nihoyatda dushvor bo'ldi. Negaki ziyoli odamlar uchun qadrdon insonlarini so'nggi manzilga kuzatish marosimlarida qatnashmaslik katta isnod edi. Shunday bo'lsa-da, u mehribonlik bilan:

— Umid qilamanki, ma'rakangiz risoladagidek o'tgan, — deb qo'ydi.

— Xijolat chekmang, janob, — dedi Ma Parker xirqiragan ovozda, u xojasining nadomatini bir zumda ilg'ab olgandi.

– Qara, buvingning kiyimini ne ahvolga solding! Eh, esi yo'q bola-ya!

Ammo bolakay qari va mehribon buvisining bunday tanbehlariga zarracha parvo qilmas, u bularni erkalash deb anglar va beshbattar taltayib ketardi. Mana, hozir ham kichkintoy jajji qo'ldalarini buvisining bo'ynidan o'tkazib olib, yonoqlarini ajin bosgan yuzlarga surkab erkalandi.

– Buvi, jon buvi, ozgina pul bering! – yalindi u bor vujudi bilan buvisini rozi qilishga urinib.

– Qani, tezda jo'nab qol-chi, buvingda bir tiyin ham yo'q.

– Yo'q, bor!

– Yo'q dedim senga.

– Yolg'on gapiryapsiz. Menga ozgina bering, mana shuncha, – bolakay kichkina kaftlarini yoyib, buvisiga olajak pulining miqdorini belgilagandek qilib ko'rsatdi.

Ma Parker allaqachon pachqolanib, xonavayron bo'lib ketgan qora charmli hamyonini yonidan olib, kovlashtira boshlagandi.

– Xo'sh, keksa buvingga nima opkelasan?

Nabirasi uyalgannamo tabassum qildi-da, buvisining yuzlariga yanayam yaqinroq kelib siypalandi.

– Mening hech narsam yo'q-ku, – deya mayin shivirladi u keyin...

Qari oqsoch sakrab o'rnidan turib ketdi, u gaz us-tidagi temir choynakni olib, suv oladigan jo'mrak yoniga shosha-pisha bordi. Choynak ichiga sharillab oqib tusha-yotgan suv shovqini xuddiki uning ichidagi hasratlarini biroz bosgandek bo'lib tuyuldi. Ayol chelak bilan mis tog'orani ham suvga to'ldirdi.

Yosh yozuvchining oshxonasida aql bovar qilmas

tartibsizlik hukmron. O'tgan bir hafta davomida yozuv-chining o'zi bu yerga „bekalik“ qilgan, hamma yoqni ostin-ustun qilib tashlagandi. Shundoq ko'rinib turib-diki, u oshxonani misoli bahaybat fil kirib rasvo qil-gan do'kon ko'yiga solgandi. Choy solinadigan idish ichida ayniy boshlagan qandaydir murabbo yotar, qo'l sochiqlar ketma-ket ishlatilaverganidan, hamma joyga sochiq va kir qo'l sochiqlari sochilib ketgandi. Tag'in yozuvchi tanishlariga o'zining uy „tutum“i to'g'risida maqtanib qo'ygan, go'yoki uy ishlarini bajarish nega erkaklar uchun ortiqcha mashmasha ekanligidan qattiq taajjubga tushgandi.

– Siz dastlab bor narsalarni iflos qilasiz-da, yana bir hafta ichida darrov yuvib-tozalab qo'yasiz, bu unchalik qiyin ish emas.

Biroq uning natijasi xumday ulkan axlat uyumiga aylangandi. Hattoki pol ustida ham non ushoqlari, yirtil-gan konvertlar, sigara qoldiqlari. Ammo Ma Parkerning zarracha nolishga haddi sig'masdi. U shunday yosh ja-nobga g'amxo'rlik qiladigan hech kim yo'q ekanligidan dildan achinardi, xolos. Oshxonaning kirlangan deraza-si ortidan behad-bepoyon va g'amboda osmon ko'zga tashlanib turar, uning har joy-har joyida suzib yurgan paxtadek bulutlar har kungidan ko'ra negadir titilib, yirtilib ketganga o'xshar, go'yoki bag'riga minglab o'q tekkandek katta-kichik teshiklar paydo qilgan va o'sha teshiklar misoli qorachoy yaproqlari kabi ko'rinar edi.

Pech ustidagi suv isib bo'lguncha Ma Parker polni supurishga tutindi. „Haa, peshonam shu ekan-da“, – deb o'yladi u supurgining ship-ship ovozigga quloq osgan-cha, – „Taqdirdan qochib qutula olmayman... Qismatim qanchalar sho'r ekan-a...“

Ha, hatto qo'shnilar-yu tanish-bilishlarigacha bu taqdirga ichlari tuzdek achishardi. Bundan uzoq yillar oldin ham u doimgidek eskirgan peshbandi-yu shippaklari solingan haltasini ko'tarib yurarkan, ko'rganlar uning ahvoliga ezilib qarashardi. „Boyaqishning sira kosasi oqarmadi-da“, – deb qo'yardi ular. Rostdanam, bu zarracha shukr qiladigan hayot emasdi. Yosh-yosh olti bolasi bilan beva qolgan, zax yerto'lalarda jon saqlagan va xonavayron turmushga badarg'a qilingan ayol umri... Og'ir va nihoyatda achchiq taqdiri...

O'n olti yoshida Ma Parker Stratfordni tark etib, Londonga oshxona oqsochi bo'lib xizmatga kelgandi. Ha, u Stratford-on-Evonda tug'ilgandi. Bu Shekspirning Vatani, bilasiz-a? Odamlar hamisha bu haqda undan so'rashar, biroq Ma Parker to Shekspir dramalarini teatr sahnalarida ko'rgunga qadar hatto uning nomini ham eshitmagandi.

Stratforddan aytarli esda qolarli xotiralari ham yo'q edi ayolning, „har kechda yoqiladigan eski tosho'choq oldida o'tirgancha derazadan sirli va orzubaxsh yulduzlarga soatlab-soatlab termilish-u“, „onasining shiftiga ilib ketgan nonidan maza qilib yeyish soniyalarini kutish“dan bo'lak hech nima yo'q edi xotirada, ha, yana nimadir bor edi, butazormidi u, old eshik yonida o'sardi, rosa xushbo'y. Ma Parker yana shunga o'xshash qadrdon isni kasalxonaga tushganida tuygan edi.

Ammo ayol uchun yer yuzidagi eng qo'rqinchli joy edi bu yer. Uni biror kun ham tashqariga qo'yishmas, er-talabdan kechgacha shiftga tikilgancha yotaverardi. Ustiga-ustak oshpaz xotin ham rosa johil edi, Ma Parkerga kelgan hatlarini uning qo'lga tushmasidan oldin yo'q qilib yuborar, chunki o'sha hatlar sho'rik ayolni hayolparast va parishonxotir qilib qo'yardi.

Kasalxonadan chiqqach, Ma Parker o'sha yerdagi doktorning uyida xizmatkorlik qila boshladi, bu uyda u rosa ikki yil tinib-tinchimadi, oxiri bir nonvoy bilan turmush qurdi. Bundan habari bo'lganida:

– U nonvoymidi, missis Parker! – deya hayratlangandi beg'ubor yosh yozuvchi. U hayot deb atalguvchi ne'matdan bu ayolning ham bir chimdim bo'lsa-da bahra olishini qattiq istardi. – Nonvoydek halol inson bilan umr kechirish – bu katta baxt-ku!

Missis Parker hecham javob berolmasdi.

– Nonvoylik halol ish, juda toza mehnat, – derdi yana yozuvchi qaynab-toshib.

Ma Parker yana indolmasdi.

– Xo'sh, siz-chi, Parker xonim? Sizam non yopishga ko'maklasharmidingiz? Loqaq haridorlarga issiq-issiq nonlardan uzatib yuborgan bo'lsangiz kerak, a?

– Shunday, janob, – derdi Ma Parker. – Biroq mening nonvoyxonaga borishga bir soniya vaqtim bormidi? Axir jo'jabirdek jon edik, o'n uchta go'dakdan yettitasini yerga qo'yib, oltitasi bilan o'ra bo'lishni aytin, eng og'iri, go'daklar qabristoniga aylangan bolalarim qabrini o'z ko'zlarim bilan ko'rishni aytin...

– G'oyatda bardoshli ayolsiz, missis Parker! – derdi yozuvchi tiragancha yana yozishga tutinarkan.

Ha, yetti go'dak yerga ko'milgan, olti bola esa eri yotib qolib, kasalxonaga tushganida dunyodagi jamiki xo'rliklarni boshdan o'tkazgandi. Erining o'pkasi tamom bo'lgan, omon qolishidan qilcha umid yo'q, doktorlar shunday deb aytishgandi... Chorasiz er ko'ylagini to boshigacha ko'tarib turar, doktorlar esa uning orqasiga doira qilib, qandaydir asboblarini qo'yib har kuni tekshirishar edi.

– Agar biz mana bu joyni teshib kirganimizda edi, missis Parker, – degandi bir shifokor unga, – siz qop-qop-ra qondek boʻlib qolgan oʻpkalarni koʻrgan boʻlardingiz.

Bu demak, tiriklikdan umid yoʻq degani edi, balki shuning uchun ham Ma Parker oʻlik erining jonsiz lablaridan oʻsha doktor aytgan qora qon sizib chiqqanida bunga zigʻircha ajablanmagan, negaki bu baxtiqaro erkak to adoyi tamom boʻlguncha, to hayotdan butkul umidi uzilmaguncha kasalxonaga borishga sira iloj topolmagandi.

Ammo oltita zor koʻzni boqib katta qilish oʻzini oʻzi qoʻlga olishdan boʻlak chora yoʻq edi. Oh, qanchalar ogʻir qismat bu! Kunlar oʻtib, bolalar maktabga boradigan yoshga yetgunicha erining singlisi Ma Parkerga qarashib turdi, lekin u ham zinapoyadan yiqilib, belini sindirib olgandan keyin oʻziniyam eplolmaydigan boʻlib qoldi. Dard qoʻshaloq keldi, u ayolning yosh bolasi ham Ma Parkerga qolib ketdi, u shunday injiq va yigʻloqi bola ediki! Biroq baxtiga bolalari missis Parkerning yoniga kirib qolishdi, oʻrtancha bolalar – Maudi singlisi Alisaga qarashni oʻz zimmasiga oldi, ikkala aka-singil oʻzlari oyoqqa turdi, Jim boʻlsa Hindistonga armiyaga joʻnab ketdi, eng toʻngʻichi Etel esa hech narsa yoʻq bir ofitsiant qizga uylandi-yu, baxtga qarshi xotini kichkina Lenni tugʻilgan yili qandaydir bedavo yara tufayli olamdan koʻz yumdi. Ana endi boʻlsa kichkintoy Lenni ham ketdi – Ma Parkerning eng yaxshi koʻrgani, uning toʻngʻich nabiraginasasi...

Uyum-uyum kir piyolalar-u ifloslangan idishlarning bari yuvilib artib boʻlindi. Bir boʻlak kartoshka bilan qop-qora rangga kirgan pichoq ham asl holiga qaytdi, stol qirtishlab tozalandi, hali hamon ichida sardina baligʻining dumlari choʻmilib yurgan betartib idish yuvish togʻorasi ham keksa qoʻllar yordamida oppoq boʻldi.

...Lenni baquvvat bola boʻlmagandi, tugʻilganidan u shunaga nimjon edi. U shu qadar ramaqijon ediki, koʻrganlar uni doim qiz bola deb oʻylashardi. Jingalak-jingalak boʻlib peshonasigacha yoyilib tushgan kumushdek sochlari, dengizdek moviy koʻzlari, tugmadek burnining ikki tomonidagi mayda-mayda sepkilchalari oʻziga shunday yarashar ediki! Etel bilan xotini bu bolaga qarayverib holdan toyishgandi. Hattoki tonggi gazetalar ham Lenni bilan birga baham koʻrilardi. Kichkintoy to kattalar baland ovoz chiqarib gazetani oʻqishmaguncha tinmay harhasha qilar, oxiri otasi unga bir soat gazeta oʻqib berishga majbur boʻlardi.

„Qadrli janob“, – deb yozilgandi shoshilin chnoma-da, – „nabirasining sanoqli kunlari qolganini onamizga bildirib qoʻysangiz... Toʻrt shisha qon quysak ham umid boʻlmadi. Toʻqqiz haftadirki, Lenni jonsizdek yotibdi, endi umuman oʻrnidan turolmasa kerak...“

Ertasi kuniyoq keksa ona qattiq qaygʻuda yoʻlga otlandi, ammo bari behuda edi. Hech narsa va hech kim murgʻak Lennini hayotda olib qololmasdi. Hatto kichkintoyni qabristonga olib borib, qabriga baxtsiz gullarni qoʻyaytib ham Ma Parker oʻzi ekanligiga ishonolmadi. Zotan, Lenni eng toʻngʻich farzandining toʻngʻich bolasi edi...

– Sen kimning oʻgʻlisan? – deya erkalar Ma Parker ish qilayotib ham derazadan moʻralab, zaif, biroq yoqimli ovoz kelardi, bu shunchalar goʻdakka xos iliq, yaqin, xuddi yuragingning tagidagina sado berayotgandek jonbaxsh bir ovoz edi: „Men buvimning oʻgʻliman!“

Shu payt xotiralar pardek toʻzgʻib ketdi, tashqarida qadam tovushlari quloqqa chalindi, oshxona boʻsagʻasida yosh yozuvchi koʻrindi, u sayr uchun otlanib olgandi.

– Maʼzur tuting, missis Parker, men aylangani ket-yapman.

– Juda yaxshi, janob.

– Pul-mul kerak bo'lsa, siyohdonimning tagiga qo'yib qo'ydim.

– Tashakkur, janob.

– Ha-ya, darvoqe, missis Parker, – deb o'girildi yozuvchi nimadir esiga tushib, – siz oxirgi paytda mening kakaomni ulotirib yubormaganmidingiz? Men uni hech qayerdan topolmay qoldim.

– Yo'q, janob.

– Juda qiziq. Qasam ichib aytamanki, men yaqindagina katta choy idishiga yangi sotib olingan kakaoni o'z qo'lim bilan solib qo'ygandim.

Janob bu e'tiroz va gumonlarini juda ko'ngilchanlik va rahmdillik bilan aytardi.

– Siz menga negadir narsalarni bilmasdan tashlab yuborayotganingizdan pushaymon bo'layotganingizni aytib edingiz, missis Parker?

Yosh yozuvchi bu gapni o'ziga aytgandek juda sokin va samimiy tarzda ifoda qildiki, missis Parker uning beg'ubor, shafqatli va oliyhimmat chehrasiga ko'z tashlar-kan, go'yo bu erkakning qalbida ham xuddi ayollarniki kabi bir mushfiqlik bor deb aniq ishonadi.

Eshik taraqlab yopildi. Ma Parker supurgilarini qo'liga oldi-yu, endi yotoqxona tomon shoshdi. Biroq bu yerda ham yotoqni tartibga solib, o'rinlarni tekislab, yostiqlarning jildini yangilab, xullas, shuncha ikir-chikir ishlar ichida ham murg'ak Lennining jafosi chidab bo'lmas darajaga aylandi. Nega beshafqat taqdir shugina go'dak jonni ham shuncha azobladi? Nega u buncha ko'p og'riq ko'rdi? Aynan shu alamga aslo chiday olmasdi keksa ayol. Nima uchun farishtaga aylangan begunoh jism shirin nafaslarini to'yib-to'yib simirish

uchun johil dunyoga shunchalar yolvordi, nimjon tanasi bilan bu qadar olishdi, kurashdi?! Bundan ham alamli g'urbat bormi?..

...Lennining jaji o'pkasida nimadir betinim qay-nar, azoblar, bundan qutulishning zarracha imkoni yo'q edi. U yo'talishi bilan peshonasiga reza-reza ter sirqirab chiqar, ko'zlari shishib ketar, qo'llari shalvirab, yuzlarida likopchada do'ppayib turgan beo'xshov kartoshkalardek yirik-yirik shishlar paydo bo'lardi. Lekin bulardan ham eng chidab bo'lmaydigani, u yo'taldan to'xtashi edi, Lenni yostiqa holsiz-holsiz suyanib qolar, hech kimga hech narsa demas, yo javob berolmas, hatto eshitmas ham edi. U faqat nohaq ozor chekkandek g'amin-g'amin termilardi, xolos. Hattoki eng yaxshi ko'rgani – buvijoni yoniga keltirayam Lenni ko'zlarini ochmadi, u tirik murdaga aylanib bo'lgandi.

Ammo oxiri... Ma Parker o'zini karavotga otdi. Yo'q, u endi ortiq chiday olmaydi. Juda ko'payib ketdi, juda oshib ketdi – hayot unga keragidan ham ortiq ko'rgulik berdi. To hozirgacha u sabr qilib keldi, o'zini qo'lga olib yashadi, zinhor dod-faryod ko'tarmadi. Nahot inson qalbi shunchalar bardoshi bo'lsa?! Hatto o'z farzandlari oldida ham Ma Parker yig'lamadi. Mardona va matonatli yuz bilan yashadi. Biroq hozir!.. Lenni ketdi, abadiy ketdi – ortiq sabr-u qanoati qoldimi bu sho'rlik ayolning? Yo'q, uning endi hech narsasi yo'q. Go'yo o'sha murg'ak vujud Ma Parkerning butun bisoti edi, ammo uni ham hayot ko'p ko'rди, undan zolimlarcha tortib oldi. „Nega bar-cha uqubat mening boshimga solinishi kerak?!“ – deya bo'zlardi keksa oqsoch qalbi. – „Men qanday yuvilmas gunoh qilgandim? Qayerda umrbod kechirilmas gunoh qilgandim, qayerda?!“

Yurak-yuragidan hayqirib, otilib shu nido kelarkan, u to'satdan supurgisi bilan pol artadigan tayoqni yerga tappa tashladi. Bir nafasda oshxonaga qanday yetib borganini ham bilmay qoldi. Baxtiqarolik shu qadar halqumiga kelib, jonidan to'yirdiki, u xuddi tush ko'rayotgandek, bosinqirash ichidagi telba odam singari ilgakdagi bosh kiyimi bilan ustki kiyimini olib kiydi-yu, tashqariga otilib chiqib ketdi. Baxtsiz ayol misoli ulkan dahshatdan o'zini yo'qotib qo'ygan karaxt insondek edi, u qayerga ketyapti va nima uchun, buning tayini ham, javobi ham yo'q edi, u faqat qayerga bo'lsa ham hammasidan qochib qutulib bo'ladigan bir parcha joy qidirib ketardi, faqat shu edi niyati...

Ko'cha sovuq edi. Muzdek-muzdek shamol esardi. Odamlar doimgidek shoshilar, erkaklar shoshar, ayollar shoshar – hamma qayerlargadir shoshilardi. Hech kimning hech kim bilan ishi yo'q edi. Nihoyat, bor chidam ado bo'ldi, Ma Parker tamom bo'ldi, shuncha uzoq va og'ir yillardan keyin u yig'lashi kerak edi, bir mehribon va xilvat joyda to'yib-to'yib yig'lashi shart edi.

Ko'zyosh hayoliga kelishi bilan birdan kichkinagina Lenni go'yoki buvisining etaklariga yopishgandek bo'ldi. Oh, mening jajji kabutarim, nima qilib beray senga? Buving yig'lashni istaydi. Agar hozir yig'lasa, ya'ni bu qisimatning avvalidan: hatlarini yirtib otgan o'sha berahm oshpaz, erining ajali haqida gapirgan beshafqat doktor, jajji ruhlarga aylangan yetti begunoh go'dak, erining o'limi, olti xo'rlangan yetimlarning ro'yobga chiqmagan orzu-umidlari, o'kinchilari – bularning alam-azoblari Ma Parkerning qolgan umrini ko'zyoshga g'arq qilishi tayin edi. Ammo shuncha ko'p ko'zyosh to'kish uchun ham umrning uzoq vaqti ketadi. Lekin endi baribir emasmi?

Baribir yig'lashi kerak. Zero, endi qalb qiynoqlari sabrni alaloqibat yengdi, oxiri mag'lub bo'ldi u... Qayerga qochib keta olardi?

Ma Parker uyga ketolmasdi, jajji Etel o'sha yerda. Ko'zyoshlari bilan, hayot qo'rqinchli qilib yuborgan qiyofasi bilan bolani cho'chitib yuborishi mumkin. Keksa oqsoch biron yerdagi o'rindiqda ham dadil o'tirolmasdi, tantiq odamlar kelib uni savolga tutishi mumkin edi. Bu alfozda uning yosh yozuvchi xonadoniga borishi-da uyatli, chunki ayolning begonalar uyida yig'lab olishga ham haqqi yo'q. Mabodo u duch kelgan binoning zinolari ustida o'tirib yig'lab olsa ham bo'lmasdi – politsiyachi uni ko'rib shubhalanishi aniq edi.

Eh, nahotki odam o'zi istagancha xoli qolib, o'zi istagancha dardini to'kib, istagancha yig'lab-yig'lab oladigan birona xilvat joy topilmasa bu yer yuzida? Hech kim indamasa, hech kim halal bermasa, hech kim malol olmasa? Loaqal o'kirib, baqirib, ovoz chiqarib yig'lab oladigan birona kimsasiz makon bormi o'zi?!

Ma Parker shu ko'yda dam yerga, dam esa cheksiz osmonga boqqancha uzoq turib qoldi. Achchiq izg'iringga aylangan shamol uning rangi unniqan peshbandini havoda uchirib-uchirib o'ynay boshladi. Bulut bostirib kelardi. Yo'q, Ma Parkerga yuragini bo'shatib yig'laydigan joy ham yo'q edi.

gal biron-bir yangi shaxs bilan yuz ko'rishib qolgudek bo'lsalar, darhol menga: — Elen, azizim, menga boyagi daftaringni berib yubor, zudlik bilan bu odamning kimligini yozib qo'yay, esimdan chiqib yurmasin tag'in, — deb tayinlar edilar. Bunday kezlarda men o'zimni rosayam noxush sezardim, to'g'risini aytganda. Ochig'i, bekach ba'zan bunday qiliqlari bilan biroz yovvoyiroq bo'lib ko'rinish ketardi ko'zga. Bilasiz, buvingiz hech qachon yumshoq yostiqlik ishlatmas edilar, hamisha qattiq gilam ustiga mukka tushgancha, tizzalab o'tirar edi. Ammo men kekxa xonimni qo'yarda-qo'ymay, bir amallab par adyol bilan o'rab qo'ymoqchi bo'lardim, biroq birinchi harakatimdayoq, o, ularning menga qanchalar dahshat hamda nafrat bilan yozg'irib qaraganlarini bir ko'rsangiz edi o'shanda! — Bizning Egamiz ham ana shu par matohingda o'tirgan edimi, Elen?! — deya qattiq baqirib bergandi xonim ko'zlariga vahshat bilan tikilgancha. Men yosh edim-da, bekachning u so'zlariga nima deb javob beribman deng? Aytibmanki, yo'q, aslo unday emasdir, lekin o'sha Egamiz u paytlar sizning yoshingizda bo'lmagandir-da, debman. Rosa qiyomat qo'pgandi o'shanda. Keksa xonim xuddi aqldan ozgandek, telbalangancha yuzimga o'shqirib tashlagandi. Ammo bekach baribir juda-juda yaxshi edi, buni o'zingiz ham bilasiz-ku, xonim, shunday emasmi? Har kecha men ularning yotoqlariga kirib, ko'rpsidan chiqib qolgan oyoqlarini yaxshilab o'rab qo'yar, menga teskari, yon tomoniga o'girilib yotgan kekxa xonimning nigohlarini ko'ra olmasam ham, negadir u menga shu ishim uchun ham minnatdor qarab turganini ich-ichimdan payqab qolardim, ko'rpsidan tashqariga chiqib turgan oriqlik, kekxa qo'llari har doim karavotidan pastga osilib yotar, xonim har tun

OQSOCH

Soat rappa-raso o'n bir. Eshik taqillayapti... Meni ma'zur tutasiz, bekam, sizni bezovta qilmadimmi? Yo siz uxlayotgan edingizmi, rostdanam shundaymidi? Ammo men — kanizagingiz o'z xonimiga uyquga ketishlaridan avval bir piyola issiq qahva ilinishni maqbul deb bildim, balkim, bu ishim sizga unchalik xush kelmagandir, ehtimol...

...Yo'q, yo'q, arzimaydi, sirayam arzimaydi, bekam. Axir qahva tayyorlash mening eng oddiy va arzimast kundalik yumushim-ku. Bilasizmi, unga ham har doim kechki ibodatlaridan so'ng ana shunday xizmat ko'rsatardim, kekxa bekachimizni aytayotirman sizga hozir. Katta xonim der edim ularni. Buvingiz o'ta xudojo'y ayol edilar rahmatlik. Har oqshom toat-ibodatlarini hecham kanda qilmas, bot-bot menga ham: — Xudo jonimizni olguniga qadar bizlarga tavba qilishlik uchun muqaddas muhlatni berib qo'ygani shukr qilaylik, — deb turardi. Bu kabi kalomlar unga juda xush yoqardi. Ammo birozgina xotiralari faromush, tez-tez parishonxotir bo'lib qolardi ham. Shu vajdanmi, esida saqlash uchun kichkinagina qizil daftar tutib olgan va muttasil shu daftariga o'zi uchrashgan, gaplashgan hamda unga birinchi marta yo'liqqan odamlarining ism-shariflarini yozib yurardi. Ha, ana shunday erinmagan bekach edilar. Har

behad darajada holsiz va madorsiz holda pinakka ketardi. Mana, endi esa siz o'zingiz xuddi o'sha buvingizga o'xshab uxlaysiz, vaqt o'tishini qarang-a, bir zumda tarix takror bo'lyapti yana.

...Ha, bekam, albatta, o'tmish voqealarining bari kechagidek esimda qolgan. Keksa xonim biram yoqimtoy edilarki, umrimda bunday keksha va ko'rkam ayolni ko'rmagan edim shu paytga qadar. O'zgacha bir zavq bilan uning siyrak va mayin oq sochlarini tartibga solardim, hatto peshonasi ustiga o'zi yoqtiradigan jingalla patlarini ham ataylab tushirib qo'yardim, nimjon va kuchsiz bo'yniga esa bir shoda eng chiroyli to'q qizil kapalakgul dastasidan ilardim, negaki o'sha kapalakgullar buvingizning jon-u dili edi, bekam! Ular hali-hamon o'zining ham ko'z o'ngimda turibdi.

...Faqatgina eng oxirgi yilga kelib, keksha xonim o'zida bo'lmay qoldi, rostakamiga ahvollari xarob bo'ldi. O'zingiz ham eslasangiz kerak buni. Albatta, xonim aslo yovuz xo'jayiga aylanib qolmadi, aksincha, u dunyodagi eng ajoyib beka edi. Lekin qarilik uning bedor va zaif taniga tobora o'z hukmini o'tkazishda davom etardi. Hatto ozgina esdan og'anday ham bo'lib qolgan edi. Bekach go'yoki o'ta muhim bir narsasini yo'qotib qo'rgan kishidek uyni hamma yog'ida kalovlangancha kezib yurardi – zinalarda, tepada, pastda, hattoki oshxonada ham uni uchratardigiz hamisha. U misoli birov bilan jon achchig'ida urushib turgandek qiyofada to'xtovsiz g'udrangancha, tinmay koyingancha u xonadan bu xonaga beorom ruhdek o'tib, sira tinchimasdi. Ba'zan bo'lsa keksha xonim bu avzoyida ayni yosh boladek ham bo'lib ko'rinar, „Men uni yo'qotib qo'ydim, uni yo'qotib qo'ydim men“, deya ezg'in noli-

gancha atrofga mo'ltirab qarab qo'yardi. – Yura qoling, begoyim, o'sha narsangizni sizga men topib beraman hozir, – deya uni tinchlantirmoqchi bo'lardim bunday vaqtlarda men. Biroq u injiqlik bilan qo'limdan mahkam tutib olardi-da: – Topib ber, Elen, menga o'sha narsamni topib ber tezroq, – deya zorlangancha yuz-ko'zlaridan mildirab yosh oqizardi. Meni yaxshi ko'rardi bekach. Ammo bu hikoyam siz uchun nihoyatda qayg'uli, a, shunday emasmi, xonim?

...Yo'q, afsuski, yo'q, bekam. Keksa xonim keyin tuzalib keta olmadi, ming afsuslar bo'lsin. Sho'rlik beka-chim oxiri miyasiga qon quyulib hayotdan ko'z yumdi. Eng so'nggi aytgan so'zlari: – Ko'zlarimga boq, ko'zlarimga... – degan o'tinch-u zori bo'ldi. Bilolmadim, o'sha damda xonim nimani nazarda tutib unday dedi ekan, buni men hech qachon bilolmadim.

...Yo'q, bekam, mening bu dunyoda siz-xonimlarimdan boshqa hech kimim yo'q. Ota-onamdan juda yosh kezlaringda, hali hayot ma'nisini anglay olmaydigan o'ta g'o'r damlarimda judo bo'lganman. Butun umri sarta-roshlik qilish bilan o'tgan buvam ham arzimasa kichik hatoyimni deb meni ammamning qo'liga topshirib yuborgan. Gap shundaki, men buvamning roziligisiz uning o'tkir sochqaychisida u ayricha faxrlanadigan uzun sochlarimni kesib tashlagandim. O, bu adabsizligim uchun buvamning qanchalar fig'oni falakka chiqqanini bir ko'rsangiz edi o'shanda! Aslida esa men buvamga o'xshagim kelib, unga taqlidan ish qilib ko'rmoqchi bo'lgandim. Har kuni sartaroshxonasiga uzluksiz kirib ketadigan mijozlarning buvamning qo'lidan so'ng boshqacha qiyofaga qanday qilib kirib qolishi men uchun mo'jizaviy maroqning o'zi edi. Biroq sochlarimni unga

indamasdan qirqib tashlaganim o'zim ham kutmagan darajada buvamning qonini qaynatib yubordi, u shunday g'azab otiga mindiki, oqibatda men uning uyidan bir umrga qochib ketishga majbur bo'lib qoldim.

...Yo'q, xonim, buvam mening bu qilgan ishinni qaytib kechirolmadi. U hatto meni ko'rishniyam istamay qoldi. Oyog'i doim oqsab yuradigan, yarimjon amman-nikiga borib yashadim keyin. Endi u kunlarni gapirmay qo'ya qolay, bekam. Behad qiynoqli kunlarim edi ular...

Yo'q-yo'q, bekam, noshukrlilik qilayotganim yo'q. Shunchaki, sho'r qismatimning ayrim sahifalarini sizga oz-moz bayon etib berayotirman, xolos. Axir taqdir meni sizning buvingiz kabi mehribon hamda muruvvatli, qolaversa, mana, siz kabi oqila va tanti qizga yo'liqtir-di-ku. Rappa-raso o'n uch yoshimda bu xonadonga kirib kelgan ekanman, eslasam. U paytlar sizning jajji xolavacha va amakivachalaringiz, xullas, rosa ko'p bolakaylar bo'lardi bu uyda. Keksa xonim esa meni o'sha bolalarga qarab turishga buyurar, ularni sayrga olib chiqib, har kuni aylanitirib kelishimni tayinlar edi. Ehhe, bu kichkinalar bilan o'ta qiyinchilik ichida ovora bo'lib yurishni siz bir tasavvur qilib ko'rsangiz edi! Ustiga-ustak, o'zim ham yosh bolaman, biram og'ir ediki! Lekin men nolimasdim, bor kuchim bilan ularni eplash-ga harakat qilardim. Bolalar ko'cha boshida turadigan qari bir eshakning ustiga minib ko'rishga oshiqar, biroq bo'ylari hali past bo'lganligi uchun sirayam uddasidan chiqqa olishmasdi bu ishni. Ularning bu istaklari benihoya kuchli edi, shunda men yerga enkayib olardim-da, ularni tepamga chiqarib, o'sha baland orzulariga yetkazardim. Aslida, bu yumushdan so'ng qattiq holdan toyardim, bi-roq mening boshqa ilojim yo'q edi. Bunday olib qara-

ganda, bu g'irt telbalikning o'zi, shunday emasmi? Eh, yosh bola qanchalar tentak bo'ladi-ya!..

...Yo'q, biroz adashdingiz, bekam. Men ham sevgan-man, ha, umrimda birinchi va oxirgi marta sevganman men ham. Shundoqqina yo'l pastida, biz yashaydigan uydin salgina narida uning gul do'konini bo'lardi. Hozir aniq eslolmayman, biz u bilan qachon va qanday qilib tanishib qolgan edik, ammo qisqa vaqt ichida rosayam qalin bo'lib, bir-birimizga nihoyatda o'rganib qolgan-dik. Garri (uning ismi Garri edi) va men muttasil ar-zimas narsalar ustida bahs qilar va janjallashar, ammo bu janjallarimiz har qanday gina-kuduratdan xoli, shun-chaki sevgi mojarolari kabi yoqimli va baxtiyor hol edi biz uchun. Gullar! Garri hamisha do'konidagi eng sara gullardan men uchun alohida-alohida tanlab, ulardan katta guldasta qilib olib kelishni bir kun ham unutmas-di. Nilufargul, gunafsha, nargis kabi bir-biridan go'zal gullar bo'lardi ular. Ha, hech shubhasiz, biz allaqachon turmush qurishga ahd qilib qo'ygandik. To'yimizning negadir aynan shanba kuni bo'lishini istab, haftaning shu kunini belgilab olgandik. Ehtimol, siz meni uyqu-si-rayotgan deb hayol qilayotgandirsiz, xonim, ammo aslo unday emas. Men bechoraginaning ham bu yulg'un um-rida ana shunday totli, behisob darajada shirin kechgan damlari ham bo'lgan. Balki, siz bunga hozir ishonolmas-siz... Kunlarning birida Garri yashaydigan uyimizga jihoz tanlash uchun meni chaqirtirdi, aniq yodimda, seshanba kuni edi. Baxtga qarshi, kekse xonim aynan o'sha kuni o'zini juda yomon his qilayotgandi. Bekach ertalabdan beri tuz totmas, sahardan buyon yotog'idan biron soat-ga ham chiqmay, mazasi bo'lmay yotgan edi. Albatta, uni bu ahvolda tashlab ketolmasdim. Boshimda ming xil

o'y, andisha, iymonish va sarosima ichida xonasiga kirib kelarkanman, bekach meni ko'rgan zahoti yuzlari yorishib, kuchsiz tabassum qildi. U mendan, bugun havo o'ta sovuq bo'lib ketdimi, deya bemorlarga xos shikoyat aralash so'rab qoldi. Holbuki, kun ajoyib kechardi, derazadan quyoshning siniq va sirli nuri to'kilib yotardi. Lekin men kekxa xonimning hasratga to'la ko'zlari va og'ir xo'rsiniqlaridan bekachning sog'ligi o'ta tang holda ekanligini tuydim. Shu ondayoq o'z vazifamni yodladim, oqsochlik xizmatimga monand bo'ysunuvchanlik bilan o'z taqdirimni o'z qo'llarim-la o'zgartirishga rozi bo'ldim. Bekachning zorli nigohlariga so'zsiz termilgancha uning doimgidek ko'rpsidan chiqib turadigan sovqotgan oyoqlarini qaytadan issiq ko'rpa tagiga yaxshilab berkitgancha, boshimni quyi soldim.

— O, yo'q, buni qo'ysang-chi, Elen, bor, borib yosh yigitning istagini amalga oshir, menga ahamiyat berma, tentakkinam! Men qariyani deb bekorga sevganingning ko'nglini qoldirma.

Bekachim bu so'zlarini ham shunaqangi yayrab, o'zi hasta yotgan bo'lsayam, zo'rma-zo'raki tetiklik bilan zo'r berib, kuchanib aytdiki, men o'zimni tutib turlmadim.

— Yo'q! — dedim. — Yo'q, xonim. Siz bilan qolaman, hech qayoqqa ketmayman, ketolmayman.

Kekxa xonim noxos yerga tushib ketgan g'ijim ro'molchasini olaman deb bazo'r engashdi, shu chog' eski yo'tali xuruj qilib qoldi-yu, yana o'zini yostiqaqqa tappa tashladi.

— Ahmoqlik qilma, Elen, — dedi u xirillagancha, — hech mahal keyin pushaymon bo'ladigan ish qilma, qizaloq.

Bekach ololmagan kir ro'molchani yerdan oldim-u uning yoniga uchib borib, yoniga cho'k tushdim.

— Yo'q, — dedim men qat'iy ovozd, — men turmushga chiqmayman, xonim.

— Yo'q! Zinhor-bazinhor bunday deya ko'rma! — endi bu gal bekachning tovushida o'zgacha, onalarcha qaynoq mehr taftini his etib, birdan ko'zlarimda yosh qalqidi. Men Garrini yaxshi ko'rardim, biroq ko'z ochib ko'rganim, o'z uyimdek bo'lib qolgan bu xonadonni shundaygina, osongina, odatda, bunday yengillik ichida bevafoqlik va berahmlik hissi mavj urib turadi, eng yomoni — bir umrga tashlab ketishga sirayam, sirayam ko'nglim bo'lmasdi mening!

Eshik yonida meni anchadan beri poylab turgan Garri yana taqillatdi. Shaksiz, u ichkaridagi bor gapni eshitgan va uqgan, ammo o'z og'zimdand qismatimiz nihoyasidan darak topishga mahtal edi.

Qo'limga u yozgan bir bog'lam hatlar va tumshug'ining uchida kichkinagina zanjiri bor kumush qush — Garri bergan hadyani oldim-u, uning qarshisiga dadil chiqib bordim. Unga hatto biron og'iz so'z aytishga ham imkon bermadim.

— Ol, bularning hammasini qaytarib olib ket, — dedim Garriga iloji boricha qaramaslikka urinib. — Bari tamom bo'ldi. Senga turmushga chiqolmayman.

U hayron, beadam g'amguzorlik ichida ko'zlarimga boqib turardi.

— Men o'z bekamni tashlab ketolmayman.

Tamom, shu so'z bilan eshikni qarsillatib yopdim-u, misoli murdadek hissiz ravishda ne qilarimni bilmay bir muddat shuursiz turib qoldim. Ammo murdadek emasdim, negaki butun a'zoyi badanim zir-zir titrar, yuragim beto'xtov gursullagancha o'tib ketayotgan shu g'animat soniyalarni mahkam tutib qolishni behuda istak

o'g'ushida edim. Ortiq o'zimni ushlab turolmadim, chidayolmasdan shartta eshikni ochdim, biroq men kutgan inson allaqachon ketib bo'lgan edi. Ha, bekam, qaysidir ma'noda Garri men kutgan inson edi... Ammo biz — oqsochimiz va bizning bu burchimiz barcha orzu-umidlarning osmonini istasa kengaytirib, istasa toraytirib yuborishga har qachon haqlidir. Lekin ba'zan vujud idrokka itoat etmay qo'yadi. Egnimda oqsochlik libosim, ifloslana boshlagan dog' fartugim bilan, oyoqlarimda esa xonaki shippak, zirillagancha yugurib ko'chaga chiqdim... yo'lga termildim. Ehtimol, meni o'sha holimda ko'rgan odamlar jinni degan hayol bilan ustimdan kulishlari mumkin edi...

...Voy Xudoyim! Nimalar qilib o'tiribman! Axir so-at zang chalyapti-ku! Men esa sizni, ardoqli bekam, shu mahalgacha uxlatmasdan olib o'tiribman-a, ahmoqligimni ko'ring! Nega meni keraksiz ming'irlashlardan to'xtatib, buning o'miga maza qilib uyquga keta qolmadingiz?.. Keling, oyoqlaringizni o'rab qo'yaman. Xuddi buvingiznikiga o'xshatib, kekxa xonim ham hamisha ana shunaqa uxlardilar. Bekach menga har gal yonidan chiqishimdan oldin: — Yaxshi dam olgin, Elen. Bosinqiramay uxla va barvaqt turgin, — deya alohida taynildilar doim. Agarda hozir kekxa bekach tirik bo'lib, shu so'zlarini hozir ham aytga, men nima qilardim, bilmadim, balki, yana tuni bilan baribir bosinqirab chiqar va ertalab xonimdan odatdagidek yana dakki eshtar edimmi, bilmadim...

...Yo'q, azizam, yo'q. Aslida bu qadar hayolparast va devonavash emasman men. Shunchaki, gohida o'ygacholib qolaman mana shunday. Ammo bema'ni o'ylarning hech kim uchun xosiyatli joyi yo'q, to'g'rimi,

bekam? O'y o'yni chaqiradi faqat. Umrni quruq hayol bilan o'tkazish g'irt telbalikdan o'zgasi emas. Lekin, bekam, oqsochingiz ham anoyi qariyalardan emas, u aqlini topa oladi. Adog'i yo'q sarsari o'ylar girdobiga cho'ka boshlaganimni sezgan on o'zimni qo'lga olaman-da:

— Bas endi, Elen kampir, bunaqa ahmoq qiz bo'lmang! Basharti shu gul umringda o'y o'ylashdan ko'ra tuzukroq bir ma'ni topolmay qolsanggina, butun hayotingni shu quruq hayollaringga bag'ishlagin! — deyman.

...Sizga hayrli tun tilayman, bekam. Avvaldan ma'zur tuting, lekin men bu kech ham yana bosinqirab chiqadiganga o'xshayman.

Keyt SHOPEN

OZODLIK

Bir zamonlar shu yorug' olamda qandaydir qushcha tug'ilibdi, tug'ilibdi-yu, ko'zlarini ochar-ochmas o'zini qurshab turgan temir devorlar-u ora-orasidan nur va havo hovuchlanganday oqib kirayotgan qattiq panjaralarga nihohi tushibdi, bechora qushchagina temir qafas ichida dunyoga kelgandi.

Norasta xuddi shu yerda, xuddi shu qafas qo'ynida ulg'aya boshlabdi, ko'rinmas qo'llar homiyligida kuch va kamolotga to'libdi. Holbuki u bu tor-tanqis joyning qafas ekanligini anglay olmas, u uchun butun hayot mazkur temir panjaralar bilan qurshalgan cheklangan hududdangina iboratday edi go'yoki, axir och qolsa oshi, suvsasa chanqog'i bosiladigan, mayin poxol uyumidan hozirlangan yotog'i ustida miriqib rohat oladigan bunday zavqni boshqa qayerdan ham topsin edi? Chiroyli qanotlarini yalagancha, issiq quyosh taftiga biqinlarini tutgancha yalpayib yotarkan, qushchaga o'zining hayoti shoyon lazizati, shoyon gashtli bo'lib tuyulardi.

Kunlarning birida bu jajjiqanot shirin oromidan uyg'ondi-yu, nihoyatda lol bo'lib qoldi: O! Qafas eshigi ochilib qolgandi! Ha, ha, nimadir bo'lib, shu mustahkam qafas ochiq qolib ketgandi. Burchakdagi joyida qunishib turgancha, qushcha hadeb ajablanar, dam hadiksirab, sarosimaga tushib o'tirardi.

Shu payt nechukdir bir xohish bilan qafasdagi mitti jonzot ochiq turgan eshik tomonga sekin-asta yaqinlasha boshladi, qo'rquv va hadik hamon uni tark etmagan, nima uchun eshikning ochiq turganidan uning taajjubi oshar, ammo shunga qaramay oyoqlari beixtiyor yorug'lik baralla oqib kirayotgan o'sha ochiqlik tarafga ohista odimlab boraverardi. Ne-ne tahluka-yu vahima ichida qushcha eshikdan tashqariga boshini chiqardi-yu, birdaniga tepasidagi osmon choyshabining chunonam kengayib, tegrasidagi olamning naqadar kattalashib ketganini ko'rdi.

Yana ko'ngliga g'ulg'ula tushib, burchakdagi joyiga qisilib oldi, lekin qandaydir Notanish kuch uni takror va takror ochiq eshik tarafga sudrayverdi, har gal tashqaridagi beadog', bepoyon nurni ko'rib, qushning ko'zlari qamashdi.

Keyin qo'qqisidan shu sheksiz fazo choyshabi uzra qanot qoqib, mo'l-ko'l to'kilayotgan nurlardan bahra olish istagida kichkina qushcha qafasdan dadil chiqdi-da, tashqaridagi behad kenglik bo'ylab erkin uchib ketdi.

Mayin epkinlar bilan o'ynashgancha shodumon qanot yozib ucharkan, qushcha o'zining bu tentakona parvozidan benihoya lazzat topardi, chiroyli qanotlari va silliq biqinlari horib-toliqib ketgan bo'lsayam, u hamon uchur, yo'lida uchragan har bir giyoh, har bir gul, bo'ringki hamma-hamma narsalarga chuqur hayrat bilan bo'qar, hidlar va teginar edi, u hattoki zaharli hovuz bo'yiga qo'nib, undan ham shirin bo'lsa kerak, degan hayolda o'zgina totinib ko'rmoqchi bo'ldi.

Biroq bu yerlarda qafasdagi kabi och qolsang tayyor ovqat, hamisha taxt turadigan sharoitlar muhayyo emas-

di, buning uchun qushchaning o'zi mehnat qilishi, yelishi, qidirishi, kurashishi lozim edi, oxiri shuncha urnishlari evaziga kelgan yeguliklardan to'yinib, ana undan keyingina charchagan, holsiz qanotlariga orom bera olishi mumkin bo'lardi. Ammo baribir qushcha baxtiyor edi. Chunki u ozod edi!

Unga mana shu hayot ko'proq yoqib qolgandi: qidirishi, topishi, xursand bo'lishi, qayg'urishi, kurashishi va yengishi mumkin bo'lgan shu hayot a'lo edi qushcha uchun. Tasodifan ochilib qolgan huv o'sha qafas eshigi esa haliyam ochiq turar, biroq unda endi hech kim yashamas edi!

O'KINCH

Mamzele Aureliya basavlatdan kelgan, yonoqlari qip-qizil, sochlari endi-endi oqara boshlagan, ko'zlari atrofga hamma vaqt sinchkovlik bilan boqadigan o'rta yoshlardagi erkakshoda bir ayol edi. U, odatda, boshiga ferma erkaklari kiyadigan shlapa kiyib yurar, sovuq kunlari egniga unniqib ketgan moviy yomg'irpo'sh bilan oyoqlariga zil-zambil kirza etiklarini ilib olardi.

Mamzele Aureliya umri bino bo'lib, turmushga chiqish borasida sira bosh qotirib ko'rmagan edi. Bu ayol butun hayoti mobaynida hatto sevib ham qolmagandi. Bir paytlar, yigirma yoshlik avji durkun chog'larida uning ham qo'lini so'rab kelishgan, ammo-lekin Aureliya o'sha zahotiyoyq bu taklifni keskin rad etgandi, shunday bo'lsa-da, mana hozir yoshi ellikka yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, Mamzele Aureliya bir o'zi yolg'iz yashab kelayotganidan zig'ircha ham afsuslanmas edi.

Peshonani qarangki, bu g'aroyib ayol shunday keng-katta olamda yoppa-yolg'iz yashab kelayotgandi, albatta, Mamzele Aureliyaning sodiq iti Ponto va ekinzorlarida mehnat qiladigan negrlar-u bir-ikkita sigir, bir juft hachir, turli-tuman darranda-yu parrandalar hamda ayolning qo'shotar miltig'ini (bu qurolni u jo'jalariga hafv soluvchi qirg'iylar uchun ishlatar edi) hisobga olmaganda, Aureliya butunlay so'qqabosh edi, balki, shu

yolg'izligi sababdanmi, ayol Xudoga qattiq bog'lanib qolgandi, tun-u kun ibodatini hech kanda qilmasdi.

Bir kuni ertalab osmonda to'satdan paydo bo'lib qolgan qora bulutlar kabi bir to'p bolalarning uyi tomon yopirilib kelayotganiga Mamzele Aureliyaning ko'zi tushib qoldi. Chaqirilmagan bu mehmonlaridan ayolning ko'ngli biroz xijil tortdi. Bolalar Aureliyaning yon qo'shnisi Odeliyaga tegishli edi, lekin, ochig'ini aytganda, bu so'qqabosh ayol shu paytgacha qo'shnilarining hatto biron-tasi bilan ham u qadar apoq-chapoq bo'lib ketmagan edi.

Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas, bolalari ortidan yosh juvon Odeliyaning o'zi ham ko'rindi. U bir qo'lida jajji qizalog'i Elodiyani ko'tarib olgan, bir qo'li bilan esa endigina atak-chechak qila boshlagan Tinommini bazo'r yetaklab olgancha qoqilib-suqilib kelar, uning orqasidan katta qizlari Marselina bilan Marseletta ham shoshilgan-cha ergashib kelishardi.

Odeliyaning yuzlari hadeb yig'layverganidan qizarib, shishib ketgandi. Gap shundaki, juvonning olis shaharda yashovchi onasi og'ir hastalanib qolib, qizini huzuriga chaqirtirgandi, baxtga qarshi juvonning eri ham yonida emas — Tehasga ketib qolgandi. Tehas esa Odeliyaga dunyoning bir tupkasiday juda uzoq joy bo'lib ko'rinar-di, ustiga-ustak ayni chog'da yollangan haydovchi Valsin ham stansiyada ayolning yo'lga ko'z tutib o'tirar edi.

— Bilaman, Mamzele Aureliya, ishingiz bir dunyo, boshingizdan oshib yotibdi, biroq bu zumrashalar-ni sizdan boshqa kimga ham ishonib topshira olardim, o'tinaman, yo'q demang, to men qaytib kelguncha bolalarimga ko'z-quloq bo'lib tursangiz. Yo'q-yo'q, o'tirmayman, ovora bo'lmang, meni stansiyada kutishyapti,

Mamzele Aureliya, tushuning, boshqa choram yo'q! Men uchun bir savob ish qiling, iltimos, kelib sizni, albatta, rozi qilaman. Bir o'zim shuncha bolani yo'lda eplab olib ketolmayman, axir uzoq yo'lda bu bolalar odamni aqldan ozdirishi turgan gap, aksiga olib erimning ham uyda emasligini ko'rmasizmi. Xudo ko'rsatmasin, ishqilib, men uymalanib yetib borgunimcha onaizorim uzilib qolmasinlar-da iloyim! — chindanam favqulodda mushkul vaziyat Odeliyaning aqlini shoshirib qo'ygan, juvonning boshi qotib qolgandi, u hatto nima deb, nima qilayotganini ham tuzukroq idrok etolmas edi.

Juvon yalina-yalina baribir bolalarini Mamzele Aureliyaning uyi ostonasida qoldirgancha shoshib jo'nab ketdi; bolalar esa quyosh kuydirayotgan, jajji jo'jalar oyoqlari bilan o't-maysalarni bemalol titkilab yurishgan hovli o'rtasida egasiz, bir o'zlari shumshayib qolishdi, lekin hayal o'tmay biri tortina-tortina, biri bo'lsa be-hadik, zipillagancha zina bo'ylab orqama-кетин ko'tarila boshlashdi. Shu damda havoda moychechaklarning ajib ifori bo'y taratar, uzoq-uzoqlardagi paxta dalalari osha ishchi negrlarning quvnoq kulgilari sadosi o'tkir jaranglab kelmoqda edi.

Mamzele Aureliya bolakaylarga o'zining norozi va sinchkov ko'zlarini qadagancha serrayib turib qoldi. U bo'mbaloq Elodiyaning og'irligidan enkayib olgancha gandraklab qadam bosayotgan Marselinaga xushlamaygina ko'z qirini tashlab qo'ydi. Shu onning o'zida onasini so'rayverib harhasha qilayotgan Tinommini tinchlantirishga urinayotgan Marselitani ham bu sovuq nigohidan bebahra qo'ymadi. Ikki-uch lahzalik shunday do'q-po'pisalaridan keyin Mamzele Aureliya biroz ko'nglini bo'shatib oldi-da, noiloj o'zini qo'lga olib, endi

qilishi majburiy bo'lgan ishlari rejasini o'zicha tuzib chiqdi. Ayol dastlabki ishini to'polonchilarning qornini to'yg'azishdan boshladi.

Basharti bu bolalar Mamzele Aureliyaning qo'l ostida ish haqi olib, mehnat qilayotgan negrlar qabilida bo'lishganda bormidi, ayol o'sha vaqtning o'zidayoq bu shumtakalarni bir zumda haydab yuborgan bo'lar edi, ammo sho'rlik Odeliyaning oh-u zorlari uning bu qarorini qat'iy cheklab turardi. Biroq baribir, bola boqish hazil ish emas-da, axir bolalar kichkina cho'chqa bolalari emas-ku, ular hamma vaqt e'tibor talab qilib, odamdan astoydil mehr kutishadi. Bu murakkab vazifa esa bu kabi yumushlarga butkul nohud bo'lgan Mamzele Aureliyaning aslo qo'lidan kelmas edi, umrida shunday qaltis vaziyatga tushib qolishini esa ayol hatto tushida ham ko'rmagandi.

Shuning uchun birinchi kunlari Odeliyaning polaponlariga g'amxo'rlik ko'rsatishda, rosti, Mamzele Aureliya anchagina adabini yedi. Axir u jonsarak Marselettani baland va buyruqomuz ohangda gap eshitishi bilan darrov yig'lab yuborishini qayerdan ham bilsin? Yosh Marselettaning tabiati shunaqa ekan-da! Mamzele Aureliya kichkintoy Tinommining ham gullarga ishq baland ekanligini aniqlab oldi, kichkina bezori to gullarni bandidan uzib, bog'dagi jami sara chechaklarni payhon qilmaguncha ko'ngli hech joyiga tushmas ekan.

— Unga hech qaysi tanbehingiz kor qilmaydi, Mamzele Aureliya, — deya ayolga yo'l ko'rsatdi Marselina, — yaxshisi, siz uni stulga bog'lab qo'ying. Oyim hamisha Tinommining aqlini shu tarzda kiritib qo'yardilar. Mamzele Aureliya bezori Tinommini bog'lab qo'ygan stul kenggina va qulaygina ekan chog'i, kichkintoy unda bir

zumda pinakka ketib qoldi, nihoyat, Mamzele Aureliya to'polonchilardan birini shu yo'sinda tinchitdi.

Oqshom cho'kishi bilan ayol xuddi jo'jalarni iniga haydab kirayotgan kabi bolakaylarning barini birma-bir joy-joylariga yotishlarini buyurdi, biroq kichkintoylar Mamzele Aureliyaning qarshisida kalovlangancha turib qolishdi. Axir ularning momiqina yostiqlari ustiga har kech taxt qilib qo'yiladigan tungi ko'ylaklari qayerda qoldi, buning o'rniga ular nima uchun xuddi ho'kiz qamchisiday og'ir qo'l bilan ketlariga niqtalanganlaricha yotoqlariga haydalishlari kerak? Har kech polning o'rtasiga ularning toliqqan, quyoshda toblanib chang-chung bo'lib ketgan oyoqlarini yuvib olishlari uchun keltirib qo'yiladigan suv to'la tos-chi, u qayerda qoldi? Shu tobda qizaloqlar Marselina bilan Marselettaning kulgisini qistatgan narsa, Mamzele Aureliyaning shumtaka Tinommini uxlati olmay toza xunob bo'lib qiynalgani bo'ldi, axir ayol bu yosh qaroqchiga Krok-mitan yoki bo'lmasam Lup-garu to'g'risidagi ertaklar aytilmaguncha uxlay ololmasligini qayoqdan ham bilsin, yana keng-jatoy Elodiya ham alla eshitib, tebratmagunlaricha ko'z yumishi o'lguday qiyin ekanligini ayol bechora nihoyat arang tushunib yetdi.

— Yaxshigina tavbanga tayanib qoldim, Rubi xola, — deya iqrar bo'ldi Mamzele Aureliya o'z oshpaziga yorilib, — men uchun bu bolalarga qarashdan ko'ra o'nlab plantatsiyalarni boshqarish osonroq ekan. Axir bu dahshat-ku! Jonim hiqildog'imga keldi! Endi menga hech qachon bola to'g'risida og'iz ochma ko'rmang!

— Oh, Mamzele Aureliya-yey, bu olamda bolalardan-da beg'uborroq zot topa olsangiz koshki edi. Axir bolalar bilan birga maza qilib o'ynash kattalar bilan

muomala qilishdan koʻra yoqimliroq emasmi? Menimcha, sizga ularning tilini topib olish mushkullik qilyapti. Bora-bora bolalar bilan qanday chiqishib ketganingizni oʻzingiz ham sezmay qolasiz.

Shubhasiz, Mamzele Aureliya Rubi xolaning gaplariga oʻsha zahotiy oq qoʻshila qolmadi, buni qaranga, toʻrt beshta toʻpolonchi bilan ikki kunda til topishib boʻlarmidi – bu axir, Mamzele Aureliyadav ayol uchun benihoyat murakkab vazifa-ku! Zarurat tufayligina onasining ikki-uch nayrangini oʻzlashtirib olganiga ham Mamzele Aureliya Xudoga behisob shukronalar keltirardi.

Lekin baribir Rubi xola haq boʻlib chiqdi: Mamzele Aureliya asta-sekin bariga koʻnikib qoldi; u kichkina bezori Tinommining hamma vaqt shira yuradigan qoʻllari uchun umrida hech tutmaydigan oppoq peshbandini tutib oladigan boʻldi, hattoki toʻpolonchining mehr va tashakkur ifodasi sifatida chopqillab kelib choʻlp-choʻlp qilib oʻpishlariga-da oʻrganib qoldi. Ne-ne zamonlardan beri shkaf tepasida qoʻl tegmay, chang bosib yotgan igna-ipsolingan savatcha ham joyidan qoʻzgʻaldi, endi Mamzele Aureliya yirtilgan kiyimlar-u tugmasiz kamzullarni butlab qoʻyish uchun qoʻliga hattoki igna olishgacha majbur boʻldi. Ammo ayolning eng qiynalغان joyi butunkun mobaynida bir nafas ham tinmaydigan qattiq baqirigʻ-u chinqiriqlar, uyning u burchagidan bu burchagigacha aks-sado berib, to qora kechgacha tugamaydigan shovqin-suronlar boʻldi. Lekin kechalari ham Mamzele Aureliya bahuzur uxlay ololmas edi, negaki kichkina Elodiyanning issiqqina boʻmbaloq tanasi ayolga mahkam yopishib yotar, kenjatoyning oʻtday nafasi Mamzele Aureliyaning yonoqlariga goʻyo jajji qushning qanotlariday mayin urib turardi.

Oradan ikki hafta oʻtar-oʻtmay Mamzele Aureliya axiyri bu gʻalvalarning bariga koʻnikib qoldi, endi u ortiq nolimay ham qoʻydi.

Bir oqshom ayvonga qandaydir yumush bilan chiqqan Mamzele Aureliya koʻcha muyulishida uyi tomonga qayrilayotgan Valsinning tanish koʻk mashinasini koʻrib qoldi. Haydovchining yonida koʻzlari sogʻinchdan porlagan Odeliyaning intizor chehrasi aks etdi. Ular uyga toбора yaqinlashganlari sari Mamzele Aureliya yosh juvoning quvonchidan yorishib ketgan yuzlaridan uning uyga qaytib kelganidan behad xushbaxt ekanligini yurak-yuragidan his etdi.

Shundayku-ya, biroq bu aytilmagan va kutilmagan tashrif Mamzele Aureliyaning qalbiga ulkan qaygʻu toshini-da bir onning oʻzida bostirib qoʻydi. U darhol bolalarini toʻplab berishi lozim edi. Ax, bu zumrasha Tinommi qayoqda qoldiykin-a? E-ha, bu shumtaka boʻlsa-boʻlmasa, ogʻilxonada pichoq oʻynab oʻtirgan boʻlishi kerak. Xoʻsh, qizaloqlar – Marselina bilan Marselletta-chi, ular qayerda qolishdi? Uyning biror burchagida qoʻgʻirchoqlariga koʻylak bichib, ularni yasatirish bilan mashgʻul boʻlsalar kerak-da. Birgina kenjatoy Elodiyadagina tashvish qilmasa boʻlardi, negaki goʻdak Mamzele Aureliyaning qoʻllarida hech narsa bilan ishi yoʻq, oʻzi bilan oʻzi oʻynab yotardi, ammo u onasini olib ketgan haydovchi Valsinning qadrdon mashinasi chiroqlarini koʻrib qolishi bilan sevinganidan birdan qattiq qichqirib yubordi.

Nihoyat, hamma toʻs-toʻpolon tinchiydigan boʻldi, ana endi bolakaylar oʻz uylariga butunlay qaytib ketishadi. E-voh, ular buncha tez ketib qolishmasa! Axir kelganlariga uncha koʻp boʻlgani yoʻq-ku! Mamzele Aureliya peshayvon oʻrtasida turgancha negadir ich-ichidan

yopirilib kelayotgan o'kinch to'la nidoga arang dosh bergancha jimgina turib qoldi. U hatto mashinaning qanday kelib, bolalarni qanday olib ketganini ham sezmay qoldi. Butun atrof-javonibdagi dalalar uzra qip-qizil shafaq shu'lalari ila g'ira-shira shom ko'lankasi cho'kib borar, go'yo mana shu tevarak olam ham bu qorong'ilik ichiga tamomila qorishib ketayotganday bo'lardi. Jami borliq uzra yoyilib borayotgan qirmizi tuman ichida ayolning nigohi ortiq hech narsani ilg'amay qoldi. Uning quloqlari hattoki mashina g'ildiraklarining quloqni qomatga keltirguday o'tkir chirqirashini-da eshitmadi. Uning quloqlariga kichikintoy bezorilarning shodon, yangroq ovozlari qattiq o'rnatib qolgandi.

Mamzele Aureliya ohista xo'rsingancha uyga kirib ketdi. Ichkarida uni bir dunyo yumush kutib turardi, bolalayar butun uyni ostin-ustin qilib yuborishgan, hamma yoq parokanda bo'lib to'zg'ib yotardi, ammo xonalarni tartibga solishga ayolning qo'li darrov bormadi. U stol oldiga xomush cho'kdi. Yana bir o'zi yolg'iz qolgan jussasini qurshagancha tashqaridan o'rnatib kirib kelayotgan tun rutubati chulg'agan sovuq xonasi ichiga ma'yus bir nigoh tashladi. So'qqabosh ayol boshini qo'llari ustiga qo'ydi-da, ich-ichidan otilib kelayotgan so'zsiz faryodlarga ortiq bardosh berolmay, oxiri yig'lab yubordi. Ha, Mamzele Aureliya yig'layotgan edi! Lekin uning yig'isi hamma ayollarnikiday yumshoq, mayin yig'iga o'xshamasdi. Mamzele Aureliya xuddi erkak kishiday, butun yuragini pora-pora qilib yuborguday nola bilan o'kirib-o'kirib yig'lardi. U hatto iti Ponto kelib, qo'llarini yalayotganini ham sezmas edi.

SO'QIR

Ko'rinishi biroz g'ayrioddiy bo'lgan qandaydir odam bir qo'lida qizil qutichani holsiz ko'targancha ko'chada imillab borardi. Uning aftodahol usti-boshi bilan arzon-garov bosh kiyimini go'yo kuchli yomg'ir savalab tashlagandek juda tashlandiq ahvolda, saxiy quyosh nurlari necha bor ularni quritib, chiroyli qilishga tirishmasin, baribir o'zgarmas shamoyilda. Notanish kimsa ko'rinishidan unchalik qari emas-u, ammo yoshiga qaraganda xiyla quvvatsiz ko'rinar; issiq hovu ko'tarilayotgan asfalt yo'lakdan paypaslagancha odimlarkan, ko'kdan yog'ilayotgan oftob seli uning butun tanasini o'tdek kuydirib tashlardi. Ko'chaning narigi betida zich qilib ekilgan daraxtzor kishiga oromiy soya-salqin hadya qilardi. shuning uchun ham izdihom faqat o'sha tараfdan yurardi. Biroq bizning notanish qahramonimiz bu muruvvatdan behabar edi, chunki uning ko'zlari ko'r bo'lib, tashqaridan ko'proq aqli noqis kishidek bo'lib tuyulardi.

So'qirning qizil qutisida u sotishga niyat qilib qo'yan bir to'p qalamlar yotardi. U yo'lboshlovchilik qilish uchun qo'lga hech qanday tayoq ko'tarmagan, aksincha, bor ishongan tog'lari ikki oyog'i kabi faqat ulargagina bo'ysunib temiryo'l zinalari bo'ylab chalamlagancha bir-bir bosib ketardi. Mabodo biron-bir uychaning zinalariga yaqinlashgudek bo'lsa, so'qir ulardan ehtiyotkorlik bilan

bir amallab koʻtarilib olardi. Baʼzida u eshik oldiga ming mashaqqat bilan yetib borar, qoʻngʻiroq tugmasini topa olmay kalovlanar, oxiri paypaslana-paypaslana yana zinlardan pastga tushib, nochor, yoʻliga ravona boʻlardi. Ayrim temir darvozalarga otning kallasidek katta qulf urilgan, bu xonadon sohiblarining yoz saratonida qayerlargadir dam olishga ketishganidan dalolat berar, ammo qaysar moʻysafid xarsangdek darvozalarning ochilishiga mahtal boʻlib, vaqtini behuda sarflardi, xuddi shu joylarda u butun mulkini sotib, qutula oladigandek noiloj umid bogʻlardi.

Darvoqe, omad kulib boqqan kezlarda soʻqir eshiklar tugmasini topishga muyassar boʻlardi, ammo uy xoʻjayini yoki bekasi bunday faqirona va arzimas tashrifdan dargʻazab boʻlib, kichik bir matoh uchun ularning oromini buzgan qandaydir betayin daydini faqat tahqir va laʼnat bilan siylab joʻnatardilar.

Soʻqir uzoq yoʻl bosdi, yura-yura madori quridi, biroq hech narsasini pullay olmadi. Esida, bir gal uni qandaydir zoʻravon qurib ketgur qutichasi bilan hadeb oyoq ostida oʻralashgani uchun bir qoshiq qonini ichib qoʻygudek boʻldi-yu, lekin soʻqirliги uchun biroz insof qilib, tagʻin uni oʻz tirikchiligiga qoʻyib yuborgandi. Ammo oʻsha kazzob rostmana uning jonini olgudek boʻlgandi, temirdek qoziq tishlarini uning ter tepchib kirlagan boʻyniga tekizib, xuddi qasdini shu yerdan olmoqchidek vahshat bilan qattiq oʻkirib bergandi. Odamning yuragi eziladi, juda ogʻir bu hol, ammo nachora?

Osmondan oftob seli quyilyapti. Soʻqir egniga qatqat engil ilib olgan – koʻylagi ustidan issiqqina nimcha, nimchaning ustidan esa kuzlik yomgʻirpoʻsh – yonib ketay deydi. Bechora bu keraksiz lash-lushlarini ye-

chib, bir qoʻliga ilib olsayam boʻlardi, biroq ayni damda uning hayolida bu ahamiyatsiz yumushga joy yoʻq, uning butun fikr-u zikri qadrdon qizil qutichasida. Baland imoratdagi qandaydir bir mehribon ayol yuqoridagi derazadan uni koʻrib qolib, qiynalgan joniga rahmi keldi, soʻqirga soya-salqinlar ostidan yurishini maslahat berdi.

Moʻysafid koʻchaning u yuziga oʻtdi, bu yerda bir guruh toʻpolonchi va qiziquvchan bolalar oʻyini avjida edi. Soʻqirning qoʻlidagi quticha rangi ularni oʻziga tortdi va bolalar darrov uning ichida nima borligini bilgilari kelib qoldi. Ichlaridan eng shoʻxrogʻi bir hamladayoq cholning qoʻlidan narsasini tortib oldi-yu, ura qochdi. Har bir tirik odamlarda boʻlgani kabi koʻrda ham ichki sezgilar mujassam: u dovdiragancha atrofga alang-jalang qilib bolalarga poʻpisa bilan baqirib-chaqirdi, kutilmaganda bor bisotini qoʻldan boy bergan kishidek notavon va juda miskin boʻlib qoldi. Birpasda muyulishda politsiyachi hozir-u nozir boʻldi, u yoʻq yerdan betartiblik chiqargani uchun soʻqirning yoqasidan zarb bilan bir tortdi, lekin uning koʻzi koʻrmasligidan voqif boʻlishi bilan nooʻrin tarzda uni tayoq bilan savlashni bas qildi, koʻr yana oʻz yoʻliga qarab ketdi. Oftob yanayam taftiga oldi.

Maqsadsiz sandiraqlayverib, ittifoqo, soʻqir oʻta dahshatli bir gʻala-gʻovur ichiga tushib qoldi, ajdarhodek qoʻrqinchli mashinalar dunyoni boshiga koʻtargancha suron solib u yoqdan bu yoqqa betinim harakatlanar, yovvoyi qoʻngʻiroqlarini uzun-uzun chalishar, bu sarosimadan hatto koʻrning oyoqlari ostidagi yer ham zangʻillab ketib, uni dir-dir titratardi. Soʻqir koʻp ikkilanib oʻtirmasdan, koʻchani shartta kesib oʻta boshladi.

Shu vaqt nimadir sodir bo'ldi — bu shu qadar dahshatli va vahimali ediki, birdan ayollarning hushi boshidan uchib, erkaklarning tili kalimaga kelmay bir nafasda tahlilga ketgan, yuz-ko'zidan hech nimani idrok qila olmayotgani namoyon, u shuursizlarcha gandraklab o'tayotgan mo'ysafidning naq peshonasi oldida mashinasini zo'r berib to'xtatmoqchi bo'lganini atrofdagilarga tinmasdan ta'kidlayverardi.

Ne mo'jiza ro'y beribdiki, to'satdan shuncha olo-mon bir joyga zudlik bilan, darrov oqibatli va mehribon bo'lgan holda to'plana qolishdi ekan? Bolalar oyog'ini qo'lga olib yugurgilagan, erkaklar va ayollar tuyqus ro'y bergan g'amgin bu lavhani o'z ko'zlari bilan ko'rib qolish uchun bir-birlarining ustilaridan oshib o'tgudek bo'lib hovliqan, shifokorlar ham qayerdandir katta tezlikda qoralarini ko'rsatgandi.

Olomon pachoqlangan o'lik tana suratini, nihoyat, o'z ko'zlari bilan ko'rishgach, dahshatdan o'takalari yorilgudek bo'ldi, ular bu tanni ham shaharning ancha boobro' va badavlat xonadonlaridan bo'lsa ne ajab, deyay o'zlaricha gumonsirab qoldi. Qanday johil qismat uni bu la'nati ko'chaga tortiladi ekan? Ehtimol, u ham o'tmishida katta-katta biznes qilib, kishibilmas uni-buni orttirib, yig'ib qo'ygandir, ehtimol, u uzoq Atlantika sohillarida maza qilib dam olayotgan oilasidan nima yumush bilandir ayrilib, kechikkandir, rost, asl boylar o'zi shunaqa kamtarona va haqir kiyinib olishadi, qiziq, bu odam bor yig'ganini qayerga yashirgan ekan?

Nohos bu olam bilan vidolashgan so'qir olomonning havotir va shubhalaridan behabar, ro'parasidan uchib kelayotgan mototsiklni fahmlamay qolgan, ana endi bir

umrlik orom qo'ynida, ammo yana o'sha faqirona va miskin alfozda mangu uxlab yotardi. Rostdanam u atrofidagi odamlarning qiy-chuvi-yu to's-to'polonidan mutlaqo habarsiz va beg'amdek yotardi, faqatgina so'qirning unga bir umr yo'l boshlagan va o'lguncha bir muddat ham tin olmagan sho'rlik oyoqlarigina hamon kuydirayotgan quyosh tig'ida qurib-qovjiragancha kimdandir o'zgina madad va quvvat kutardi.

nigoh solarkan, yashil barghalar aro yulduzlar milt-milt qilgancha koʻz qisa boshlarlar keyin.

Tun benihoya sodda, benihoya samimiy va ajabki, bir olam, bir jahon asrorlarga toʻladir. Odamlar boʻlsa turfa dunyo, men ularni hargiz tushuna olmadim. Baʼzi birovlar qalbim durlarini ayyorona tortib olib, soʻngra esa tahqir etdilar, birovlar esa kuldilar besabab, beyurak. Mayli, nima ham derdim. Mening bor mehrim, sevgim, ishonchim, tuygʻularim taskin va tasanno aytguvchi ziyrak, darddosh, dildosh Tun uchun baxshida boʻldi.

Mana, sohir qushchalar oqshomgi qoʻshiqlarini kuy-lashmoqda: ishqilib, tezda tugatib qoʻyishmasin. O, ne-chogʻlik dono boʻlishmasa bu qushchalarim! Ular odamlar singari safsata sotishmaydi, dagʻdagʻa qilishmaydi, izzatini yerga urishmaydi. Ular faqat va faqat senga oniy lazzaat damlarining farovonligini sogʻinishadi: „Uxla, uxla, uxla“, deyishadi. Zarang daraxtni aylana shamol oʻynay boshlaydi zum oʻtmay, xuddi jajji yap-roqlarga izhori ishq bayon etayotganday iliq, yumshoq teginib oʻtadi ularga.

Oʻyga tolaman shunda, butun yer kurrasida ana shunday jannatliy neʼmatlar, totli rohatlar mavjud ekan, unda ne sababdan kaltabin, tili uzun kaslar talasharlar hukm-ronlikni, nega ahmoqlar hokim boʻlgisi kelar bepoyon yer yuziga! Chinakam farogʻatni ham buzgan oʻshanday iblis odamlarning oʻzidir. Bugun dunyo ularniki-day olam sarvariga turli iddaolar qiladilar, zamon va zamin dastidan dod soladilar. Juda xunuk koʻrinadi ular, qip-qizil yuzlari, oʻynoqi koʻzlari bilan tili hamda qoʻrs odatlarini yaqqol ifodalab turadilar. Aslida-chi? Aslini olganda, bundaylar olam sarvari toʻgʻrisida neniya bila

SOGʻINIB KUTAMAN TUNLARNI

Borgan sari odamlar bilan ishim yoʻq, ularning na hayotlari va na harakatlari bilan qiziqmay yashayapman. Kimdir shunday bir dono naqlni aytgan edi: Oʻntalab kibtob oʻqigandan koʻra bitta insonni oʻrgangan aʼloroqdir deb. Ehtimol. Valekin koʻnglimga unisiyam, bunisiyam yoqmaydi zinhor, ular faqat jonimni qiynab, aqlimni shoshirar. Zero, bu mukammal hamda murakkab til-simotlardan qay biri ham manim dilim ila tillasha olar edi qadrdon tunlar – sevimli yoz tunlarim misol? Yoxud shivirlashar qirrador va ravshan yulduzlar kabi va yo suyisharlar mayin nasimday?

Men har kun tunni sogʻinib kutaman, zarang daraxti ostida orom olib yotarkanman, uning – tunning koʻinot-ning zumrad osmoni boʻylab asta yoyilishini, bagʻoyat ohistalik ila kirib kelishini kuzataman. Tun. Uning ham-ma narsasi juda aziz, juda qadrlil. Salqin vodiylar osha-zimdan, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan oʻrmlay-oʻrmlay boshim uzra soya solib turgan zarang daraxti ustida muallaq qotadi u, goʻyoki meni sezmaydi, deya hayol qiladi azizim. Sekin-sekin daraxt qaddini oʻray boshlar, sirlari bisyor yaproqlar oralab razm solgay chehranga, makko-rim haddan ortiq quv, butun Magʻrib-u Mashriq mulkini egallab oladi bir zumda, tepamdagi zarang daraxti ichra

olishardi? Men endi borib xuddi o'sha munofiqlardan so'rayinmi Yaratganning tabarruk ne'matlari qadrini, qiymatini. Yo'q-yo'q, aslo! Boshim uzra jimillayotgan javohirdek yorqiroq mana shu yulduzlar-u tegramdagi sarg'imtir qorong'ilik hokimi bo'lmish xokisor tundan-gina so'arman men faqat: Zotan, haqiqiy hayot qadrini ular bilgaydir...

QIYOFALAR

Biz ajab yer shari ichra istiqomat qilamiz. Bizning koinotda turfa xil insonlar yasharlar. Ba'zi odamlar borki, ularda benihoya qudratga ega cheksiz quvvat mavjuddir. Ular hech qachon vaqt otliq uchqur tulpor bilan hisob-kitob qilmaydilar, ular uchun jami narsa kuch. Bu omil esa unday kishilarning ahmoqona odim tashlashlariga qarshi zo'r qalqon bo'la oladi. Ular beadog' saodatmand-dirlar. O'shanday kuchli insonlar uchun mayda-chuyda narsalarning-da zig'ircha mohiyati yo'q, binobarin ular adog'siz ulkan tafakkur ila umr kechirarlar. Bu kishilar aslo horimaslar, hayot bilan hamisha hamnafas, hamisha bir qadam oldinda ketarlar, ular tiriklik doirasida ham hech qachon yutqazmaslar, bu xushbaxtlar mudom harakatdagi yashash marosimi aro aslo yo'l chetida, xarob va miskin qiyofada qolmaslar.

E-ha! Muttasil harakatdagi yashash marosimi ichidan yo'l chetiga chiqib qolgan, o'zini o'zi uzlatga itqitgan qiyofa, aslida, men – o'zim ekanman-ku! O, hayot ko'zgusi... Uning sehrli ranglari olmos yanglig' tovlanib, suv yuzasini mayin mavjlanitirayotgan istarasi issiq quyoshdan-da porloqroq ekan. Xo'sh, umrboqiy izdihom ostida jon va jismning birga qolib ketishi qanday kulfat bo'libdi! Garchi vujud tingan esa-da, ilohiy ruh tiriklik doirasining ulug'vor ohangi sadosida har soniya harakat-

dadir. O'sha ohangning bir kuyi poyonsiz hasratga to'la, shikastadil nola bergaydir, bir kuyi bo'lsa behad ohangdor, ohista yangraydir – axir yashash bu ziddiyatlarga to'la ulug' oqim – uning har bir kuyi Parvardigorning xohishidan yaralar.

Odamzod qudratining o'sha yashash marosimi ko'kdagi yulduzlardan-da yuksakroqdir, shubhasiz, inson irdasi oldida mana bu harakatlanayotgan koinot-da kuchsiz, zero, hayot gulto'ji yagona – insondir.

O! Tiriklik oqimidan bir chetda g'aflat bosib yotgan qiyofa, ya'niki o'z-o'zimdand negadir yig'lagim keldi; bezabon maysalar-u surrang bulutlar bilangina tilla-shib, so'zsiz jonzotlar kabi yashayotganimdan nihoyatda o'ksidim. Rostki, o'z kulbam ichida hayotning o'zgarmas qoidalarining jamiyat tegrasida qanday hukm o'qishlarini tiniqroq idrok etishim aniq haqiqat. Vaholanki, goho yashash marosimidan bir chetga chiqib, turfa xil qiyofalarni kuzatish, bu qiyofalarning tarhi-yu ifodasi, oq-u qorasini izohlab olish-da behad lozim vazifadir.

O'sha qiyofalar – ba'zisi ruhani-da ezadigan zulmkor oyoqlilar, ba'zilari jonni hech bir titroqsiz bo'g'uvchi shafqatsiz qo'llilar, ba'zilari yurakka bir umr osoyish baxsh etuvchi shirin tillilar, ba'zilari esa hech idrok qilolmas darajada beadog' saxovatga to'la qalblilar – ehhe, yana qancha-qancha turfa qiyofalar! Men qadamlar ohanigini eshita olmay qoldim...

Jim! So'zlamang! So'ramang! Siz faqat javob bering:

– Xo'sh, o'sha hayot ko'zgusidagi qiyofamiz qandayligini o'zimiz ham aytib bera olamizmi?

HIKMATLI BIR QISH KUNI

Poyezd rappa-raso bir yarim soatga kechikdi. Menga hamroh bo'lib kelgan ikki-uch nafar yo'lovchi ertalabki soat oltida bunday izg'irin, achitqi havoda kelgandan ko'ra, yana biroz avvalgi joyimizda qolsak durust bo'larmidi, deya bir-birlariga norozi to'ng'illashganlaricha poyezddan tusha boshladilar. Biroq qarshimizda Emil Sutirning issiqqina oshxonasi o'zini ko'z-ko'z qilib turardi. Biz Emilning oshxonasida, har holda biroz isinib olsak bo'lardi. Yana ovqatlanib ham olmasak bo'lmaydi. Yo'ldan ochqab kelgan biz kabi horigan yo'lovchilar uchun bu oshxonada cho'chqa go'shti ham, qaynatilgan tuxum-u qovurilgan jo'ja ham, boringki, dengiz chig'anog'i-yu mazali qahvalargacha – hamma-hammasi ishtalagan paytda muhayyo turardi. Negadir shunga astoydil umid qilib ichkariga kirdik.

Oshxonada Emilning cho'chqaday semiz va paypaslangan xotini omborxonaday ivirsiq bu go'shasida hamma vaqt mudrab o'tirardi. Ehtimol, u bechoraning ham tundagi qattiq sovuqdan eti junjikib qolgan-u, saharga kelib o't yoqilgan pech tagida uxlab qolganidir. Haytovur, u bizning sharpamizdan ko'zini ochdi-da, jinday mulozamat ko'rsatgan bo'ldi. Kecha kechasi erining shaharchadan o'lguday bo'lib ichib kelganini aytib, ming'illagancha shikoyat qila ketdi. Emil oshxo-

nada haliyam kayfi tarqamagan alfozda o'tirar, xotini-ning peshonasida tinmay javrab, kuyukishlarini zig'ircha bo'lsayam parvoyiga keltirmasdi. U bir og'iz ham gap qaytarmasdan hadeganda gurullab yona qolmagan pech ichiga pista ko'mir tashlash bilan ovora edi. Emilning xotini qalin surp ko'ylagi ustidan erining og'ir chakmonini kiyib olgan, chakmonning yong'oqday dumaloq-dumaloq tugmalari almoyi-aljoyi qilib solingan, xotin esa engil-boshining nobopligidan yanayam beshbattar pishillagancha, xuddi ertalab yugurib kelganday, to'xtovsiz harsillab turardi. Bu ayolning qiliqlariga men hecham tushunolmay o'tirardim. U bo'sag'ada o'zining biqqi, kir qo'llarini eshik raxiga tiragancha xuddi qorovulday g'o'dayib turib qolar, dam-badam ovqat pishiradigan pech va boshqa ro'zg'or buyumlari qalashib yotgan qo'shni xonaga ko'z qirini tashlab qo'yardi.

— Ha, bu Emil yashshamagur kundan kunga haddidan oshib ketyapti, zormanda hech uyga qaramay qo'ydi, Xudo biladi, bu ketishda qaysi go'rdan toparkinman uni?!

Hayotga bu qadar bepisandlik ayolning ko'zlaridagi yoshlik va go'zallik nuqsini allaqachon so'ndirib yuborgan, misoli yonib-yonmayotgan pechdagi olov singari umri sustkashlik bilan qorishiq o'tardi.

Biz bo'lsa faqat qahva ho'plab o'tirardik. Ichimizdan hech birimiz na qovurilgan jo'ja, u ham go'yo taxta ustida bijg'ib yotganday bo'lib tuyulardi; na chig'anoqlar — ularning keltirilganiga ham, balkim, necha-necha zamon bo'lib ketgandir; yoki qo'y go'shti, negadir butun uy ichini go'shtning qo'lansa hidi tutganday edi; hatto qaynatilgan tuxumlar ham palag'da bo'lib aynib yotganday bo'lib tuyulardi; hech qaysisini ko'nglimiz tortmasdi, to-mog'imizdan faqat qahva o'tardi, xolos.

Emil niyatimizni sezib qolganday bizlarga ustma-ust qahva tayyorlash bilan mashg'ul edi, u goh tim qora, goh oppoq sutli qilib qahva hozirlar, o'zicha bizlarga erkakcha shinavandalik qilardi.

Qulog'imizga qo'shni xonada qandaydir shovqin va to's-to'polon ovozi chalinib turardi, dastlab oshxonaga sovqotib kirgan paytimizda bunga unchalik ham e'tibor bermagan ekanmiz. Bir mahal Emilning cho'chqasifat xotini lapanglagancha o'sha xonaga o'tib ketdi. Uning bu taxlit yurishini ko'rib, o'zimizni kulgidan zo'rg'a ushlab qoldik. Ikki nafar sherigim ham — ular natchitocheslik edilar — men bilan angraygancha berigi xonaga quloq tutib qoldik, g'ayrioddiy nimadir sodir bo'lgandek edi. Ichkarida Emilning bir bolasi xona o'rtasida qaqqayib turgan baland xum ustidan chalganchasiga yiqilib tushgan, to otasi yo onasi yordamga yetib kelguncha ikki soatdan buyon chinqirib to'polon qilayotgan edi. „Bo'yning chirigur!“ — deya qarq'angancha oshxonaga chiqdi Emilning xotini bolasini ko'tarib, „Butun aft-angori qorayib ketibdi! Xumga chiqishiga balo bormidi bu itning?! U xumning ichi to'la ilon bilan kaltakesak bo'lsa! Bahaybat bir ilon yerga tushib o'ralashib yotibdi-ya!“

Bolakayning yuzi hadeb qichqiraverganidan qip-qizarib ketgan, onasining yelkasi osha bizlarga qararkan, ko'zlari chaqnaib, yakkash iljayib turardi.

Men esa qanday qilib shunday yosh bola ikki soatdan beri bunday qo'rquv va azobga dosh berdiykin, deya dam vahmim, dam hayratim oshgancha miq etmay o'tirardim. Ammo kichkina bolalar uchun dunyo misoli bir ajoyibotxona, ular uchun hayol hamda haqiqat o'rtasidagi tafovutni ajratib olish benihoya dushvor vazifadir.

Nihoyat, diqqinafas oshxonadan tashqariga chiqarkanmiz, tobora avjiga minib yog'ayotgan qordan to'yib-to'yib nafas oldik. Butun yer yuzini oppoq qor shiddat bilan egallab borardi, shimolning oppoqqina, yumshoqqina qori ko'zni qamashitguday yorqin va har qanday manzaradan-da yuz martalab chiroyliroq edi. Jami borliqni qoplab borardi bu qor, qalin o'rmonzorlar bag'ridagi qarag'ay shoxlari oralab yerga, daraxtlar boshiga yog'ardi u; chakalakzorlar-u ekinzorlar, keng dalalar qo'ynida ham oppoq qor raqsi hukmron edi. Shunday gina men butunlay yengil tortdim. Biz o'tirgan keyingi poyezd qishki sukunat cho'mgan jimjit qishloqlar oralab yeldek uchib ketdi.

Tashqarida mening ko'zlarimni quvontirib ketayotgan bir-biridan betakror, o'zgacha ruhda ajoyib manzaralardan yonimda ketayotgan qaysidir hamrohim ham bahra olishini istardim. Yonboshimda ketayotgan sherigim bir roz takabburday bo'lib ko'rindi.

— O, buni qarang-a! — deya to'liqlanib ketdim men. — Oppoq qor va oppoq paxta! Shundoqqina yonginamizdan paxtalari qolib ketgan chala yaydoq dalalar lip-lip o'ta boshlagandi.

— Ishyoqmas maxluqlar! — dedi u aftini burishtirib. — Shuginani ham terib olisholmabdi-da. Landavurlar! Endi nima foydasi bor buning!

— Haa, — dedim men xomush, — rostdanam, nima foydasi bor buning?.. Ko'zimga sovuq paxta dalalari oralab dildiragancha kezib yurgan yupun negr ishchilari ko'rindi.

— Haliyam bu dalalarda paxta qolib ketibdi! Natchitochesdagi qishloqliklar bunchayam yalqov bo'lishmasa?

— Ha, endi paxta yerniki-da, keragicha terib olingandan keyin yer haqiga ham qoladi-da. Axir buni ko'ring: naq sehrli orolga o'xshaydi-ku! — deya hamrohimning gapiga yarim hazil, yarim tanbeh bilan javob berdim men.

— Nahot siz ekuvchilarning bunaqa chala tayyor yer bilan qancha qiynalishlarini bilmasangiz? Ular bu joyda na poda boqa olishadi va na ekin eka olishadi? O'zingizniki bo'lganda shunaqa gapni aytmasdingiz sira!

— Tag'in Xudo biladi-ya, biroq ozgina shafqat ham kerak-da, birodar, — dedim men nasihat ohangida. — Axir ko'rib turibsiz-ku, qancha negrlarning haliyam izillab yurganlarini, axir ular nima qilib yurishibdi? Ular haliyam paxta titib yurishibdi-ku!

Mana shunday ahmoqlar ham bo'ladi-da, deb ijirg'andim ichimda. Negadir shaharga borib-kelayotganim uchun o'zim o'zimdanda afsuslanib ketardim. Yo'lda har qanaqa odamlar toifasi duch kelarkan, nega ular ozgina bo'lsa-da tabiatdan, hayotdan bahra olishni bilishmas ekan? Qor go'yo ularning miyasini ham qoplab yubor-ganday edi...

— Pardalarni zich qilib yopib qo'ysangizlar, — bo'lma-mizga bosh suqib, buyurib ketdi bir poyezd xodimi.

Endi hayolimga hech narsani keltira olmadim, faqat quloqlarimga ishlayotgandek edi, poyezdning betartib taraqa-turuqi-yu, yuragimning xijil nafasiga eshitilib turardi faqat. Deraza pardasini poyezd xodimi tayinlaganday zich qilib yopdim: go'yo turmushning bor lavhasi-yu, Emil Sutirning iflos oshxonasiday tayinsiz turmushi ham, ayozda aralash bo'lib ketgan qor manzarasi-yu yupun ishchilarning horg'in gavdalari — bari-bari shu parda orqasida qolib ketgandek bo'ldi. Bu kunda hech nima qolmagandek edi. Bu joylarda na bir ibo-

datxona, na bir maktab, na ruhoniylar va na o'qituvchilar – bari yashamagan va bo'lmagandek ham edi. Ammo qo'rg'onlangan eshik bilan temir panjara o'rnatilgan deraza nechog'lik mustahkam bo'lmasin, hayot nafasini ular baribir tutib qolisholmaydi. Muqaddas uy qadri va inson qimmatini yog'ib, erib, quyulib, ezg'ilab tushayotgan mana bu qor bilan birga asta-sekin yo'qlikka singib borayotgandek edi go'yo. Nafasni qisgudek bo'lmamda hayol surgancha xomush kelardim.

Biroq ertasi kuni ertalab yuraklarga quvonch hamda yorug'lik ulashgancha ko'kka quyosh ko'tarildi va u shunaqangi ko'p nur sochdiki, gupullab yog'gan qalin qorni ham bir necha soniyalar ichida eritib yubordi, faqatgina tom bo'g'otlarida, keyin soya-salqin yerlardagina ozgina-ozginadan qor uyumlari qoldi. Qator ekilgan magnoliya daraxtlari shoxlari oftob tig'ida yaltirab, xuddiki mayin jilmayayotgandek bo'lardi. Qovjirab yotgan gul ko'chatlari misoli nurlar tafdian quvvat olgandek, vujudlarini asta tiklayotgandek edilar. Gunafshagullar ham sovuq kunlar adog' bo'lganini ko'rish uchun novdalardan ohista mo'ralayotgandek ko'rinar.

– Oh!! Mana, quyoshli kun!

O'z manzilinga yetib kelib, tanish ko'prik ustidan xotirjam qadam tashlab borarkanman, o'z-o'zimdand qichqirgim, negadir ovozimni baralla qo'yib, baxtiyor kulgim kelardi. Iliq, bahoriy shabada yuzlarimni silab o'tardi. Men o'z uyimga tobora yaqinlashib borardim. Qadrdon eshigim ostonasida esa mening mehribon va intizor ayolim jilmaygancha istiqbolimga peshvoz chiqib, intizorlik bilan kutib turardi.

BENITOLAR XONADONINING XIZMATKORI

Keksa Asuold tog'a butun umrini Benitolar xonadonida o'tkazib kelayotgan qari va sadoqatli xizmatkor choldi. U hech qachon bu oiladan boshqa uylarda ishlamagan, ishlashni hatto hayoliga ham keltirmagan o'ta itoatli, Xudoning bir mo'min quli edi. Xo'jayin ham qariyaning mehnati va mehrini o'z o'rmda qadrlar, biroq ayni damga kelib, uni ishidan ozod qilish to'g'risida ko'proq bosh qotirardi. Negaki endilikda mazkur xonadonning bor a'zolari tarqalib ketishgan bo'lib (ular juda uzoq mam-lakatlarga ko'chib ketishgandi), birgina Natchitoches shaharchasida „Ayollar shialpalari“ nomli fabrikani boshqaruvchi Benitolarning eng kenja qizlaridan bo'lak bu yerda hech kim qolmagandi. Butun oila tarqalib ketgan, aytarli Benitolar nomi o'chayozgandek ham edi go'yoki, hatto xonadonning shaxsiy yer-mulki-da egasiz bo'm-bo'sh, huvullagancha yotardi.

Biroq Asuold tog'a uchun xuddi hech nima bo'lmagandek, ertadan kechgacha o'z yumushlari bilan band, kimsasiz hovlida g'imirlab yuraverardi. Lekin keyingi paytlarda mo'ysafid xo'jayinning g'alati qarashlarini payqab qolardi, bir damga ichini g'ashlik kemirsa-da, lekin darhol yana o'zining boyagi mo'min qiyofasiga qaytarardi. Ammo baribir xo'jayin uchun keksa choldning xizmati

endi keraksiz bo'lib qolgandi, u ham g'oyatda toliqqan, o'z koriga o'zi bermalol yarar, atrofida birovlarining ivir-sib yurishi ancha-muncha g'ashiga tegardi. Binobarin, u Asuold tog'ani bir-ikki marta qariyalar uyiga joylayman, deb xiyalagina ter to'kdi. Biroq bu reja hech qanday samara bermadi. Asuold tog'a har safar u yerdan qochib kelaverdi va har gal yuzida, qo'li va oyoqlarida turli jaro-hatlar bilan qaytdi (u qochaman, deb nuqul xilvat, hafvli yo'llarni tanlardi). Chol boyaqish bir marta qochayotib, qorong'ida qandaydir soyga tushib ketib, cho'kib ketayotgan ham edi. Boshqa kuni bo'lsa yurib ketayotgan katta yuk mashinasining orqa eshigiga osilaman, deb g'ildirak ostida qolib ketishiga bir bahya qolgandi. Keksa xizmatkorining bu kabi qilliqaridan xo'jayin nihoyatda zada bo'lib, axiyr bu qariyaga bir o'zining kuchi yetmasligiga tamomila amin bo'lib, tanish shifokoriga maslahat soldi. Doktor Bonfilsga ham chol qandaydir xush kelmadi. Uni negadir kaltafahm bo'lsa kerak, deb xulosa chiqardi o'zicha. Lekin nimadir qilish zarur edi baribir. Nihoyat, o'ylay-o'ylay o'sha „nimadir“ qilishga kelishildi – cholni bu yerdagimas, Natchitoches shaharchasida joylashgan Qariyalar maskaniga tashlab kelishga qaror qilindi.

Ko'klamning quyoshli tongida, iliq havo qo'ynida hali hech narsadan habari yo'q, ammo ko'ngli yuz berishi muqarrar bo'lgan bir falokatni sezganday yuzlaridan mo'ldir-mo'ldir yosh quyilgan, Asuold tog'a kichkinagina bolalar aravachasida katta yo'l tomonga olib ketilardi. Xo'jayin bilan doktor Bonfils bo'lsa oxir-oqibat qariyani taqdirga tan berdi deb o'ylashar, ko'ngillari endi butkul xotirjam bo'lgandi.

Ular shaharga yetib borishganda kun allaqachon choshgoh mahali bo'ldi. Nuroniyalar uyi darvozasiga ke-

lib to'xtashganida mehmonlar benihoya toliqqandilar. Bu joydagi qariyalar maskani baayni o'z nomiga yarashadek eski, haroba bir bino edi. Xo'jayin bilan doktor qariyaning bir o'zini katta, paxmoq bir tol soya solib turgan omonat o'rindiq ustida qoldirishib, eski bino ichiga kirib ketishdi.

Chol o'tirgan joyida beadam, najotsiz qayg'u domida qoldi, u ruhsiz qariligining so'nggi yillari o'tajak keksalar uyining binosiga, hovlisiga, yo'lkalarga zaif va horg'in nigoh tashlar, ko'zlariga o'z-o'zidan yosh quyilib kelardi. Hovlida har-xil odamlar u yoqdan bu yoqqa tez-tez o'tib turishar, hech kimning g'adir-budir hassasini oriqtizalari orasiga olib, shalviragancha uyqusirab o'tirgan kekse xizmatkor bilan ishi yo'q edi. Natchitocheslik odamlar shunaqa bo'lishadi o'zi – „Men senga boqmay, sen menga boqma“ qabilidagi beparvo odamlar.

Xuddi shu payt hovlini kesib o'tgan torgina yo'lak ustidan qo'llarida bejirimgina savatchani tutib olgan o'n ikki yoshlar chamasidagi qizaloq o'tib qoldi. Uning egnidagi ko'm-ko'k koftasi bilan boshidagi dumaloq shlapachasi oppoq, kulchaday yuzini benihoya yoritib, yelkalariga qo'ng'iroq sochlari patila-patila bo'lib osilib tushgandi.

Qizcha tap-tap etgancha o'ynoqlab borarkan, aynan Asuold tog'aning oldiga yetay deganda chol uyqusirab, qo'lidagi hassasini bexos yerga tushirib yubordi. Qizaloq darhol hassani qo'lga oldi-da, sergak tortgan mo'ysafidga uni uzatdi – yosh bola nihoyatda beg'ubor bo'ladi-da!

– O, umringizdan baraka toping, kichik xonimim! – deya duduqlangancha kalovlandi kekse xizmatkor. U qizaloqni, aftidan, biron-bir zodagonning bolasi bo'lsa

kerak, deb hayol qildi. – Juda yoqimtoy ekansiz, yosh xonim. Ismingiz nima sizning, chirog'im?

– Men Syuzannaman. Syuzanna Benito, – bidirlagan-cha biyron javob berdi qizcha.

Shu onda Asuold tog'aning ko'ksidan cho'ziq, shodiyona qichqiriq otilib chiqdi. Qarshisida jilmayib turgan kichkina Benitoga qaltiroq qo'llarini cho'zdi. Qizcha ham bolalarcha quvonchdan entikkancha cholning qo'llaridan tutdi. Ular bir-birlarini yetaklagancha hovlini tez-tez bosib o'tib, darvozadan chiqishdi. Mana endi, kekxa xizmatkor uchib borayotganday edi go'yoki. Har bir qadamida o'zicha allanimalar deb g'o'ng'illar, iljayar, ko'zlarida sevinch aralash g'am-g'ussa bilan qizaloqqa mehr-la tikilgancha borardi.

Oradan bir soatcha vaqt o'tgach, vahima va qo'rquvdan yuzlari bo'g'riqib ketgan katta Benito bilan doktor Bonfils kekxa Asuold tog'ani „Ayollar shlapalari“ do'konida jajji Syuzanna bilan xushhol o'ynab o'tirgan ahvolda topishdi.

Ona-bola Benito xonimlar qo'lida eski poxol shlapasini qaltiragancha ushlab ostonada turgan, har qanaqa buyruqni ham o'jarlik bilan talab qilib olib, jon-jon deb bajarishga shay turgan kutilmagan bu qari xizmatkordan g'oyatda mamnun edilar. Ular mo'ysafidga tinmay har xil savollar berishar, Asuold tog'aning bolalarcha soddaga gaplaridan zavqlanib, qotib-qotib kulishardi.

Bu manzarani ko'rgan xo'jayin o'sha soniyalardanoq kekxa xizmatkorini alaloqibat tushunib yetdi. U qartayib qolgan mana shu mo'ysafid cholning shugina quvonchi, hayotidagi shugina baxti, oromi uchun Asuold tog'ani kenja qizining qo'lga topshirdi.

Ana endi Asuold tog'a qochib ketishni hayoliga ham keltirmas, pirovardida qochish uchun hech qanday g'ash-

lik va baxtsizlikning o'zi ham yo'q edi. Qariya yana boyagiday xirgoyi aralash yuvosh g'o'ng'illagancha o'tinlarni chopar, indamay suv keltirar, hamma-hamma yumushlarni faqat o'zi bajarishni istardi.

U hattoki Syuzanna ko'tarib yuradigan bejirim savatlarni ham alohida sadoqat hamda minnatdorlik bilan boshiga qo'yib olar, qizaloq uchun bir piyolagina ajoyib-u g'aroyib qahvani tayyorlab berardi. Boyaqish hammani xursand qilishni xohlardi.

Bir kuni banogoh mana shu qariya bilan Natchitocheda to'qnash kelib qoldim, u qo'lida bekasi uchun olib ketayotgan bir savat anjiri bilan Avliyo Dennis ko'chasida to'satdan qoqilib tushdi. Qo'ltig'idan olib, cholni yerdan turg'izarkanman, o'zimcha qiziqib undan ismini so'radim.

– Mening ismim Asuold, xonim, – dedi u, keyin yana qaytarib aytdi: – Mening ismim Asuold. So'ng to'xtab, qandaydir faxr bilan qo'shib qo'ydi:

– Men Benitolar xonadonining xizmatkori bo'laman.

Keksa mo'ysafidning serajin chehrasida g'urur va sevinch nurlari balqib turardi.

O'shanda Natchitocheda menga bu sadoqatli xizmatkor haqida juda ta'sirli hikoyalarni aytib berishdi.

noxushliklarga sira suyagi yo'q bo'ladi. Bunday ayollar hatto xotin kishiligiga borib, o'zgina ko'zyoshi ham qilib qo'yishmaydi-ya, ular katta qiziqish bilan ko'rishga urinayotgani uy ichida cho'zilib yotgan, afsuski, qiz bola bo'lib chiqdi.

Negadir voqea juda sirli edi. Shubhasiz, qiz o'lib bo'lgandi; unga qarata otilgan o'q bechora qizning naq chakkasiga borib tekkandi. Lekin baribir sabab hali no-ma'lum, biron-bir dalil ham topilmasdi. Bu yerdagi chehralarning aksariyati doktorga notanish edi, ularning bari bu kabi o'lim alomatlaridan juda bezishgan ko'rinardi. Ammo bu o'limda aniq nimadir borga o'xshardi.

G'ala-g'ovurli shunday to's-to'polon ichida doktorning hayoliga birdan yaroq etib bir voqea tushdi. O'sha voqega endigina bir yilcha vaqt bo'lib qolgandi. Arkanzas shtatidagi o'rmonlardan birida, xarobgina bitta kulba ichida doktor bilan uning bir hamrohi mehmon bo'lib o'tirishardi. Ular birgalikda ov ekspeditsiyasiga chiqqandilar.

Kulbada soddagina oila istiqomat qilardi. Tirikchilik tegirmonida yanayam qo'pollashib, og'ir mehnatdan ezi- lib ketgan zahmatkash ota-ona ko'zlarining oq-u qaro- si bo'lmish bitta-yu bitta qizlarining husn-u jamolidan ko'zlari quvonib, faxrlanib yashashardi, chindanam qiz- ning husni to'kis edi, nafaqat chiroyi, balkim, uning aql-u farosati-da g'oyatda o'tkir edi. Qiz bir umr bunday kulba ichida qolib ketolmayman, deya uzoq-uzoqlarga ketishni, katta shaharga borib, o'z baxt-u saodatini qidirib topishni orzu qilardi.

— Mana o'sha qiz, shu yerda, lekin afsuski, o'lib yo- tibdi, — deya hayolidan kechirdi doktor Chevaler. Keyin to'satdan atrofdagilarga qaradi-da: — Bu qizni men yax-

DOKTOR CHEVALERNING YOLG'ONI

To'satdan otilgan o'q ovozi sokin kuz oqshomi tinchi- ni buzib, qattiq jaranglab ketdi. Doktor Chevaler ofisi oshyon topgan ko'rimsizgina kvartal ichida bexosdan bunday o'q ovozining yangrashi hech kutilmagan holat edi. Chinqiriqlar to'pponcha sadosi bilan birga ko'milib ketdi. Qorong'i ko'chada hech zog' ko'rinmasdi.

Shu payt ibodatxona minorasidagi katta qo'ng'iroq ham allaqachon yarim tun bo'lganini ta'kidlab, yana bir marta bong urib qo'ydi.

Doktor shunday qoq tunda erinibgina o'qiyotgan ki- tobini asta yopdi-da, politsiya mashinalarining ovozini poylagancha o'tirib qoldi, axir qurol sadosiga, albatta, politsiya yetib kelishi aniq-ku.

Kutilganiday, politsiyachilar ham, maxfiy tashkilot xodimlari ham yetib kelishdi, oradan biroz vaqt o'tgach, doktorning o'zini ham voqea joyiga zudlik bilan cha- qirib olishdi, uyga kirib kelgan doktor Chevalerning nigohi bu kabi hodisalarning bir xil manzarasiga tushdi. Tahlikadagi tashkilot xodimlari u yoqdan bu yoqqa zir yugurishar, yoqimsiz mish-mishlar-u asossiz shubha-gu- monlar tobora avj olardi, bir tomonda zinapoya panjara- si osha uy ichiga bo'ylayotgan ayollarning sarosimali yuzlari ko'rindi — ular voqea tafsilotlariga o'lgunday qiziqayotgan edilar. Ha, ba'zi ayollarning mana shunaqa

shi taniyman, uning dafn marosimi-yu qolgan ma'rakalarini o'z bo'yniga olaman, — deb aytdi.

Ertasi kuni doktor Arkanzasga, qizning ota-onasiga hat yozib yubordi. Albatta, bu hat o'sha olis o'rmondagi xarob kulba ichiga ulkan qayg'u olib borishi tayin edi, biroq ularni habardor etmaslik yana-da vijdotsizlik bo'lardi. Doktor hatida qizni og'ir hastalikdan so'ng jon berganini ma'lum qildi. Marhumaning bir tutam sochi bilan uning arzimash lash-lushlari ham hat bilan qo'shib jo'natib yuborildi. Doktor imkon qadar g'arib ota-onani yupatib, ularning qayg'usiga hamdard ekanligini bildirib o'tdi. Shubhasiz, doktor Chevalerning o'lgan qizga bunday mehribonlik ko'rsatishi odamlarda, ayniqsa, ayollarda biroz gumon tug'dirdi.

Lekin aniq haqiqatni bilmaganliklari uchun ular noiloj yelkalarini qisib qo'ya qoldilar. Ba'zi birovlar, ehtimol, jinoyatda doktorning qo'li bordir, degan hayolga borib, uni jazoga tortilishini kutdilar. Ammo qandaydir sabab bilanmi yoki boshqa bir nima bo'ldimi, hartugul, doktor Chevaler jazolanmay qoldi, o'sha jinoyat esa sirliligicha qolib ketaverdi.

KALINA

Quyosh allaqachon ufq qo'yniga kirib, soyalar uza-ya boshlagan chog' edi. Biydek dalaning qoq o'rtasida, uyum qilib to'plab qo'yilgan xashak panasida bir qiz sokin uxlab yotardi. Qiz ancha vaqtdan beri noz uyquda ekan, birdan esgan qattiq shamoldan eti jun-jikib, uyg'onib ketdi. Ko'zlarini yirib-yirib ochdi-da, bulutsiz yaydoq osmon bag'riga bir lahza tikilib qoldi. Cho'zib esnarkan, shu asnoda oftobda kuynan oyoq-qo'llarini erinibgina cho'zib, miriqib kerishib oldi. Qop-qora sochlariga nogahon ilashib qolgan poxol hasiga parvo ham qilmay, o'rmdan turdi va yalang'och to'piqlarigacha yetib tushmagan ko'm-ko'k yubkasi bilan boshidagi qizil shlapasini o'zicha bir-bir to'g'rilab qo'ygan bo'ldi.

Bu notanish oyimqizning ota-onasi bilan birgalikda yashaydigan yog'och kulbasi u hozirgina mizg'ib olgan yerdan xiyolgina nariroqda edi. Yo'l-yo'lakay bir chetini qator daraxtzor egallab turgan ulkan paxta dalasi yastanib yotardi. Ko'rinishidan xuddiki juda zich bo'lib ketgan, odam o'tolmas o'rmonga o'xshab ketardi bu daraxtzor, oyoq uchida turib, birozgina bo'y cho'zib qaralsa, aslgina uzoqroqda qo'ng'ir tepaliklar biqinida kun nuri-da yaltirab turgan uzun — Tehas-Amerika yo'nalishidagi temiryo'l ham ko'zga tashlanardi.

Kalina – yosh, hayolparast, mayzidakina qizcha – soya-salqin joyidan tashqariga chiqqani hamon bexos nosozlik tufayli to'xtab qolgan poyezd va unda-bunda tarqalishib yurgan yo'lovchilarni ko'rib qoldi. Mana, uning uyqusi nima sababdan buzila qoldi ekan – poyezd hech kutilmaganda qattiq bir silkinib, yo'lda to'xtagan ekan; bunaqa holatning yaqin orada ro'y berganini Kalina sira eslay olmadi. U o'zi ham bilmagan holda og'zini yarim ochgancha bu manzaraga bolalarnikiday katta hayronlik bilan boqib turardi. Poyezd motoriga nimadir bo'lgan shekilli, yo'lovchilardan ayrim texnika ishqibozlari ham mashina atrofida kuymalanib turishardi. Boshqalari bo'lsa Kalina tomosha qilib turgan keksa tut daraxti oldidan taxminan besh-olti yuz metr berida u yoq-bu yoqni aylanib, tarqalib yurishardi. Shu tobda Kalining qari dehqon otasi ham paxtazor etagida hachirini bir siltab to'xtatgan, u ham yo'lovchilarga qiziqsinab qaragan-cha, turgan joyida tek qotib qolgandi.

Gavjum sayohatchilar orasida viqorli, serhasham kiyinib olgan xonimlar ham bor edi. Ular bunday o'ydim-chuqur yerlardan nolishib, baland poshnalarida to'g'ri yurolmay xunob bo'lishar, harir ko'ylaklari etagini bir qo'llari bilan avaylab tutib olishgandi. Ular goh-goh erkaklari ko'rsatgan qiziq-qiziq narsalarga qarab, haxolab kulishar, yengil soyabonlarini yelkalari osha epchil aylan-tirib qo'yishardi.

To'satdan ularning nigohi angrayib turgan Kalinaga tushdi-da, qizchani gapga solib ko'rmoqchi bo'lishdi, ammo afsuski, mehmonlar qizning fransuzcha shevasidan mutlaqo hech narsani uqiy olishmadi.

Bir mahal sayyohlar orasidan xushro'ygina, kelishgan yigit cho'ntigidan eskiz daftarini oldi-yu, qarshisida-

gi soddadil sanamning rasmini chizishga tutindi. Kalina qo'llari orqasida, hayratdan keng-katta ochilgan ko'zlarini yigitga tik boqqan ko'yi harakatsiz qotib turardi.

Bu begona yigit suratni tugatar-tugatmas, poyezddan chaqiriqlar bo'lib qoldi va bir zumda hammalari shoshil-gancha poyezd tomon yugurib ketishdi. Motor avvaliga xir-xirlab turgach, erinchoqlik bilan osmonga puflab bir-ikki tutun chiqardi-da, so'ng yengil nafas olib, bor odami bilan hash-pash deguncha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Shu voqeadan keyin Kalina negadir boshqacha bo'lib qoldi. U har kuni u tomondan bu tomonga o'tib-ketib turgan poyezdlarga yangicha qiziqish va o'zgacha hayrat bilan termilar, bu odamlarning qaydan kelib, qayoqqa ketayotganlariga hech aqli bovar qilmasdi.

Uning bechora ota-onasi esa qizlariga bu mashinalar to'g'risida durustroq bir nimani izohlab berisholmas, mashina taraqa-turuq qilib o'tib ketgan paytlarda, „Ketadigan joyiga ketyapti-da, qizim“, – deb qo'yishardi, xolos.

Bir kuni Kalina yo'l bo'yida aylanib yurarkan, katta suv bochkasini aravasiga solib o'tib ketayotgan kek-sa dehqon bilan gaplashib qoldi. Buni qarangki, Kalina savollariga izlayotgan javoblarni mana shu mo'ysafid bil-larkan. O'sha poyezdlardagi sayyohlar shimol tarafdagi judayam ulkan shaharlardan kelishar va janub tomondagi yana boshqa poyonsiz shaharlarga ketishar ekan. Chol o'sha o'zi aytayotgan shaharlari haqida har baloni bilarkan; shahar degani bu bir ulug' joy degani ekan. U bir vaqtlar shaharda yashab ham kelgan ekan.

Hozirda esa u yerda qariyaning bitta singlisi turarkan, shu tobda Kalina uchun kutilmagan yangilik chiqib qoldi, mana shu dehqonning o'sha singlisiga xuddi Kalina kabi uy-ro'zg'or ishlariga oyoq-qo'li chaqqon, pishir-kuydir-

ni, yuvib-tozalab, bolalarga qaray oladigan bir qiz bo'lsa judayam soz ish bo'lar ekan. Yana mo'ysafid shuni tushuntirdiki, Kalina shaharga borsa, u yerda oyiga yo'q deganda besh dollardan ko'proq pul ishlay olarkan ham.

Bu gaplardan so'ng Kalina qishloqda turolmay qoldi, yuragi siqila-siqila, oxiri bir amallab ota-onasini ko'ndirdi, yap-yangi ipak ko'ylagi bilan yaltiroq tufillarini kiyib yasandi, kekxa dehqon singlisi uchun aji-buji qilib yozib bergan hatni kissasiga soldi-yu, shahar tomon qushdek uchdi-ketdi.

Qariyaning singlisi katalakdek, suvoq qilingan, yam-yashil pardalari derazalarini zich qilib yopib turgan, ostonasida uch qavat qilib ketma-ket qurilgan zinapoya orqali ichkariga kiriladigan torgina uychada istiqomat qilarkan. Bu kabi uylardan yuztachasi o'sha ko'cha bo'ylab qator tizilib ketgandi. Uylarning tomlari xuddi ulug'vor ke-maning machtasi singari ko'kka uchburchak bo'lib bo'y cho'zib turar, shu atrofdagi bozorning g'ala-g'ovuri esa erta sahardanoq boshni aylantirib yuborardi.

Avvaliga Kalina andak dovdirab qoldi. U hadeb tasavvuridagi bor hayollarini ko'rganlari bilan qiyoslab ko'rishga urinardi. Keksa dehqonning singlisi muloyim, oliyhimmatgina ayol ekan. Oradan bir, ehtimol ikki hafta o'tgach, u mehmon qizchaga shaharning qanchalar yoq-qan-yoqmaganligini bilishga qiziqdi.

Turgan gapki, Kalinaga shahar baribir yoqib tushgandi, ayniqsa, yakshanba kunlari bu yerda behad soz o'tardi, yosh bolakaylar bilan sayr qilib yurish, bahuzur o'tirib olgancha bepoyon dengiz bag'rida surur bilan suzib yurgan ulkan paroxodlar bilan bejirim qayiqchalar va o'yinqaroq jajji-jajji shatakchi qayiqchlarni tomosha qilish, Mississippining uzun sohillari bo'ylab yalangoyoq

kezish – bularning bari benihoya yoqimli edi, albatta. Buning ustiga, shahar bozoriga borish Kalinaga yanayam xush yoqardi, bozordagi sertakalluf qassoblarning bu yosh xonimchaga tavoze bilan xushomad qilishlari, unga gap otishib, savatchasiga ataylab qirmizi olmalardan solib qo'yishlari qiz ko'nglini ajib qitiqlardi. Ammo nimagadir bu holat ko'pam uzoqqa cho'zilmadi. Oradan yana bir haftacha vaqt o'tgach, uy bekasi Kalinadan zerkimay, yaxshi yuribsanmi, deb so'rganida Kalina darhol javob bera qolmadi. Beka hayron bo'lib, unga birinchi gap bo'ldimikan, degan havotirda Kalinadan tag'in bir og'iz gap so'ragandi, qiz shartta ortiga o'girildi-da, omborxonaga kirib ketib, u yerdagi xumdek sariq sitster-na ustiga o'tirdi-da, piqillagancha yig'lab yubordi. Mana shu paytda Kalina tushunib yetdi, u izlayotgan, ko'ngli tinmay so'roqlayotgan joy bu bepoyon shahar va uning sershovqin ko'chalari yoki gavjum odamlari ham emas ekan, Kalinaning jon-dildan bir ko'rishni istayotgani huv, o'shanda – qishloqda, tut daraxti soyasida uning suratini chizib olgan o'sha notanish chiroyli yigit ekan.

Qizning orzusi, aslida, mana shu edi.

Kunlarning birida bepoyon bir ekin maydonida shahardan kelgan kibor xonimlar-u kalondimog' janoblarning bir guruhi ajib musiqiy cholg'ularning har turiga ishqibozlik qilgancha savdolashib turishardi. Fiftina ham bu gap qulog'iga chalinishi bilanoq oyog'ini qo'lga olib, o'sha joyga qarab chopqillab ketdi. Borib qarasa, oldi-berdi hamon avjida, juda qizg'in tus olgan ekan.

Avvaliga hech kimsa bu yalangoyoq ushoqdek qizchaga nazar ham solmadi, ammo qizaloq shiypinning ko'rimsiz ayvoniga ko'tarilib, eng ko'zga ko'rinarli yeriga yaxshilab joylashib oldi-da, g'oyibdan berilgan imkoniyatni boy bermadi:

— Buni qaranglar, menda eng g'aroyib bir skripka bor! — deb e'lon qildi u baland ovozda, o'zi jajjigina bo'lsa-da, ovozi keskin va hayratomuz tarzda qat'iy jaranglagan bu „sotuvchi“ darhol hammaning e'tiborini o'ziga qaratdi.

Usti-boshi xarob jimitdek vujudning qayerdandir qolgan eski skripkasini pullayman deb jon kuydirishi albatta diqqatni jalb qiluvchi holat edi, go'dak bir zumda gala olomon qurshovida qoldi.

Afsonaviy cholg'u qo'ldan qo'lga o'ta boshladi, dastlab katta hayrat, so'ngra o'ta jiddiyat bilan qadim bu asbob boshdan oyoq tekshirilib ko'rildi. Ayniqsa, uch nafar shaharlik janob qizchanning skripkasiga boshqacha qiziqib qolishdi: ulardan birining sochi yelkasigacha osilib tushgan, nihoyatda po'rim ko'rinishda edi, yana birida ham shunaqa uzun soch, faqat u yig'ilib, tepaga ko'tarilgan, uchinchisida bo'lsa bir tolayam sochdan asar yo'q, taqir bosh edi.

Shu uchulasi zormanda skripkani to'ntarib ham ko'rishdi, ichiga qo'l suqudek bo'lib rosa avra-astabosh edi.

G'AROYIB SKRIPKA

Dunyoda ko'plab murg'ak jonlar och-yalang'och yashayotgan bir zamonlarda keksa Kleofas har doim o'zining flaneldan tikilgan eski haltasidan qadrdon skripkasini chiqarardi-da, unda ajoyib kuylarni bir-biriga ulab ijro etardi. Ehtimol, u o'sha xor-u zor bolalarning oh-u faryodi-yu, ochlikdan, umidsizlikdan titrab qaqshagan nigohlariga qarshi yurak qaridan bardosh topish uchun ham butun umr skripka chalib yashagandir...

Undan so'ng oradan qancha suvlar oqib o'tdi. Ajoyib kunlarning birida Fiftina ismli qizcha kichkina oyoqlari bilan yerni jahl bilan tepgancha, ixcham qo'llarini musht qilib, xitob qilib qoldi:

— Yetar! Jonimga tegdi bu asbob! Uni shu zahotiyoyoq yerga urib mayda-mayda qilib tashlayman!

— Yo'q, bunday qilolmaysan, — deya uni bu yo'ldan qaytarishga urindi otasi, — ishonsang, ana shu musiqiy cholg'u sen bilan meni shu kunlarga eson-omon saqlab keldi. Axir sening habaring yo'q-ku, bu skripkani menga bir paytlar Kleofas ismli zo'r musiqachi o'z qo'llari bilan in'om qilgan va aytgandiki: „Shu cholg'u hayotimning bir bo'lagi, uni ehtiyot qil!“ Eshityapsanmi, Fiftina! Bu qaroringdan qaytib, aql bilan ish tut, qizim!

— Yaxshi, siz aytgancha bo'la qolsin, ota, — dedi qizcha, — balki, bu skripka boshqa biror korimizga yarab qolar.

rini ag'darib obdan tomosha qilishdi. Hatto musht bilan urib qanaqa sado chiqarishini eshitib ham ko'rishdi. Bamaylixotir qadam tashlab, skripka bilan uyning ichiga kirib, so'ngra yana o'shanday alfozda tashqariga chiqib ko'rdilar, eng kulgilisi uyning burchaklarigacha skripkani ushlab galma-galdan qatnab ko'rdilar. Oxiri, uchovlon boshini bir joyga qovushtirgancha, tanish va notanish tillarda nimalarnidir chug'urlab ketishdi. Nihoyat, soatlab cho'zilgan tortishuvdan keyin ular uddaburon Fifinani aynan o'zi olib kelgan skripkaga o'xshash yangi skripka va bir o'ram pul bilan uyiga jo'natib yubordilar!

Kutilmagan bunaqa savdodan qizaloqning tili kalimaga kelmas, ham hayratdan, ham qo'rquvdan u o'zini tamomila yo'qotib qo'ygandi. Biroq u qandaydir bahaybat chinor tagiga yetganda yurishdan to'xtadi-da, tobora xuruj qilib kelayotgan shubha-yu gumonlariga xotima berish uchun bir dasta pulni bittama-bitta o'tkazib, yaxshilab sanab olmoqchi bo'ldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Fifina hatto tushidayam ko'rmagan, o'zi o'ylagandan-da bisyor mablag'a kutilmagan vaziyatda ega bo'lib olgandi. Shubhasiz, bu pullar yo'qchilik abgor ko'rinishga solgan faqir kulbasining ochlik nolasi sado berib turgan derazalariga yorug'-yorug' nur olib kiradi, yalang va chillashir oyoqlarga quvvat, sillasi qurigan tanlarga esa cheksiz huzur-halovat baxsh etadi. O, balki, balki!..

Sho'rik Fifinaning joni halqumiga kelgudek qattiq orziqib ketdi – balki, shuncha pulga Blanchettaning yomimtoy buzoqchasiniyam sotib olsa bo'lar, axir bechora Simon amaki uni qachonlardan beri sotaman deb yurgandi-ya!

– Mana, nihoyat, tilagan tilagingga yetding, Fifina, – o'sha kuni keksa skripkachi Kleofasning donolarcha tovushi qizchaning go'daklarga xos shirin uyni qusida tush yanglig' aks-sado berdi: – Bir vaqlar men otangga sovg'a qilgan o'sha skripka rostdanam dunyodagi eng g'aroyib skripka edi. Ko'rdingmi, u bamisoli qorong'ilikda balqigan toza nur kabi necha zoriqqan qalblarga shu'la olib kiradi. Yana bir nasihatim shuki, senga berishgan yangi cholg'uniyam ehtiyot qilib olib qo'y, chunki musiqa olamga hech qachon musibat va ofat keltirmagan. Ammo men o'zim endi ortiq skripka chalolmayman, negaki men hozir olis osmon qo'ynidan umrboqiy halovat topganman...

kursini ko'rib, yuzi quvonchdan quyoshdek porlab ketdi, negaki bu kursi jonsarak kampirning o'zi aytgandek naq „osoyish joy“ning baayni o'zginasi bo'lib chiqdi. Bundan buyon Pegi buvi har kunini shu oromiy tebratma kursisida maza qilib tebrangancha o'tkazishi shubhasiz, deb o'yladi ayol ichida.

Biroq bir umr suyagi mehnatda qotgan odamga biron biron burcha ko'p iltifot-u xotirjamlik sira yuqmas ekan, serharakat buvi xoja bilan uning rafiqasi yaratib bergan malikalardek shart-sharoitga hecham ko'nikib ketolmadi. O'z uyidek bo'lib qolgan ekinzorlarini topshirgan ikki yil davomida kampirning biror soatida zarracha halovat bo'lmadi, Xudoning bergan kuni u darmonsiz oyoqlarini bazo'r bosgancha, oqsoqlana-oqsoqlana xojaning shiyponinga bir xildagi maktubni tashib yurishdan aslo charchamadi. Xat hamisha bitta mazmunda bitilardi:

— *Bekachim, sizlarga oxirgi marta nazar solgani, shunchaki habar olib qo'yay deb keldim. O'tinaman, bunaqa kelib turishlaringa yo'q demasangiz. Bepoyon dalalarimga, munavvar yerlarimga to'yib-to'yib termilishimga, butun ko'ksimni to'ldirib uzoq-uzoq hidlab olishimga, bag'riga bosh qo'yib bir muddat ko'z yumib turishimga bir martayam yo'q demasangizlar. Zero, shu nursiz nigohlaringa ularning suratini manguga muhr-lab olsam, dalalarimning butun tarhi-yu ifodasini shu qaroqlarimga chizib olsam-u, dunyodan bearmon ko'z yumsam... yo'q demanglar, yolvoraman sizlardan! Zotan, qaysidir tongda Pegi buvining joni ekinzorlari qucho-g'ida uzilibdi, degan sovuq habarni eshitib bir umr ar-mon dog'ida o'tmanglar, azizlarim! Toshdek murdaga aylanmasimdan, qo'qqis u dunyoga rixlat etmasimdan, shu besh kunlik hayotimni tug'ishgan farzandimdek jo-*

OROMKURSI

Urush endigina tamom bo'lgan yillar edi, yoshi bir joyga borib qolgan Pegi buvi o'z ovulidagi oliyhimmat janobning huzuriga bordi-da, dardini siyoh qildi:

— Marhamatli xojam, mening ham vaqti soatim yetib qolgan ko'rinadi, lekin shunga qaramay, hech qachon sevimli yerlarimni tashlab ketmayman, deb o'zinga juda mahkam turardim. Biroq ko'rib turibsizki, tanam allaqachon quvvatdan qolib, kunlarim bazo'r sudralib o'tayotgandek bir ahvolga kelib qolibman. Endi biron bir orzuym, necha yillik qadrdon dalalarimni ko'z qorachug'idek asrab-avaylovchi ishonchli bitta insonga topshirsam-u, Yaratganning omonatini osoyish bir joyda yashab, tinchgina bajo keltirsam... Shunga nima deysiz?

Xoja bilan uning xotini Pegi buvinini ancha vaqtdan beri yaxshi bilishardi, bu tinib-tinchimas kampir ertadan kechgacha chumolidek tinimsiz ishlagan, nihoyatda mehnatga sadoqati baland dehqon ayoli edi. Kampirning iltijosi ko'pga cho'zilmadi, darhol ekin maydonlari qaytadan ro'yhatga olinib, yana qayta ishlovga berildi, hamma yoq bir zunda ostin-ustun bo'lib ketdi, barcha ish qizg'in tus oldi, hatto biydek dalaning oyog'idan zahmatkash buvi uchun qulay hujracha ham qurib bitkazildi. Ayniqsa, oliyhimmat o'sha janobning ayoli Pegi buvi uchun olingan nihoyatda soz tebratma

najon yerlarimga kelib o'tkazishimni malol olmasangiz, bundan ancha yengil tortgan bo'lardim...

Bunday keti uzilmas tashriflardan so'ng Pegi buvinini nafaqat tasalli so'zlar, balki etagida bir dunyo yeguliklar bilan hujrasiga kuzatib qo'yishardi.

Ko'pni ko'rgan xojaning esa vaqt o'tgani sayin bu keksa ayolning kuchdan qolib, qarilikni bo'yniga olish o'rniga, aksincha, tobora g'ayratga to'lib, hammani ochiq-oshkora ortda qoldirishga bel bog'layotgani, bir daqiqayam harakatdan qolmayotgani, sochi umr bo'yi mehnatda oqargan bo'lsayam, yana va yana o'zini be-hudud mashaqqatlarga urayotgani, tag'in javlon urib ter to'kkisi kelayotgani qattiq taajjubga solardi. Bundan-da ajablanarlisi, janobning Pegi buvi bilan qilgan oxirgi suhbatida ro'y berdi: Hamisha yuzida ter tepchib, inqillab bo'lsa-da har tong ulkan ekinzorlarini erinmay aylanib chiqadigan bu mehnatsevar kampingning yoshi rappa-raso bir yuz-u yigirma beshda ekan. Avvaliga xojaning bu gapga mutlaqo ishongisi kelmadi, ammo odamlar Pegi buvinini bundan-da ko'proq yashab qo'rganini aytishgani-da, hayratdan ikkala yoqasiniyam ushlab qoldi. Ammo bu, baribir, aql bovar qilmas haqiqat edi.

YILLAR O'TIB

Sentabr. Yomg'ir yog'yapti. Katta derazaning bir ta-baqasi yarim ochiq.

– Qirqinchi va qirq birinchi yillarda yozgan hatlarim-ni olganmiding, Nuriya? Javob bermading, nima hayol-larga bormadim men, – dedi u.

– Hatlaring yo'qolib ketgandir. Juda uzoq vaqt uyim-da yashay olmadim, ko'nglim hushi bilan emas, bila-san-ku.

– Tushunaman. Rosa qiynaldingmi?

– Ha, oson bo'lmadi.

– Menga qara... haligi... hmm... ota sifatida so'rashim mumkin... mening... bizning... Xulitoga nima qildi? O'qi-ganmidi?

– Ha.

– Biror durustroq joyni topgandir.

– Ha, topgandi.

– Nima, biror jiddiy kor-hol sodir bo'lganmidi?

– Vafot etdi.

– E Xudoyim! Ancha bo'ldimi?

– Olti yil bo'ldi.

– Yolg'iz o'zing yashayapsanmi?

– Nabiram bilan kelin tez-tez yo'qlab turishadi.

– Bundan chiqdi, u uylangan ekan-da, xotini bilan baxtiyormidi?

- Hayotda nimalar bo'lmaydi, bir kun shakar, bir kun zahar...
- Xudoga shukr. Yana, bir narsani so'rasam degandim...
- So'rayver.
- ...O'sha paytlarda u biror marta so'raganmidi... o'zining... men haqimda qiziqqanmidi?
- Hech qachon bunday bo'lgan emas. Har holda mening oldimda bunaqa gap bo'lmagan.
- Shunaqa degin, ha, men buni shunchaki so'ragan edim, – dedi u. – Bir o'zingga bu uy kattadek.
- Ko'nikib ketganman.
- Buni qara, hamma narsa o'sha-o'sha – o'zgarmagan.
- Ha, nimasini aytasan, o'zgarish yo'q desang ham bo'ladi.
- Men bu uyni ko'p eslab yuraman.
- Rostdan-a?
- Rost. Anavi maydonni, mavzemizni, hozir men uchun sarobga aylangan bo'lsa-da, hatto qo'shnilarni esdan chiqarganim yo'q. Qo'shnilar o'sha-o'sha qo'shnilarmi? – so'radi u.
- Ba'zilari haliyam shu yerda yashashyapti.
- Nabirang qalay, Nuriya?
- Yaqin orada to'qqizga kiradi.
- Uyam Xulitomi?
- Roberto.
- Kinga o'xshaydi?
- Otasiga.
- O'ziyam, ja chiroyli bolakay bo'lsa kerag-a?
- Ha, uning nimasidir bor, istarasi issiq.
- Ko'rinishing yomon emas, – deb qo'ydi u.
- Sayr qalay bo'ldi? Qiynalganlaring yo'qmi?
- Dengiz sayri ajoyib bo'ldi-da o'ziyam. Men atay ke-

maga o'tirdim, qaytayotganimga ko'nikmoqchi bo'ldim-da. Bu, bilasanmi, oddiygina bir voqea emas.

- Ha, tushunaman.
- Dahshatli notinchlik tuyg'usi seni chulg'ab oladi.
- Ha, endi, o'z xohishing bilan ketayotgan bo'lsang...
- Faqat bir narsadan yengil tortishing mumkin... bu – o'z oldingga shunday bir maqsadni qo'yan bo'lasanki...
- Dengizda ko'p bo'ldingmi?
- ...va bu maqsadga albatta erishasan.
- Nechchi kun deb so'rayapman.
- Salkam ikki hafta.
- Odatda, bunaqa sayrni oddiygina ko'ngilxushlik ham deyishadi.
- Ammo bu havoni shahar bilan bimalol ko'rishadigan iqlim deyolmayman. Havoning avzoyini qara-ya, u xotiralaringni xiralashtirib, meni chalkashtirib yuboryapti, – dedi u.
- Bu gapingda jon bor.
- Go'yoki men boy berilgan hayot haqida habar keltirayotgan mo'jaz ishoralar haqida gapirayotganga o'xshayman.
- Bu faqat shu oy, xolos. Hademay kuz, so'ng havo ochilib ketadi.
- Nimayam derdik, umid qilamiz, – dedi u.
- Xohlasang, o'zingga yana qahvadan quyib ol.
- Ha, mayli, bir qultum, xolos. Rahmat. Haligi... do'stlarimiz haqida biron nima deya olasanmi?
- Unutganman, hammasini unutib yuborganman.
- To'g'risini aytsam, o'zim ham. Xotirani yaxshilab bir silkishga to'g'ri keladi-yov.
- Ovora bo'lishga arzimaydi.

– Chamamda, ko'chaga hadeganda chiqaveradiganga o'xshamaysan.

– Menga uydin yaxshisi yo'q.
– O'zingga qarab turarkansan, ko'rinish turibdi.
– Yo'rig'i shu-da.
– Oz-moz qaribsan. Aytishim mumkinki...
– Okeanortiga qachon qaytmoqchisan?
– Qaytmayman. Shu yerda butunlay qolmoqchiman, – dedi u. – Sog'lig'im...

– Nima – biror jiddiyoq narsami?
– Bir kuni shifokorga borgandim. Gapning dangalini gapiravering, desam, agar bor gap kerak bo'lsa, shu yarim yillik umringiz qolgan, deydi.
– Shifokorlar ba'zan hato qilishadi.
– Agar uchta bir gapni takrorlab tursa-yu, tahlillar ham shuni tasdiqlab tursa, umidvor bo'lish qiyin.

– Ha, unda...
– Men bor-budimni sotdim. Anchagina mablag' bo'ldi, so'ng shu qarorga keldim. Bu o'zim uchun ham kutilmagan talpinish bo'ldi, nima desamlikin...
– Bu azaldan. Genlarning ishi.

– Shunaqaga o'xshaydi. Bir necha kundan so'ng shifoxonaga boraman, chamasi, u yerdan chiqmasam kerak, shuning uchun ham sen bilan hozir diydorlashib qolmoqchi bo'ldim, – dedi u.
– Minnatdorman.

– Yana bir gap... nabiram Roberto, aytding-ku... uning ikkinchi familiyasi nima? Juda mamnun bo'lardimki, agar sen...

– Yaxshi bo'lib ketasan. Shifoxonalar hozir juda zo'r.
– Men, nafsilamrini aytganda, hech nimadan umid qilmayman, shunchaki... shunchaki... U yoqda men hech kimni qoldirib kelganim yo'q.

– Bundan tashqari, hozir tibbiyot juda katta yutuqlarga erishyapti, davolashning yangi usullari paydo bo'lyapti.

– Haqiqiy, chinakam taraqqiyot, – dedi u.
– Ayniqsa, jarrohlikda.
– Jarrohlik ham, terapiya ham rivoj topyapti. Sizlar bundan umidvor bo'lishinglar mumkin, – dedi u.
– Yomg'ir to'xtayotganga o'xshaydi.
– Sening vaqtini o'ylapman. Balki, shoshilinch ishlaring bordin, meni deb...

– Hech qanaqa ishim yo'q, tashvishlanma.
– Nima bo'lganda ham, men bu fursatdan foydalanib, ketib olishim kerak, yomg'ir yana quyib qolmasdan.
– O'zing bilasan.

– Men gazetalarda beriladigan ta'ziyalar uchun ozroq pul qoldiryapman, ishonitib aytamanki, bu shuhratparastlikdan emas.

– Ishonaman.
– Bundan faqat sen habardor bo'lishing uchun.
– Ixtiyoring.

– Iltimos, o'rningdan turib o'tirma, meni kuzatish shart emas. Ovora bo'lma, – dedi u.

– Chiqish yo'lini bilasanmi?
– O'ngdan uchinchi eshik, oshxonamiz... e, katta xona, u yog'i ayvon. To'g'rimi?

– Ha.
– Hamisha menda mayda narsalarda xotira joyida bo'lgan, asosiy masalalarda esa...

– O'zi shunaqa bo'ladi.
– O'sha kun ham yomg'ir quyib turgandimi?
– Qaysi kuni?
– Ajrashgan paytimizda, oxirgi kun, – dedi u.
– Chelaklab quyayotgandi.

- Biz chegaradan o'tganimizda, Fransiya ham yog'ayotgan ekan.
- Ehtimol, bu siklon tufayli bo'lgandir.
- O'sha baxtsiz hodisadan so'ng Xulito cho'loqlanib yurdimi?
- U ancha vaqtgacha oh-voh qilib yurdi, keyinroq, ko'rmaganday bo'lib ketdi.
- Uni o'sha ahvolda o'zim bilan olib ketishning iloji yo'q edi-da, – dedi u.
- Ha, iloji yo'q edi.
- U qiyaldimi?
- O'sha paytdami?
- Yo'q, keyinroq.
- Kasaldan yengil qutula qoldi. Yarasi tez bitdi.
- O'zgarmay qolgan nimanidir ko'rish baribir yoqimli, – dedi u.
- Nima?
- Yomg'irni aytaman.
- Ha.
- Alvido.
- Alvido.

Paul Yohann Lyudvig FON XEYZE

PATEFON

Shunday zamonlar keladiki, texnika insonni mahv etadi. U shunchalar hukmronlikka erishadiki, ikki oyoqda yuradigan aqlli mavjudot bitta tugmacha uchun unga yuragini baxshida etishga shay bo'ladi.

Muallifdan

Otto chang va fayzsiz ko'chadan uyi tomon borarkan, duch kelganga qo'lidagi grammofoni bilan maqtangisi kelardi. Yonidan o'tayotganlarning diqqatini tortsa, albatta, uning narxi, ishlashi-yu sifatidan bohobar qilardi. Hozir qo'shnisi Aleksandra og'zidan bol tomib grammofonini maqtayapti. Sotuvchi suvtekinga shundayin noyob mo'jizani sotayotganini aytdi-ku axir! Nega aytmasligi kerak?!

– Rost! Qara, bu grammofon – asl nusxa. U shunchalar aslki, men qarib-chirib, ovozim tinsa hamki, buni o'chmaydi. U kayfiyatinga qarab kuylaydi. Er-talab kayfiyatni ko'taradigan sokin kuy taralsa, quyosh tikka olganda sho'x, choshgohda diltortar, tushda orombaxsh musiqa yangraydi. Qulog'ini yaxshilab burab, qora likopchasini aylantirib qo'ysang bo'ldi, oshna, u sening yarming bo'lib birga yashaydi. Kechda uxlatib, tongda uyg'otadi. Aslo buzilmaydi. O'chirishni xohlasang-u, ovozini tindirgani yoniga yaqinlashishga haf-

sala qilmasang, masofadan turib ham: „O‘chi!“, desang bo‘ldi, olam guliston. Musiqa taqa-tuq to‘xtaydi. Atigi qirq besh markaga oldim, oshna.

– Qo‘ysang-chi? – dedi Aleksandr zaharhanda tabasum bilan. Uning ohangidan kinoya sezilib turardi. – Hech zamonda jonsiz narsa ham shuncha hunar ko‘rsata olarkanmi? Bor-yo‘g‘i qirq besh markaga olgan bo‘lsang. Bu pulga mushuk oftobga chiqmaydi-ku! Namuncha og‘zingni tanobi qochmasa?

Otto indamay yo‘liga ravona bo‘ldi. O‘sha kunning o‘zidayoq o‘nlab odam uning grammofoon olganidan habardor bo‘ldi. Dastlab ular Ottoning gaplarini jon qulog‘i bilan eshitdi, bu odatiy holga aylangach, „olamshumul“ gaplar hammani birday bezdirdi. Hech kim uning gapiga e‘tibor qilmay qo‘ydi. Yaxshiyamki, Ottoning baxtiga shu grammofoon bor ekan. Yo‘qsa butkul yolg‘izlanib qolardi. Ammo bir kuni o‘lganning ustiga tepganday grammofoon ham buzilib qoldi. Ko‘ngilsizliklarning hammasi shundan boshlandi. Otto grammofoonni qo‘ltiqlagancha har kuni tinmay do‘kon tomon oshiqardi. Uning buzilib qolgani haqida hech kimga yorilmadi. Yigitcha shunchalar kamgap bo‘lib qoldiki, yuzini yoritib turadigan tabassumi ham birdan yo‘qoldi. Yaqinidan ayrilgan yetimday rang-ro‘yi o‘chib, birpasda so‘lib qoldi.

Do‘kon egasi ham xushchaqchaq Ottodagi o‘zgarishni ko‘rib qo‘rqib ketdi. Avvaliga buzuq grammofoonni boshqasiga almashtirishga ko‘nmadi: „Xohlasang yangisini ol, arzonroq beraman“, dedi u zarda bilan. Bu esa Ottoning ahvolini battar harob qildi. U do‘kon eshigi oldida hayotining mazmuniga aylangan jonsiz buyumni quchgancha tong sahardan kechgacha tuz totmay o‘tirar, sog‘ligi esa kundan kun yomonlashib borardi. Bu sotuv-

ehning ko‘nglini yumshatdi. Jo‘mardligi tutib, buzuq grammofoonni yangi patefonga almashtirib berdi.

Ottoning rangi-ro‘yi tezda asl holiga qaytdi. Patefonni shu qadar avaylab uyiga olib ketdiki, yo‘lda birovga u haqda og‘iz ochmadi. Yigitning uyidan tag‘in musiqa ovozlari yangray boshladi. Hayoti go‘zallashib, kunlari tag‘in oydinlashdi. Yuziga avvalgiday qon yugurdi.

Oradan oylar, yillar o‘tdi. Patefon eskirmadi ham. Hayot tizginsiz tarzda o‘taverar, vaqt esa insonning yashash imkoniyatini cheklab borardi. U esa kelajakdan ilinj-u o‘tinch istab, umrini uzaytirishni so‘raydi. Otto shunday hayotga talpinardi. Ammo umr abadiy, yashamoq boqiy emas. Ottoning vafotidan so‘ng patefon butun borliqqa insoniy baxt-u baxtsizlikdan kuylashda davom etdi. Faqir-u haqirlik, nogiron-u notavon, tolesizlig-u halovatsizlik dardini tarannum etdi. Bu musiqalar aroqqa g‘arq bo‘lgan irodasiz erkakka, baxtidan yuz o‘girib, dabdabali hayotga intilgan ayolga, tanasining sofligini yo‘qotgan qizga, xotiniga emas, o‘zgaga ko‘nglini bog‘lagan er qalbiga taskin berardi.

Bularning hammasi Otto ellik uch yillik umrida anglab-anglamagan, tushunsa-da fahmiga yetmagan qo‘shiq-lar edi. Undan shu patefondan bo‘lak hech narsa qolmadi. Otto yo‘q, biroq sovuq uskuna minglab qalblarni o‘ziga rom qilishda davom etardi...

Vlas DOROSHEVICH

ADIBA

(muharir esdaliklaridan)

- Huzuringizga Maurina xonim kelibdilar.
- Yo'g'-e, nahotki... Maurina...
- O'zgina kutib tursinlar... Men bir lahzada... bir lahzagina...

Tashrif qog'ozini aylantirib ko'rdim, oyna oldiga borib yoqa bog'ichimni to'g'rilagan bo'ldim, sochimni boshqacha taradim, chiqdim...

To'g'risi, qanot bog'ladi desam ham bo'ladi.

– Xudo haqqi, sizni kutirib qo'yganim uchun...

Ro'paramda yoshi o'tinirab qolgan, odmigina kiyingan, pakana, semiz bir ayol... Uning yonoqlari, ko'ylagi osilganday...

Men biroz taraddudlanib qoldim. U ham negadir tortinib turardi. „Maurina?“

– Aybga buyurmaysiz, siz ehtimolki, Anna Nikolayevnaning onalari bo'lsangiz kerak?

Ayol g'amgin kulimsirab qo'ydi.

– Yo'q, men Anna Nikolayevna Maurinaning o'ziman. Jurnalningizda chop etilgan hikoyalarni muallifi.

– Ammo, kechiradilar! Qandoq qilib? Men Anna Nikolayevnani yaxshi bilaman...

– O'shami? Mallasoch qizni aytapsizmi? Qo'g'ir-choqdekkina-a!? U qiz hech qachon Anna Nikolayevna bo'lmagan... Bo'lmaydi ham!.. Bu... bu... yolg'on. Mendan hafa bo'lmang. Avval gapimni eshiting...

Ayol hayajonlanar va o'zini qo'lga ololmay qiynalayotgan edi. Ko'zlarida yosh aylanardi.

– O'tirishga izn berasizmi?

– Eh, uzr, buni qarang... Marhamat, marhamat qilsinlar... Uzr men biroz...

– Mayli, hechqisi yo'q! Xudo haqqi, tashvishlan-mang... Ijzatingiz bilan barini boricha aytib bersam... Faqat hafa bo'lmang... Itimos! Hikoyalarning hammasini men yozganman... O'zingiz tushunasiz, hikoya yozilgan-dan keyin uni chop qilmasa bo'lmaydi-da... To'g'ri tush-uning, gap faqat qalam haqida emas, aslo. Odamlarga ni-madir bo'lmasin, aytadigan gapim bordek tuyulaveradi. Hayotimda ko'p qiyinchiliklarni boshimdan o'tkazdim. Bu boshga ne-ne balalar yog'ilmagan. Yozgim keldi-da, tasadduq. Ko'p o'yladim. Yozmasam bo'lmaydigan.

Dastlab uchta hikoya yozib, uch tahririyatga olib bor-dim. Balki, hikoyalarni yaxshi chiqqandir, ehtimol, maza-matrasi yo'qdir. Bilolmadim... Ular... ular o'qilmadi-da. Shulardan biri sizda edi. Men bir necha marta kelgan edim. Sizni juda band deydirdi. Bir haftalardan keyin bir kelib ko'ring, deydirdi. Nihoyat, kotibingiz hikoyamni to'g'ri kelmaydi, degan peshonaxat bilan qo'limga tutqaz-di. Kechirasiz-u, siz u hikoyani o'qimangansiz!

– Xonim, bunaqa bo'lishi mumkin emas...

– Ana shu hikoya keyinchalik jurnalningizda bosildi! – dedi ayol sokin va g'amgin ovozda. – Shunda miyanga bir ajoyib g'oya kelib qoldi... ehtimolki, judayam yaxshi emasdir... ehtimolki, juda-juda ahmoqona...

Men... yaqinimdagi xonadonlardan birida yosh, so-hibjamol bir kambag'al qiz yashar va u ish topolmay yurgan edi. O'sha sizning oldingizga Anna Nikolayevna Maurina nomi bilan kelgan qiz-da. O'sha hikoyalarni olib kelgach... uning iste'dodi bilan afandimning o'zlari shax-

san qiziqib qoldilar. Bechora qiz ham men kabi chorasiz edi-da. Cho'ntagida hemiriyam bo'lmasa. Men unga ana shu yo'lni taklif qildim. Tashqi ko'rinishdan is'toddi edi-da. U ko'ndi. Shunga kelishdik. Men hikoyalari yozadigan, u esa ularni o'z nomidan tahririyatlarga olib boradigan bo'ldi. To'g'ri, nomimni qoldirdim. Axir, ayonku, chiroy turganda nom kimni qiziqtirardi. Ismiga non botirib yeyisharmidi! Bilasizmi, asarda muallifning tashqi ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa deng, tashqi ko'rinish zo'r bo'lganda. Qizga bunday qarasan, sochlar bo'liq, quyulib turibdi, ko'zlar-chi, ko'zlar muharrir zotining jonini oladi. Muharrir ham erkak! Unga hikoya kerakmi? Hikoya! Boshini yeb yotibdi-ku! Muharrirlarga nima kerakligini yozuvchi bo'la turib men bilmasam! Yonoqlari olmachadek, hayot zavqi chehrasida gul-gul yonadi! Muallif ruhiyati bilan qiziqishlari uchun unda hamma narsa mavjud edi. Achehig'ingiz kelmasin, men na siz va na xodimlaringiz haqida biror yomon gap aytilish fikridan yiroqman! Bu haqda bu yerda urvoq ham yo'q. Birortangizdan hech bir ahmoqona ishora ham bo'lgani yo'q. Hech kim tiliga erk ham bergani yo'q! Biroq hikoyalarni tahririyatlarga ana shu qiz olib bora boshlagach, unga uch kundayoq javob bera boshlashdi. Bor-yo'g'i uch kunda! Yana barcha hikoyalari qabul qilinaverdi! E Xudoyim-a! Shunday bo'lishi tabiiy-da o'zi! Yosh, sohibjamol qiz hikoyalari yozsa! Mana shunday ko'hlikkina kalladan nimalar chiqayotgan bo'lsa? Odamni qiziqitirmaydimi! Shunisi qiziqki, dastlab hikoyalari unchalik ham yaxshi chiqmayotgandi, ba'zi muharrir janoblari shunchalar mehribon ustoz bo'lib ketishdiki, ularni o'zlari qaytadan yozib bera boshlashdi. Yana qanday mehr bilan! O'chira turib ham shunchalik ehtiyot-

korlik bilan va afsuslar chekib: „Asalim, o'zimning ham ko'zim qiymay turibdi-yu, ozgina cho'zilib ketibdi-da“. Qiz har kelib ketgandan so'ng, hammasini menga oqizmay-tomizmay aytib berar edi.

Tahririyatdagilar hayron bo'lisharmish: „O'zingiz yoshgina bo'la turib, shuncha narsani qayoqdan bilasiz?“ Xudo haqqi, meni kechiring, sizni hafa qilmoqchi emasman! Bu sizning so'zlaringiz. Ammo boshqalar ham xuddi shunga o'xshash gaplarni aytishardi. Uning talanti oldida hayratlanar edinglar: „Bunaqa ajoyib fikrlarni qayoqdan ham ola qolasiz, a?“ Agar qanaqa bo'lmasin, biror fikrni chiroyli ayol aytasa, fikrimisan fikr bo'p ketadi! Qiz oldingizdan qaytib borganda, unga nima degan bo'lsangiz, menga aytib berar va ikkimiz mazza qilib kular edik. Qiz qurmag'ur ja quvnoq edi-da, nima dedingiz... Ammo mening ustimdan kulsangiz bo'ladi. Bu maqtovlaringizni eshitib boshim aylanib ketar edi.

Ishimiz zo'r ketayotgandi. Biz oyiga ikki yuz so'mcha qalam haqi ola boshladik. Yuzini unga berib, yuztasini o'zim ola boshladim. Hammasi joyida edi. Kutilmaganda... o'tgan hafta narigi „Anna Nikolayevna“ qahvaxona sahnasiga ishga qabul qilindi.

— Qahvaxona sahnasi...

— U yer qizga vaqti xush o'tadigan joy ko'rindi shekilli, ustiga-ustak u yerda qizga ko'proq pul taklif qilishibdi. Men unga adabiyotni tashlab ketmagin, deb rosa yalindim. Shon-shuhrat bo'sag'asida turgan edig-a! Yana olti oycha sabr qilganida biz oyiga bemaol besh yuz-olti yuzni qurtdek sanab olishimiz mumkin edi! Romanimni tugallay deb qolgan edim... Ammo u ketdi.

Boshqa ilojim qancha! Uning o'rniga boshqasini olib bo'ladimi? Biroq buning iloji yo'q edi: bugun bitta Mau-

rina, ertaga boshqasi... Buning ustiga... mendan jahllari chiqmasin-u... o'ylabmanki, umid qilibmanki, qo'llab-quvvatlangan, chop etilgan asarlarim, menga endi ochiqdan ochiq o'z nomim bilan o'zim chiqish huquqini beradi deb... unchalik ko'hlik bo'lmasam-da... Biroz hafsalangizni pir qilganim uchun mendan jahlingiz chiqmasin.

– Men... men... to'g'risi nima deyishgayam... hamma si qanaqadir g'alati. Adabiyotga xos bo'lmagan bu usul... Ayol xuddi men uni urmoqchi bo'lganday cho'chib tushdi.

– Unaqa demang! Ayt mang bunaqa deb! Ja eshitdik-da! Bir tahririyatda meni deyarli haydab solishdi: „Bunaqasi adabiyotda ketmaydi“ emish. Shunday qilib, mana, oldingizga kelib turibman. Siz hamisha menga... mening hikoyalaringa yaxshi munosabatda bo'lgansiz. Shunaqa maqtangansizki. Mana bu qoralamamni ham o'qishdan bosh tortmassiz. Bunda ham uning siz yoqtirgan jihatleri bor. U olib kelganda siz uch kunda o'qib berar edingiz. Men bir haftalarda kelsam bo'ladingiz?

– Yo'g'-e, nega endi bir hafta bo'larkan... sizni ishon-tirib aytamanki... yanglishyapsiz...

– Ko'nglingizga olmaysiz-da endi!

– Iltimos, uch kunlarda habar olavering. Uch kunda hikoya o'qilgan bo'ladi!

– Balki, yaxshisi bir hafta...

– Xonim, yana takrorlayman: hikoya uch kunda o'qilgan bo'la-di! Hurmatimni e'tirof etishga izn bergaysiz!

Uch kundan so'ng kotibim bir hatchani uzatdi: „Bir haftalarda degandim. Jahllari chiqmasin, yana bir haftalardan so'ng habar olarman. Ehtirom bilan Maurina“.

Jin ursin, ensang qotadi kishi! O'sha zahotiy o'qishim kerak edi – unutibman!

So'ng... Aynan nima bo'lgani esimda yo'q. Biroq nimadir bo'luvdi. Uzoq Sharqda vaziyatning tangligi, keyinroq ichki guberniyalardagi nosog'lom muhitmi-yey, ishqilib, publiksist befarq tura olmaydigan voqealar bo'lib ketdi. Bir so'z bilan aytganda, o'ta band edim. Yelkamda mingta tashvish, vazifa. Nima qilay, aytsam, uzrli, vaqt yetishmasligi desa ham bo'lar. Gazetchilik, gazetchilikning tinib-tinchimas vasvasasi... So'ng, ehtimolki, hi-koya ham qayoqqadir gum bo'ldimi-yey, topa olmadim... Yaqinda chop etilgan yangi jurnallardan birida Maurina nomi bilan berilgan bir hikoyaga ko'zim tushdi.

Kechqurun uning muharriri bilan uchrashib qoldim:

– Aytmoqchi, Maurina sizlarga yozganlarini yuborib turibdimi?

– Siz uni taniysizmi? Juda benazir qiz-da, nima dedingiz?

– Rostdanmi?

– Durustgina qalami bor, durustgina. Albatta, biroz boshqacha fikrlash tarzini aytmasangiz... Chekinishlar cho'ziqroq. Qayta ishlab, yamab, bo'yab tayyorlashga to'g'ri kelyapti. Biroq, bunday iste'dodli qizaloq uchun mehnat hayf ketmas. Tahririyatimizda hamma uginani yoqtirib qolgan. Kirib kelishi bilan xona yashnab ketadi. Shunday ko'hlikkinaki! Go'daklarcha ma'suma. Jingalak, mallasoch, shunaqa hurki!.. Kelajagi bor...

– Jingalaksoch deng?

– Xuddi! Nimaga so'rab qoldilar?

– Yo'-o'... shunchaki, so'radim qo'ydim...

KITOBXONLIK

Boshligʻimiz Ivan Petrovich Semipalatov xonasida teatrimizning xoʻjayini Galamidov aktrisalimiz latofati, ijro mahorati haqida valaqlab oʻtirgandi.

— Ammo sizning fikringizga sira qoʻshilolmayman, — dedi Ivan Petrovich, hujjatlarga imzo qoʻyar ekan. — Sofya Yuryevna juda kuchli, oʻziga xos talant! Shunaqayam nazokatli, goʻzal... Shunaqayam zeboki...

Ivan Petrovich gapini davom ettirmoqchi edi-yu, ammo hayrat ogʻushida tili kalimaga kelmay qoldi, ana shunda odamning ensasini qotiradigan tabassum qildi, unga angrayib turgan xoʻjayin tanglayida bol taʼmini tuydi.

— E-e-e... menga uning... monolog aytayotganda hayajondan yuzlari qizarib ketgani yoqadi... Shunaqa doʻndiqki, shunaqa doʻndiq! Oʻsha lahzada, unga aytib qoʻying, men hamma narsaga... tayyorman!

— Janobi oliylari, Xerson politsiya idorasiga tegishli munosabat yuzasidan javob hatini imzolab bersangiz...

Semipalatov jilmaygan yuzini yuqoriga koʻtardi va shundoq tepasida amaldor Merdyayevning aftiga koʻzi tushdi. Koʻzlari chaqchaygan Merdyayev boshligʻining ustida turib, imzo chekiladigan qogʻozni burnining tagiga niqtardi. Semipalatov jiyirildi: dilkash suhbat avj palasiga chiqqanda gapning beliga tepgandi u.

— Buni keyinroq qilsa ham boʻlardi, — dedi u. — Koʻrib turibsiz-ku axir, men bandman! Oʻta tarbiyasiz, qoʻpol halq! Mana, janob Galamidov... Siz menga gogolona tiplar yoʻqolib ketgan deysiz... Mana, koʻrib qoʻying! Oʻsha tiplardan nimasi kam! Isqirt, yengi yirtiq, gʻilay... hech qachon yuvinmaydi... Yozgan hatiga qarang! Jin ur-sin, nima oʻzi bu! Besavod, bemaʼni... etikdoʻzning oʻzi! Koʻrib qoʻying!

— Hm-m... — qogʻozga koʻz qirini tashlagan Galamidov kalovlanib qoldi. — Chindanam... Siz, janob Merdyayev, aftidan, kam oʻqisangiz kerak.

— Bunday qilish, azizim, yaxshi emas! — davom etdi boshliq. — Meni uyaltirib qoʻydingiz! Siz hech qursa bi-rorta kitob oʻqiganmisiz oʻzi?

— Oʻqishda gap koʻp! — dedi Galamidov va he yoʻq, be yoʻq xoʻrsindi. — Juda koʻp! Siz oʻqing-da, darrov koʻra-siz, dunyoqarashingiz birdan oʻzgarib ketadi. Kitobni esa istagan joydan topish mumkin. Masalan, menda... Jonim bilan. Istasangiz, ertagayoq olib kelib beraman.

— Rahmat deng, azizim! — dedi Semipalatov. Merdyayev lablari titrab, beoʻxshov taʼzim qildi va xonadan chiqib ketdi. Ertasiga Galamidovning shaxsan oʻzi bizga bir taxlam kitob olib keldi. Hamma balo mana shu lahzadan boshlandi. Kelajak avlod Semipalatovning bu qadar kaltabin ekanini hech qachon kechirmasa kerak! Shu ishni yosh bola qilsa kechiradilar, ammo koʻpni koʻrgan, haqiqiy statskiy sovetnikni — hech qachon! Xoʻjayin tashrif buyurishi bilan Merdyayev boshliq xonasiga chaqirildi.

— Manavini oling, azizim, oʻqing! — dedi Semipalatov unga kitob uzatib. — Diqqat bilan oʻqib chiqing.

Merdyayevning kitob tutgan qoʻli titrab xonadan chiqdi. Uning rangi oqarib, gʻilay koʻzlari tevarakka bejo

boqar, go'yoki chor-atrofdagilardan najot izlardi. Biz uning qo'lidan kitobni oldik va xushyorlik bilan ko'zdan kechirdik.

„Graf Monte Kristo“ degan kitob ekan.

– Uning amriga qarshi borolmaysan! – dedi xo'rsinib bosh hisobchimiz Proxor Semyonich Budilda. – Bir navi harakat qil, chiranib ko'r... Oz-ozdan o'qishni boshla, Xudo saqlab, esidan chiqarib yuborar, innaykeyin o'qimay tashlab qo'ysang ham bo'laveradi. Sen cho'chima... Asosiysi, aslo kitob mag'zini chaqa ko'rma... O'qi, ammo bu benaf yumushga kirishib ketma.

Merdyyev kitobni qog'ozga o'rab chetga olib qo'ydi va yozishga o'tirdi. Ammo u endi yozolmasdi. Qo'li titrar, ko'zlari olayib atrofga termilardi: biri shiftga, boshqasi siyohdonga. Kelasi kun u ishga yig'idan ko'zi qizargan alfozda keldi.

– To'rt marta boshlab ko'rdim, – dedi u, – ammo fahmim hech narsaga yetmayapti... Qanaqadir ajnabiylar...

Oradan besh kun o'tgach, Semipalatov stol oralab o'tar ekan, Merdyyevning ro'parasiga kelganda to'xtab, so'radi:

– Qani, nima gaplar? Kitob o'qidingizmi?

– O'qidim, janobi oliylari.

– Nimalarni o'qidingiz, azizim? Qani, bizga so'zlab bering-chi!

Merdyyev boshini baland ko'tardi va labi titray boshladi.

– Esimdan chiqarib qo'ydim, janobi oliylari... – dedi u bir lahzadan so'ng.

– Demak, siz o'qimangansiz yoki, e-e-e... diqqat-e'tibor bilan mutolaa qilmangansiz. Avto-mmatik! Bunaqasi ketmaydi! Siz yana bir bora o'qing! Umuman, janoblar, tav-

siya qilaman. Marhamat qilib o'qinglar! Hamma o'qisin! Darchamda turgan kitoblarni oling va o'qing. Paramonov, boring, o'zingizga kitob oling! Podxodsev, siz ham boring, azizim! Smirnov – siz ham! Janoblar, hamma! O'tinaman!

Hamma borib, o'ziga bitta-bittadan kitob oldi. Faqat Budildagina e'tiroz bildirishga jur'at etdi. U qo'llarini ikki tomonga yoygancha, boshini sarak-sarak qilib, dedi:

– Meni afv etgaysiz, janobi oliylari... iste'foga chiqishimga oz qoldi. Men bu asarlarni o'qib chiqqandan keyin qanday tanbehchi paydo bo'lishini juda yaxshi bilaman. Kitob o'qigan katta nabiram o'z onasining ko'ziga tik qarab turib, tentaksan deydi, nafsiga ro'za ichi sut ichadi. Afv etsinlar!

– Siz hech baloni tushunmaysiz, – dedi Semipalatov hayrlashar ekan, odatdagiday qariyaga qahrini sochib.

Ammo Semipalatov adashgandi: aksincha, qariya har baloni tushunardi. Oradan hafta o'tib, biz kitob o'qishning ilk mevalarini totib ko'rdik. „Mangu jid“ning ikkinchi jildini o'qib chiqqan Podxodsev Budildani „munofiq“ deb atadi; Smirnov ishga mast-alast keladigan bo'lib qoldi. Ammo kitob o'qishdan hech kim Merdyyevchalik ta'sirlanmadi. U ko'zlari kirtayib, ozib-to'zib ketdi, ichkilikbozlikni boshlab yubordi.

– Proxor Semyonich! – yolvordi u Budildaga. – Duvoyi joningizni qilay! Janobi oliylaridan so'rang, meni afv etsinlar... Men kitob o'qiy olmayman. Yemay-ichmay kecha-kunduz o'qiyapman... Ovozimni chiqarib o'qiganimdan xotinimning tinchi yo'qoldi, ammo, Xudo haqqi, hech baloni tushunmayapman! Rahm qiling!

Budilda bir necha bor Semipalatovga ahvolni tushuntirishga chog'landi, ammo boshliq faqat qo'l siltab qo'yardi, xolos va Galamidov ikkisi idorani aylanganda

hammani jaholatparastlikda ayblardi. Shunday qilib, oradan ikki oy o'tgach, voqealar dahshatli yakun topdi.

Bir kuni Merdyayev ishxonaga kelgach, o'z joyiga o'tirish o'rni atrofda qoq o'rtasida tiz cho'k-kancha ho'ngrab yubordi:

– Yaxshilar, qalbaki hujjat yasayotganim uchun meni afv eting!

Keyin u xonaga kirib, Semipalatovning qarshisida tiz cho'kdi:

– Gunohimdan o'ting, janobi oliylari: kecha men chaqaloqni quduqqa tashlab yubordim!

U boshini yerga urgancha ho'ng-ho'ng yig'lardi...

– Bu nima degan gap? – angrayib qoldi Semipalatov.

– Bu degani, janobi oliylari, – dedi Budilda ko'zida

yosh bilan, oldinga chiqib, – u aqlan ozdi degani! Uning miyasi aynib qoldi! Mana, Galamudkangiz o'zining kitoblari bilan nimalar qilib qo'ydi! Xudo shohid, janobi oliylari, mabodo gapim sizga yoqmasa, iste'foga chiqishimga ruxsat bering. Yoshim bir joyga borganda shu ko'rgiliklar bormidi, bu kunimdan ochdan o'lganim avlo!

Semipalatov oqarib ketdi va u burchakdan bu burchakka yura boshladi.

– Galamidov taklifi qabul qilinmasin! – dedi u bo'g'i qovozda. – Siz esa, janoblar, tinchlaning. Endi men qanday hatoga yo'l qo'yganimni yaqqol ko'rib turibman. Sizdan minnatdorman, qariya!

O'shandan keyin bizda boshqa hech gap bo'lgani yo'q. Merdyayev tuzalib ketdi, ammo butunlay emas. O'shandan buyon kitobni ko'rsa tirab, teskari qarab qochadi.

BOLALAR JANNATI

– Dadajon.

– Labbay, qizim.

– Biz dugonam Nodiya bilan hamisha birgamiz.

– Juda yaxshi-da, qizim.

– Sinfda ham, tanaffusda ham, oshxonada ham.

– Juda soz. Yoqimtoy, tarbiya ko'rgan qiz u...

– Ammo ilohiyot darsiga boshqa-boshqa sinflarga qatnaymiz.

U xotiniga qaradi. Xotini dasturxonga kashta tikib o'tirardi. U eriga qarab jilmaydi. Xotinining jilmayganini ko'rib, u ham tabassum bilan dedi:

– Ilohiyot darsidagina boshqa-boshqa sinflarga kirasizlar-da. Hechqisi yo'q.

– Nega shunaqa, dada?

– Negaki sening dining boshqa, uniki – boshqa.

– Nega shunaqa axir?

– Sen musulmasan, u – nasroniy.

– Sababi nima, dada?

– Sen hali kichkinasan, qizim. Katta bo'lganingda o'zing bilib olasan.

– Men katta bo'lib bo'lganman.

– Yo'q, sen hali kichkinasan.

– Nega men musulmaman?

Birinchi qadamdanoq tarbiyaning zamonaviy usullarini chippakka chiqarmaslik uchun sabr-qanoat va ehtiyoqlik bilan ish yuritmoq zarur edi.

– Sening otang musulmon, onang musulmon. Shuning uchun sen ham musulmasan.

– Nodiya-chi?

– Uning otasi nasroniy, onasi nasroniy. Shuning uchun uning o'zi ham nasroniy.

Ota uzundan uzoq avlod-ajdodlarini sanashga tushib ketdi. Bir joyga yetib, qizi zerikadi-ku... Shunda o'zi boshqa gapga o'tar. Lekin qizi yana o'sha tutgan joyidan davom etaverdi.

– Dada, qaysi biri yaxshi – muslima bo'lganmi yo nasroniy bo'lganmi?

Ota biroz o'ylanib turib javob berdi:

– Unisi ham, bunisi ham yaxshi.

– Axir, birortasi yaxshi bo'lishi kerak. Undoq bo'lsa, men ham nasroniy bo'la qolay-da. Shunda Nodiya bilan hamma joyda birga bo'lar edik.

– Yo'q, qizim. Buning iloji yo'q. Har kim o'z ota-onasining imonida bo'lmog'i shart...

Chindan ham zamonaviy tarbiya g'oyat mushkul narsa-da!

– Katta bo'lguningcha kutib turguing kelmayaptimi?

– Yo'q, dada.

– Yaxshi. Sen moda nima ekanligini bilasanmi? Birov bir modaga ergashadi, boshqa birov ikkinchi modaning etagidan tutadi. Muslima bo'lish – eng so'nggi moda. Shuning uchun ham sen muslima bo'lib qolmog'ing kerak.

– Bundan chiqadiki, Nodiya eski modada qolib ketgan ekan-da?

Voy, Nodiyang bilan baraka topkur qizim-ey. Har qancha ehtiyot bo'lgani bilan otasi bir joyda hatoga yo'l qo'ydi, shekilli-da! Endi bir amallab buni tekislamasa bo'lmaydi.

– Bu didga bog'liq. Lekin har bir odam ota-bobolarining diniga sig'inmog'i kerak.

– Men dugonamga Sen eski modaga rioya qilasan, men esa yangi modaga amal qilaman, desam bo'ladimi?

Otasi shosha-pisha qizining gapini bo'ldi:

– Hamma din ham o'z yo'liga yaxshi. Musulmonlar ham, nasroniyilar ham Xudoga ishonadilar.

– Nega endi ular boshqa-boshqa xonalarda ishonishadi?

– Chunki ularning har qaysilari o'zlaricha ishonishadi-da.

– O'zlaricha degani qanaqa bo'ladi?

– Sen buni yanagi yil bilib olasan. Yoki undan keyingi yili fahmlaysan. Hozircha esa musulmonlar ham, nasroniyilar ham Xudoga ishonishini bilib olsang, shuning o'zi kifoya.

– Xudo degani kim, dada?

Otasi o'zini yo'qotib qo'ydi. Uzoq o'ylandi. Keyin sir boy bermaslikka harakat qilib so'radi:

– Bu to'g'rida maktabda muallimang nima degan edi?

– Muallimamiz Qur'ondan bir surani o'qib berdi. Biz Fotihani yod oldik. Lekin men hech narsani tushunganim yo'q. Xudo deganlari kim, dada?

Yana biroz o'ylangandan keyin otasi jilmayib, mujmalroq javob berdi:

– Xudo dunyodagi hamma narsani yaratgan.

– Bor-yo'g'i shumi?

– Ha, bor-yo'g'i shu.

– Yaratuvchi degani nima? U qayerda turadi?

– Dunyoning hamma joyida.

Qizaloq bir zumgina o'ylanib qoldi, keyin dedi:

- Lekin Nodiya uning yerda yashaganini aytgan edi?
- Buning boisi shundaki, u xuddi yerda yashayotgandek, bu yerda sodir bo'layotgan voqealarning hammasidan bohabar.
- Nodiyaning gapiga qaraganda, odamlar uni o'ldirib qo'ygan emish?
- Yo'q, U mangu hayot, U hech qachon o'lmaydi.
- Nodiya Uni odamlar o'ldirgan deydi.
- Yo'q, bo'talog'im, odamlar Uni o'ldirdik, deb o'ylashgan, lekin U o'lmagan, U - hayot... - onasi achig'i kelib, koyib berdi. Qizaloq hayron bo'lib, nigohini onasidan olib, yana otasiga qaratdi.
- Xudo o'zi buni xohlab, kunning bitdi desa, biz uning irodasi bilan vafot etamiz, - deb bir amallab javob qildi ota.
- Nima uchun U bizning o'lishimizni istab qoladi?
- Hamma narsa uning ixtiyorida.
- O'lim deganlari yaxshi narsami?
- Yo'q, qizim.
- Nima uchun men sizni o'lasiz deganimda, onamning achchig'i keldi?
- Shuning uchunki, hozircha Xudo buni xohlamaydi.
- Qachon xohlaydi?
- U bizni bu dunyoga keltiradi-da, keyin yana o'zi qaytarib oladi.
- Nega bunday qiladi?
- Toki bu dunyoda tirik yurar ekanmiz, savob ishlarni ko'proq qilmog'imiz uchun-da.
- Biz bu dunyoda o'lmay yuraversak bo'lmaydimi?
- Agar, bu dunyodan odamlar ketib turishmasa, ular hech qayerga sig'may ketardi.

- Hamma yaxshi narsalarni qoldirib ketamizmi?

- Biz yana ham yaxshiroq joyga ketamiz.

- Qayoqqa?

- Yuqoriga.

- Xudoning yonigami?

- Ha.

- Keyin uni ko'ramizmi?

- Ha.

- Bu yaxshimi?

- Albatta yaxshi-da.

- Shuning uchun biz bu dunyodan ketishimiz kerakmi?

- Lekin biz hali qo'limizdan keladigan yaxshi ishlar-ning hammasini qilib ulguranimiz yo'q.

- Bobom hamma savob ishlarni qilib bo'lganmidi?

- Ha.

- U nima ish qilgan?

- Uy qurgan, bog' yaratgan.

- Mening tog'am Tutu nima qilgan?

Otasi nochorlikdan nima qilishini bilmay, yordam so'raganday xotiniga qaradi. Keyin dedi:

- U ham bu dunyodan ketishidan avval kichikroq bir uy qurgan.

- Qo'shnimizning bolasi Lulu bo'lsa doim meni urgani-urgan. U bironta ham yaxshi ish qilgan emas.

- U shum bola-ku!

- U o'lmaydimi?

- Xudoning irodasi bo'lganida u ham o'ladi.

- Bironta savob ish qilmagan bo'lsa ham o'lib keta-veradimi?

- Hamma o'ladi, hech kim qolmaydi. Lekin savob ish qilganlar Xudoning huzuriga boradi, yomon ish qilganlar jahannam o'tida yonadi.

Qiz xo'rsindi, biroz indamay qoldi. Otasi esa butunlay holdan toyanini his qildi. U qizining savollariga to'g'ri javob berdimmi-yo'qmi, degan tashvishda edi. Bu savollar hammasi uning qalbi tubida yotgan bir dunyo shubha-gumonlarni to'zg'itib yubordi. Shu chog' qizi yana bidirlab tilga kirdi:

– Men hamisha Nodiya bilan birga bo'lishni istayman.

Otasi biroz sarosimada qiziga qaradi. Qizi gapiga aniqlik kiritdi:

– Hatto ilohiyot darsida ham birga bo'lsam deyman.

Otasi qah-qah urib kulib yubordi. Onasi ham kuldi.

Ota esnab turib dedi:

– Bunaqa masalalarni bolalaring bilan muhokama qilishing mumkinligini men sira hayolinga ham keltirmagan ekanman.

Xotini luqma tashladi:

– Qizimiz ulg'ayib, katta bo'lganida ko'nglingizga kelgan shubha-gumonlaringizni unga oqizmay-tomizmay gapirib beraverasiz.

Ota yalt etib xotiniga qaradi – bu gapni u hazil qilib aytdimi yoki chin aytdimi – bilmoqchi bo'ldi, lekin xotini yana kashtasini tikishga tushib ketgandi.

XAYRANING HAYOTI

Hayra rezavorchining eshagini bir janobning mashinasi bosib ketibdi, degan habar qishloqqa yoyildi. Buni eshitgan Hayraning xotini shunday faryod ko'tardiki, qishloq ahli bir zunda voqea yuz bergan joyga to'plandi.

Hayraning rangi oqarib ketgan, bechora hashamdor mashina oldida turgan janobga nima deyishini ham bilmasdi. Qayerdandir yetib kelgan oqsoqol, eshakni mayib qilgani uchun janob tovon to'lashlari mumkin, deb ishonitirar edi.

Hayra rezavorchini qishloqda kim bilmaydi deysiz? U har kuni butun qishloqni kezib chiqar, har bir uy oldida to'xtab, uy egasini chaqirar, unga yangi uzilgan sabzavotlarni ko'rsatib:

– Nur xonim, menda siz uchun bodring, pomidor, oshqovoq, loviyalar bor, – der edi.

Agar Nur xonim biror narsa sotib olmoqchi bo'lsa, u o'zining eshagiga qarab:

– To'xta, birodar. Axir egangni odamlar qanday hurmat qilishayotganini ko'rmasanmi? Egang shirinsol, rost-go'ylikni sevadi. Buning ustiga, uning bari mollari a'lo.

Agar suhbat uy egasining xotini bilan faqatgina sa-lomlashish va savdongiz o'ngidan kelsin, degan gap bilan tugasa, u sekin tizginini tortib:

– Tort, birodar! – derdi.

Eshagini „birodar“ degani uchun qishloqdagilarning hammasi Hayrani kulgi qilishar edi. Birodar, deb atasa nima qipti? Shodlikda ham, musibatda ham eshak rezavorchining sodiq do'sti edi. Necha martalab yem bo'lmay qolgan vaqtlarda u itoatkorona qurib qolgan cho'pni chaynagan edi. Hayra uni juda ko'p vaqtlar suvsiz qoldirishga majbur bo'lgandi. Chindan ham u Hayraning do'sti va doimiy hamrohi edi.

Hayra dam-badam o'z eshagi bilan suhbatlashib qo'yardi.

– Birodar, men ham, xotinim ham boylik to'g'risida hayol surmaymiz. Bizning kundalik nonimiz, ro'zg'orimizga yarasha zarur narsalar bo'lib tursa bas. Men ba'zilardek hashamatli uy va xizmatkorlar, shoyi va mebellar haqida hayol surmayman, men, birodar, oddiygina rezavorchiman, xolos va doimo shunday bo'lib qolishini istayman.

Shu baxtsiz hodisa ro'y bergan kuni Hayra o'zining horg'in eshagi bilan odatdagi sayohatidan qaytar edi. Burchakdan to'satdan otilib chiqqan avtomobil eshakni ag'natib yubordi. Hayra nima voqea ro'y berganini anglaguncha bo'lmay, atrofga odamlar to'planib qoldi.

Avtomobil to'xtadi. Undan uzun bo'yli, kumush hasa tutgan bir kishi chiqdi. U yo'l chetida turib, g'azab to'la ko'zlari bilan to'plangan odamlarga qaradi.

– Ey, birodarim! Ey, mening sodiq hamdamim! Hayraning do'stini nima qildilar! Ey haloyiq! Becho-
ra Hayraga qaranglar, eshagidan boshqa hech narsasi bo'lmagan, uni ham ehtiyot qilolmagan bu rezavorchini la'natlanglar, – deb zorlanadi Hayra.

Hayra bilan xotini chang-tuproqli yo'lda yotgan eshak oldida o'tirar edi, ular qattiq yig'lab, jonivorming azobini

yengillashtirishga urinar edilar. Hayraning xotini eshakni silab yig'lardi.

Mashinaning egasi xotirjamlik bilan kissasidan sigara chiqarib chekdi-da, Hayraning kim ekanini so'rab, mashinaga qarab burildi. Mashina ko'zdan g'oyib bo'lganda oqsoqol odamlarni tinchitishga urinib:

– Endi tashvishlanishga o'rin yo'q. Bu janob davlatmand odam. U Hayraga, albatta uch, yo to'rt eshak sotib olishga yetadigan pul beradi, – dedi.

Eshakni avaylab aravaga solib, Hayraning uyiga olib bordilar. Mol do'xtiri uni ko'zdan kechirib, oyog'i siniganini va yonboshi qattiq lat yeganini aytdi. Kechasi jonivor shunday qattiq hangrar ediki, hatto qishloqning narigi chetidan ham eshitilar, eshitgan kishilarning rahmi kelib ketardi.

Ikki hafta o'tdi. Haligi janob Hayra to'g'risida o'ylab ham ko'rmadi. Oqsoqolning shahar meriga va munitsipalitet a'zolariga qilgan murojaati bekor ketdi. Mayib bo'lgan eshak uchun pul olish haqida shahar advokatlari bilan maslahatlaridan ham biror naf chiqmadi. Axir, janob ustidan kim ham shikoyat qila oladi.

Advokatlari bu ishga urinmaslikni maslahat berdilar, chunki Hayraning foyda ko'rmasligi turgan gap edi. Shunday bo'lsa ham oqsoqol ahdida turdi, u eshak uchun haq talab qildi. Sud: Rezavorchi jarima qilinsin va bir hafta qamoqqa olinsin, – deb qaror chiqardi! Nima uchun? Ma'lum bo'lishicha, go'yo xo'jayin „Jamoat manfaatiga“ oid masalalar hal qilinishi kerak bo'lgan yig'ilishga ketayotganida uning eshagi tufayli kechikib qolgan emish.

Hayra sudning qarorini eshitib, esankirab qoldi. Qishloq ahli bu habardan g'oyat g'azablandi, ko'p kambag'al-

lar yordam berish uchun Hayranikiga jo'nadilar. Biroq, ular nima ham qila olardilar?

Hayra qamoqda yetti kun o'tirib chiqdi. U uyiga qaytganida tut daraxtlar orasida o'tlab yurgan eshagini ko'rib, sevinchi ichiga sig'madi. Eshak dumini qimirlatar, Hayraning xotini esa uning qulog'ini qashir edi.

Er-xotinning ko'zlariga sevinch yoshlari to'ldi. Eshak tuzalgan va ishlashi mumkin edi.

...Mana, yangidan, odatdagiday, Hayra eshagingning izidan qolmay; har kuni bir vaqtda ko'chadan sabzavot olib o'tadi...

DUNYONING SARMOYASI

Madrid – Fransisko ismining qisqartirilgan shakli bo'lgan Pako ismli bolalarga to'la shahar va bu yerda ana shu haqida shunday latifa ham paydo bo'lgandi: Bir ota Madridga kelib, El Liberal gazetasining e'lonlar sahifalaridan biriga shu so'zlarni kiritadi: „*Pako, meni se-shanba kuni kunduzi Montana mehmonxonasida kutib ol, otang hammasini kechirdi*“.

Buni qarangki, Guardiia Sivilning eskadroni tarqatgan ushbu habar bu e'longa javob beradigan sakkiz yuzta bolakaylarni to'pladi. Biroq bu Pakoning, ya'ni Luarka mehmonxonasida xo'randalarga xizmat ko'rsatayotgan bolaning uni kechiradigan otasi, boringki, otasi bo'lganida ham kechirishi kerak bo'lgan biron qilg'ilig'i yo'q edi. Faqatgina uning ikkita opasi Luarka mehmonxonasida oqsoch bo'lib ishlashardi xolos, ularning kelib chiqishi bitta qishloqdan bo'lib, avvaliga opalari Madriddagi ushbu mehmonxonadan o'zlariga ma'qul ish topishdi, so'ngra Pakoni ham Madrid tomon chorlashib, uni ofitsiantga shogird qilib ishga joylashtirishdi. Bolaning qishlog'i esa Ekstramaduraning bir bo'lagi hisoblanib, u yerda sharoit judayam ibtidoiy holga kelib qolgandi, oziq-ovqat tanqis, yashash uchun hech bir sharoit yo'q, kamiga u yerda Pako hamisha jonini jabborga berib ishlashiga to'g'ri kelardi.

Pako tim qora va anchayin jingalaksoch, tishlari sadafdek va badani terisining mayin va silliqli-giga opalari ham havas qiladigan yoqimtoygina bola boʻlib oʻsdi, lablarida doimo mayin tabassum jilvalanardi. Uning oyoq-qoʻllari ham chaqqon boʻlib, ishini bekam-u koʻst ado etardi, unga goʻzal va nazokatli koʻrinadigan opalarini jondan yaxshi koʻrardi, haliyama unga tushday boʻlib tuyulayotgan Madridni yaxshi koʻrardi, ishini yaxshi koʻrardi, yorugʻ chiroqlar ostidagi ochorli dasturxon solingan stollar, tungi kiyimlarini kiygan holat, oshxonadagi moʻl-koʻl ovqatlar ajib romantik hislarni uning betakror qalbiga olib kirardi. Luarka mehmonxonasida sakkiztadan oʻn ikkitagacha odam istiqomat qilardi, ular ovqatlanish zalida taomlarni tanovul qilishar, biroq bu xoʻrandalarga xizmat koʻrsatayotgan uchta ofitsiantdan eng yoshi boʻlgan Pako uchun bu yerda hozir boʻlganlar, albatta, haqiqiy buqa urushtiruvchilar boʻlardi.

Ikkinchi darajali matadorlar ushbu mehmonxonada yashashni afzal koʻrishardi, chunki Kalle San Jeronimoda sharoitlar durust, ovqatlari ham aʼlo, xona va xosxonalari esa choʻntakbop edi. Buqa jangchisi uchun yasan-tusan juda zarur hisoblanadi, bu — muvaffaqiyat qozonish uchun emas, shunchaki hurmat qozonish uchun, Ispaniyada jasurlikdan koʻra xushxulq va viqor martabalarini ezgulik kabi yuqori baholanishidan beri buqa jangchilari Luarkada toʻ oxirgi pesetalari tamom boʻlgunicha qolishayotgandi. Har qanday buqa jangchisi uchun Luarkadan yaxshiroq yoki qimmatroq mehmonxonaga ketishga zarurat yoʻq edi, ikkinchi darajali matadorlar hech qachon birinchi darajali boʻlmaydilar, ammo Luarkada nasl-nasab tez rivojlanib borardi.

Bu paytda Luarkada yashab turgan uchta mukammal matadordan ikkitasi pikador, yana biri esa banderillero hisoblanar edi, Luarkada pikador va banderillerolar toʻlib-toshardi, ular bahor mavsumida oilalari bilan Madridda, Sevilleda ijarada yashashlari soʻralardi, lekin ularga moʻmaygina haq toʻlanar va kelgusi mavsum uchun mulohaza bilan bitim tuzgan har qanday jangchi ushbu uchta matadordan koʻra koʻproq pul ishlay olardi. Uch matadordan biri betob boʻlib, ahvolini negadir yashirishga urinardi, yana biri kaltabaqay, uchinchisi esa yuraksiz, qoʻrqoq edi. Bu qoʻrqoq matador, bir paytlar qorning pastrogʻidan shafqatsiz hayvonning kutilmagan zarbasidan jarohatlangan edi, bu hol uning birinchi mavsumi boshlanganda roʻy bergandi, beqiyos jasorat va ajoyib mahorat egasi sifatida haliyama oʻsha oʻmadli kunlarining iliq oliftagarchiliklari shu tufayli unda saqlanib qolgandi. U juda quvnoq va kirishimli edi, zoʻrma-zoʻraki ham, beixtiyor ham tinimsiz kulaverardi. Oʻsha muvaffaqiyatli damlarida yaxshigina hazilkash boʻlgan, ammo endi bu odatlarni butkul tashlagan edi. Tomoshabinlar undagi bu oʻzgarishga ishonch hosil qilishgandi. Shunga qaramay, bu matador anchagina mulohazali, ochiq yuzli va oʻzini oʻziga xos tutardi.

Matador nima sababdandir kasalini berkitishga urinar, ovqat paytida dasturxonga keltirib qoʻyilgan taomlarning hatto kichkina idishlarigacha sinchkovlik bilan tekshirib, keyin tanovul qilardi. Uning oʻzida, yaʼni xonasida yuvib dazmollangan juda koʻp katta dastroʻmollari boʻlardi, keyinroq u jang kastumlarini ham sotdi, Rojdestvodan avval bittasini arzonroqqa va keyingisini aprelni birinchi haftasida pullashga muvaffaq boʻldi. Uning kastumlari juda qimmat va yaxshi saqlangan, tagʻin unda yana

bittasi qolgandi. Bu matador betob boʻlishidan oldin rosayam istiqbolli boʻlgan, hatto hammani hayratga solgan, jangchi sifatida oʻzi oʻqiy olmagan paytida ham, uning mahorati toʻgʻrisida gazetalarda shunday deb yozilardiki, ushbu matadorni birinchi chiqishi Belmontedagidan koʻra muvaffaqiyatliroq chiqqandi. U yolgʻiz oʻzi kichkinagina stolda ovqatlanar va judayam ozib ketgandi.

Boʻyi kalta matador esa qorachadan kelgan boʻlib, anchagina salobatli edi. U ham ajratilgan, alohida stolda yolgʻiz oʻzi ovqatlanar, juda kam jilmayar, umuman kulmasdi desa ham boʻlaverardi. Bu matador odamlari rosayam jiddiy boʻlgan Valladoliddan kelgan, u ham mahoratli matador hisoblanardi, biroq omma oldida oʻzining yutuqlari bilan tomoshabinlar muhabbatini qozonishdan avval eski uslubga ega edi, lekin jasorati va mahorati tufayli uning nomi va surati buqa ringidagi afishaga chizib qoʻyilgandi. Oʻzgachaligi esa, judayam kaltabaqayligidan edi, buqaning boʻynini zoʻrgʻa koʻra olardi, boshqa boʻyi kalta jangchilar ham bor edi, biroq u muxlislar eʼtiborini qozonishga hech muyassar boʻlmadi.

Pikadorlarga kelsak, biri oriq, qirgʻiy yuzli, kulrang sochli, muloyimgina, lekin oyoq-qoʻllari xuddi temirday edi, shimlari tagidan chorvadorlarning etiklari koʻrinib turardi, har kech boʻkkunicha ichar va pansiondagi duch kelgan ayolni sevib qolaverardi. Yana bir pikador esa bahaybat, qorachadan kelgan, qoracha yuzli, xushsurat, tim qora sochlari va ulkan qoʻllari bilan xuddi hindlarga oʻxshab ketardi. Birinchisi ichkilik va kam chiqishlari bilan oʻz qobiliyatini yoʻqotgan, ikkinchisi oʻzboshimcha va bemaʼniliği uchun hech qaysi matador bilan bit-ta mavsumdan ortiq turolmaganlariga qaramay, ikkalasi ham buyuk matadorlar edi.

Banderillero boʻlsa oʻrta yoshli, yoshiga nisbatan chaqqon, ishi oz-moz rivojlangan biznesmen boʻlib, u ham oʻz stolda yemak bilan band edi. Banderilleroning oyoqlari bu mavsum uchun ham yarardi, oyoqlari yaxshi ekan, u ham aqli toʻlishib qolar hamda uzoq fursatga oʻz ishini saqlab qolish imkonini taʼminlay olardi. Tafvut shunda ediki, banderillero ringda va ringdan tashqarida ekanligida, oyoqlari chaqqonligini yoʻqotib qoʻyadigan ondan doimo choʻchirdi.

Bu oqshom ovqatlanish zalida oʻlguday ichgan qirgʻiy yuzli pikador, Ispaniyaning festival va yarmak-larining tugʻma xolli soatlar auksioneri, u ham oʻlguday ichib olgandi va burchakdagi stolda oʻtirgan, uncha koʻp ichmagan, galitsiyalik ikkita hazratdan boshqa hech kim qolmagandi. Bu mahalga kelib, Luarka bortidagi xona-da vino ham sotila boshlagan va ofitsiantlar Valdepe-nasning yangi shishalarini auksionerning stoliga, keyin pikadorni va nihoyat, ikkita avliyoning stoliga keltirib qoʻyishardi.

Uchala ofitsiant xona etagida tik turishardi. Bu meh-monxonaning qoidasi shunday ediki, ular xoʻrandalar talab qilgunlaricha oʻz burchlarini saqlashardi, ammo ikkala hazrat oʻtirgan stolga xizmat koʻrsatayotgan ofit-siantning Anarka-sindikalistda uchrashuvi bor edi va Pa-ko uning xizmatini bajarib turishga rozi boʻlgandi.

Tepadagi qavatda, kasal matador karavotida yolgʻiz oʻzi yuztuban boʻlib yotardi. Uzun boʻlmagan matador esa derazasidan tashqariga, kafega chiqib ketish tadorigi-da qarab oʻtirardi, qoʻrqogʻi boʻlsa oʻz xonasida Pako-niing katta opasi bilan birga edi, u rad qilinishiga qara-may, hadeb qizga shilqimlik qilardi.

„Kela qol endi, jaiji shafqatsizim mening“, – derdi u.

„Keragi yo'q“, – derdi Pakoning opasi. „Nega endi men?“

„Savob uchun“.

„Siz tamaddi qilib bo'lib, endi meni desert uchun xohlayapsizmi?“

„Faqat bir martagina. Buning nima yomon joyi bor?“

„Meni tinch qo'ying, meni tinch qo'ying deyapman sizga“.

„Bu bajarishgayam arzimagan oddiy bir ish, xolos“.

„Meni tinch qo'ying dedim sizga“.

Pastda, ovqatlanish zalida esa uchrashuvdan kech qolayotgan ofitsiantlarning eng uzuni hadeb o'tirganlarni tanqid qilardi:

„Bu ichkilikka bo'kib olgan qora cho'chqalarga qara“.

„Bunaqa dema“, – derdi ikkinchisi. „Ular tartibli mijozlarimiz. Unaqa ko'p ichmagan ham“.

„Lekin menga shunaqa bo'lib ko'rinyapti“, – dedi yana uzuni.

„Ular Ispaniyaning ikkita ofati, buqalari va hazratlaridir“.

„Albatta, yagona buqa va yagona hazrati emas“, – derdi ikkinchisi.

„Ha“, – dedi uzun ofitsiant. „Faqat yakkasi orqaligina sen hujum qila olasan. Yagona buqa va yagona hazratni o'ldirish zarur bo'ladi. E ularning hammasiniyam. Keyin bittasiyam qolmaydi“.

„Bu gaplaringni uchrashuvingga saqlab qo'y“, – dedi sherigi.

„Madridning bu yovvoyilariga qara“, – dedi yana uzun ofitsiant. „Hozir soat 11:30 bo'ldi, lekin ular ochofatlarcha haliyam bo'kib o'tirishibdi“.

„Ular ovqatlanishni endigina soat 10 da boshlashdi“, – dedi narigisi.

„Bilasanki, taomlarimiz anchagina. Vinoyam arzon va ularning puliyam to'lab qo'yilgan. Unaqa kuchli vino ham emas“.

„Senga o'xshaganlar bilan qanday qilib xizmatchilar o'rtasida birdamlik bo'larkin?“ – ensasi qotib dedi uzun ofitsiant.

„Eshit“, – dedi narigisi, u elliklarga borib qolgandi.

„Men butun hayotim davomida mehnat qildim. Qolgan hayotim davomidayam mehnat qilishim kerak. Meni ishlashga qarshi hech qanday shikoyatim yo'q. Ishlagan ma'qul“.

„Ha, lekin ishdagi kamchilik odamni o'ldiradi“.

„Men hamisha ishladim“, – dedi katta ofitsiant. „Uchrashuvga bora qol. Bu yerda qolishingning hech zaruriyati yo'q“.

„Siz ajoyib oshnasiz“, – dedi uzun ofitsiant. „Ammo sizda fikrlar kamchiligi mavjud“.

„Mejor si me falta eso que el otra“, – dedi narigisi. (Bu kamchilik ishdagi kamchilikdan ko'ra yaxshiroq degani).

„Uchrashuvdan qolma“.

Pako esa hech narsa demay, jim turardi. U hali siyosatni yaxshi tushunmas, biroq uzun ofitsiantning hazratlar va Guardiia fuqarolarini o'ldirish zaruriyati haqidagi gaplarini eshitganda hayajonga tushardi. Uzun ofitsiant unga inqilobni tushuntirib berdi, inqilob Pakoga hayoliy bo'lib tuyuldi. Bolaning o'zi esa yaxshigina katolik, inqilobchi bo'lishni, shunga o'xshash bardavom ishga ega bo'lishni va bir paytda buqa jangchisi bo'lishni ham xohlardi.

„Uchrashuvingga boraver, Ignasio“, – dedi Pako unga.

„Sening xizmatingga men javob berib turaman“.

„Ikkalamiz ham“, – dedi keksa ofitsiant.

„To‘g‘ri, bir kishi eplolmaydi“, – ma‘qullaydi Pako ham.

„Uchrashuvingdan kech qolma“.

„Pues me voy“ – minnatdorlik bildirdi uzun ofitsiant.

„Ko‘p rahmat“.

Bu vaqt ichida, tepada, Pakoning opasi, xuddi kurashchi qo‘lning sindirgani kabi eptchilik bilan matadorning quchog‘idan chiqib olgan, endi g‘azab bilan unga qarab o‘shqirardi:

„Siz juda ochofat bo‘rilsiz. Omadsiz buqa jangchisi. Yuraksizliging va qo‘rqoqliging tufayli. Agar shunchalik o‘zingga ishongan ekansan, kuchingni ringda ko‘rsatgin“.

„Fohishalar doim shunaqa gapirishadi“.

„Fohisha ham ayol, ammo men fohisha emasman“.

„O‘shanaqalardan bittasidan“.

„G‘ar hammaniyam g‘ar deb o‘ylaydi“.

„Chiqib ket!“ – dedi matador endi zarba yeb, rad qilgan holda, u yana qo‘rqoqlik hissini tuya boshlagandi.

„Chiqib ket? Nimaga sizni tashlab ketarkanman?“ – piching qildi Pakoning opasi. „Siz meni to‘shakka boshlamaganmidingiz? Shuning uchun menga haq to‘langan axir“.

„Chiqib ket“, – takrorladi matador, uning keng, xushbichim yuzi bo‘ylab xijolatpazlik izlari o‘rimaladi, xuddi yig‘layotganga o‘xshab qoldi.

„Sen fohishasan. Kichkina isqirt fohishasan“.

„Matador“, – masxara qildi qiz, eshikni yoparkan. – „Matadoringnam“.

Matador ichkarida qolib, tag‘in karavotiga cho‘kdi. Uning yuzida hamon xijolatpazlik aks etar, bunaqa xi-

jolatpazlik u ringda bo‘lganida, birinchi qatorda o‘yinni kuzatib o‘tirgan tomoshabinlarning qo‘rquvlariga qarata muttasil tabassum aralash qaraganda yuz berardi.

„Bo‘l dedim!“ – dedi u baqirib. – „Tez yo‘qol!“

U ham bir vaqtlar omadli bo‘lganini eslaydi, bu esa atigi uch yil burungi holat edi.

Uning og‘irligi qorning pastiga tushgandi va buqa boshini ko‘tarishi bilan uning shoxi matadorning nazaridan qochdi, u ikkinchi marta qimirlashidan oldin hayvon matadorni tortib ketdi. Aslida, u buqani o‘ldirmoqchi bo‘ldi, shunchaki shoxiga qaray olmadi, ana endi qaysi fohisha uni jangda boshidan kechirganlarini bila oladi? Va ular ni uning ustidan kulishga nima haqlari bor? Ularning bari fohisha bo‘lsa, qiladigan iflos ishlarini bilishadi, xolos.

Pastda, ovqatlanish zalida pikador ikkala hazratni kuzatib o‘tirardi.

Mabodo xonada biror ayol paydo bo‘lib qolguday bo‘lsa, ularga qarab termilardi. Agar ayollar bo‘lmasa, unda zavq-shavq bilan chet elliklarga termilardi, biroq ayollar va begonalarsiz u endi o‘sha zavq va surbetlik bilan ikkala hazratga qarab o‘tirardi. U termilib o‘tirarkan, tug‘ma xolli aukSIONER o‘rnidan turdi-da, salfetkasini bukladi, buyurtma bergan shishasida yarim vino qoldirib chiqib ketdi. Agar Luarkada hisobi to‘langan bo‘lsa, u shishani bo‘shatgan bo‘lard.

Ikkala hazrat esa pikadorga qayrilib ham qarashmasdi. Ulardan biri dedi:

„O‘n kundan beri men bu yerda uni kutib o‘tiribman va kun bo‘yi xonadaman, u bo‘lsa meni qabul qilmayapti“.

„U yerda nima ishing bor?“

„Hech narsa. Nimayam qila olardim. Hokimiyatga qarshi borib bo‘larmidi?“

„Men bu yerda ikki haftadan buyon yuribman. Kut-yapman, ular esa meni ko'rishmayapti“.

„Biz tashlandiq mamlakatdanmiz. Qachon cho'ntagimiz qurisa, o'shanda qaytib ketamiz“.

„Tashlandiq mamlakatgami? Madrid Galitsiya to'g'risida jon kuydirarmidi? Biz qashshoqlarmiz“.

„Har kim bizning akamiz Basilioning harakatlarini tushunadi“.

„Meni haliyam Basilio Alvarezning to'g'riligiga aniq ishonchim yo'q-da“.

„Madrid – odam tushunishni o'rganadigan joy. Madrid Ispaniyani yo'q qiladi“.

„Agar ular oddiygina ko'rib, inkor eta olsalar“.

„Yo'q, sen bu kutishdan parchalanib, oxiri yo'q bo'lasan, shekilli“.

„Yaxshi, ko'ramiz-da. Sabrim yetgunicha kutaman“.

Shu damda pikador oyoqqa qalqib, hazratlar o'tirgan stol oldiga yurib keldi va kulrang bosh, qirg'iy yuzi bilan tik turgancha, ularga ko'z qadab iljaydi.

„A terero“, – dedi bir hazrat ikkinchisiga.

„Juda soz“, – dedi pikador va ovqatlanish zalidan chiqib keta boshladi, uning kulrang jaketi, ingichka beli, bukilgan oyoqlari, baland poshnali chorvadorlarning etiklari ustidan tushib turgan tor shimlari, u o'ziga o'zi iljayib, g'oz yurib ketishida unga ajib osudalik bag'ishlardi. Etiklari polga tegishi bilan, shiq-shiq etib tovush chiqarardi. U uddaburonlik, oqshomgi mayxo'rlik va surbetlikning kichkinagina tor, bekam-u ko'st olamida yashardi.

Endi u sigarasini yoqdi-da, kafedan chiqar ekan, zalning yo'lagida turib, burchak tomonga qarab, shlapasini qiyshaytirib qo'ydi.

Hazratlar pikadordan keyin ovqatlanish zalidagi qolgan odamlardan ham hafvsirashib, shoshilgancha zudlik

bilan chiqib ketishdi, xonada esa hech kim qolmagandi, faqat Pako va kekso ofitser bor edi, xolos. Ular stollar ustini tozalab, shishalarni oshxonaga eltdilar.

Oshxonada idishlarni yuvuvchi bir bola bor edi. U Pakodan uch yosh katta bo'lib, juda uyatsiz va o'lguday tili achchiq edi.

„Buni ol-chi“, – dedi katta ofitsiant unga va stakanga Valdepenas vinosidan to'ldirib, unga uzatdi.

„Nega olmas ekanman?“ – dedi bola stakanni olarkan.

„Senga-chi, Pako?“ – so'radi katta ofitsiant.

„Rahmat“, – minnatdorlik bildirdi Pako. Uchalasi ham ichishdi.

„Men uxlashga ketayapman“, – dedi katta ofitsiant.

„Yaxshi yotib turing“, – deydishdi bolalar unga.

Katta ofitsiant chiqib ketgach, ular yolg'iz qolishdi. Pako hazratlardan biri foydalangan salfetkani oldi-da, tik turgancha tovonlarini joylashtirib oldi, salfetkani tushirib, boshini bir harakatda silkita boshladi. Qo'llarini esa xuddi sekin supurayotganday harakatda tebratdi. Kichkina matador o'girilib, o'ng oyog'ini ozgina oldiga chiqardi, bu bilan go'yo ikkinchi o'tishni bajardi, tasavvuridagi buqada kichkina relyef hosil qildi, uchinchi o'tish ham to'liq va muloyim bajarildi, keyin u salfetkani beliga yig'ib, buqani media veronica ichiga xipchin bilan haydab kirgizdi.

Enrike ismli o'sha idish yuvuvchisi uni tanqidiy va masharaomuz nazar bilan kuzatib turdi.

„Buqa qalay ekan?“ – so'radi u.

„Judayam kuchli“, – dedi Pako. – „Mana, qara!“

Ingichka va tik turgancha Pako to'rttadan ko'proq mukammal, tekis, nafis va jozibali o'tishlarni bajardi.

„Buqa-chi?“ – so'radi Enrike belida fartuk, qo'lida vino stakani tutgancha rakovina qarshisida turarkan.

„Haliyam ko'p gazi bor“, – dedi Pako.

„Meni kasal qilib qo'yasan“, – dedi Enrike.

„Nimaga?“

„Qara.“

Enrike fartugini yechib, tasviriy buqani misol keltirdi, u to'rtta mukammal bo'sh veronikani yaratdi-da, ularni g'alati bir harakat bilan tugatdi. Pakoning yonidan o'tib ketar ekan, buqaning burni pastida shahd bilan fartugini silkitdi.

„Bunga qara“, – dedi u. – „Men tag'in idish yuvuv-chisi emishman.“

„Nimaga?“

„Qo'rqqosan“, – dedi Enrike. „Miedo. Ringga chiq-qaningdayam buqani ko'rib shunday qo'rquv ichida bo'lasan.“

„Aslo“, – dedi Pako. – „Men qo'rqmayman.“

„Leche!“ – masharaladi Enrike.

„Hammayam qo'rqqadi. Ammo torero o'z qo'rquv-larini boshqara oladi, shuning uchun ham buqa bilan ishlay oladi-da. Men ham bir paytlar jangchiga shogird tushganman, o'shanda qo'rqib, yugurib ketib qolganman. Hammayam buni juda qiziqarli bo'lgan bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Demakki, sen ham qo'rqqasan. Agar qo'rquv bo'lmaganda Ispaniyada hamma buqa jangchisi bo'lgan bo'lardi. Sen esa qishloqisan, mendanam ko'ra ko'proq qo'rqqang kerak.“

„Yo'q“, – ko'nmadi Pako. U tasavvurida buni ko'p marotaba takrorladi. Ko'p marotaba hayvon shoxlarini, buqaning nam tumshug'ini ko'rди, quloqlari achishdi, keyin boshi osilib, xuddi burni tagidan buqa o'tib keta-yotganday qilib, fartukni tebrata boshladi. Yana, keyin yana, yana va yana uni silkitaverdi, silkitish so'ngida uning atrofidagi buqa katta media veronika ichida qoldi.

Pako, buqa yaqin kelganida tilla bezakli jiketi orasiga hayvonning sochlari ilinib qolgan holda nari yurib ket-di. Buqa esa karaxt holda turar, tomoshabinlar Pakoni olqishlashardi. Yo'q, u qo'rqmaydi. Boshqalar qo'rqar, ammo u emas. Bu kichkina qahramon qo'rqqasligini bi-lardi. Mabodo qo'rqqan taqdirdayam, baribir buni ado-etishini bilardi. Pakoda ishonch bor edi.

„Men qo'rqmayman“, – deb takrorladi u.

Enrike yana „Leche“ dedi.

Keyin taklif qilib qoldi:

„Buni bir sinab ko'rsak-chi?“

„Qanday?“

„Qara“, – dedi Enrike. – „Sen buqa to'g'risida o'yla-yapsan, ammo uning shoxlarini o'ylamayapsan. Buqada shunday kuch borki, uning shoxlari pichoq kabi o'tkir, ular xuddi miltiqqa o'xshab sanchiladi, xuddi tayoqqa o'xshab o'ldiradi.“

„Mana, qara“, – u stol tortmasini ochib, ikkita go'sht pichog'ini oldi.

„Men bularni stulning oyog'iga sanchib qo'yaman. So'ngra sen uchun boshim ustiga stulni qo'yib, buqa bo'lib turaman. Pichoqlar buqaning shoxlaridir. Agar sen ulardan o'tishni bajarolsang, o'shanda nimanidir tushun-gan bo'lasan.“

„Menga fartugini berib tur“, – dedi Pako. „Buni ovqatlanish zalida bajaramiz.“

„Yo'q!“ – dedi Enrike birdan, ammo zarda bilan emas. „Bunaqa qilmay qo'ya qol, Pako.“

„Ha“, – joniqdi Pako. – „Men qo'rqmayman.“

„Unda pichoqlar kelayotganini ko'rganingda qar-shimga chiqasan.“

„Xo'p“, – rozi bo'ldi Pako. – „Menga fartukni ber.“

Bu paytda Enrike ikkita uchli, og'ir, o'tkir go'sht pichoqlarini stulning oyoqlariga ikkita artilgan salfetka bilan har pichoqning o'rtasidan bog'lagan holda, ularni mahkam qilib birlashtirdi. Pichoqlar bog'lanayotgan paytda Pakoning ikkala oqsoch opalari yo'lda, kinoga Anna Kristidagi „Greta Garboni“ni ko'rgani ketishayotgandi. Qo'shaloq hazratlardan biri ichkiyimda taxsilini o'qib o'tirar, boshqasi esa tungi kiyimida tasbeh o'g'irardi. Kasal matadordan tashqari barcha buqa jangchilari Lornos kafesida kechki ko'rinishlarini ko'rsatdilar. Bahaybat, qora sochli pikador blyard o'ynardi, kalta, jiddiy matador esa o'rta yoshli banderillero va boshqa ishchilar bilan kofe va sut qo'yilgan gavjum stol atrofida o'tirardi.

Ichib olgan kulrangbosh pikador esa Kazalas brendisi to'la stakan bilan o'tirib, dovrug'i ketgan matador bilan huquqlardan mahrum etilib, keyin yana banderillero bo'lgan matador o'tirgan, tag'in ikkita judayam harob ko'rinadigan ayollar ham o'tirgan stolga rohat bilan termilib o'tirardi. Auktioner ko'cha burchagida do'stlari bilan gurunglashib turardi. Uzun ofitsiant Anarko-Sindikalistdagi mitingda so'zlash uchun imkoniyat poylardi. O'rta yoshli ofitsiant Alvarez kafesining ayvonida ozroq pivo ichib o'tirardi. Luarkaning egasi bo'lgan ayol esa allaqachon yotog'ida oyoqlarini bukkancha uxlab yotardi, undan ko'pdan beri uzoqdagi vijdonli, pokiza, beparvo, juda dindor bo'lgan erining o'tganiga mana, 20 yil bo'lgan bo'lsa hamki, ayol hamon uni sog'inishdan va har kuni ibodat qilishdan to'xtamagan. Kasal matador o'z xonasida og'ziga ro'molcha tutgan cha, yuztuban holda karavotida yotardi.

Xuddi shu payt kimsasiz ovqatlanish zalida bo'lsa, Enrike pichoqlarni stulning oyoqlariga bog'lash uchun

salfetkalarining oxirgi tugunini tugib bo'ldi-da, stullarni yuqoriga ko'tardi. U pichoqlarni oldinga qilib, oyoqlarini mo'ljalga oldi, to'g'riga qaratilgan tepadagi ikkala pichoq bor stulni boshi uzra ko'tardi, ikkala pichoq boshining ikkala tomonida bo'ldi.

„Bu og'ir“, – dedi u. „Qara, Pako. Bu juda xafvli. Bu naqa qilmay qo'ya qol“.

U terlab ketgandi. Pako unga yuzlanib, fartukni yoygancha ushlab turar, har bir qo'lida uni birlashtirgan tugunni tutib turar, bosh barmoqlari tepada, birinchi barmog'i pastda, buqaning ko'zini ushlash uchun yoyib turardi.

„To'g'ri hujum qil“, – dedi u. „Xuddi buqaga o'xshab buril. Istaganingcha hujum qilaver“.

„Hamalani qanday qilib bilib olasan?“ – so'radi Enrike. „Buni uch marta qilib, keyin mediani bajarganing ma'qul“.

„Juda soz“, – ma'qulladi Pako. „Ammo to'g'ri kel, xey, toreto! Kela qol, kichkina buqacha!“

Enrike boshini egib, yugurgancha u tomonga keldi va Pako pichoqning shundoqqina tepasida fartugini silkitdi, pichoq Pakoning qorni oldiga juda yaqin keldi, ular haqiqiy buqaning shoxi kabi qora, tekis edi, Enrike bo'lsa Pakoning yonidan o'tib ketib, yana darhol tezlik bilan o'girildi, bu buqaning issiq qon halqobiga o'xshardi, so'ng u mushukday bo'g'i ovozda tag'in burildi va yana asta kelib stulni sekin qimirлата boshladi. Keyin „buqa“takror o'girilib, yana keldi, u shiddatli hujumni ko'rsatishi bilan chap oyog'ini old tomonga tashladi, pichoq o'tib ketmadi, ammo o'zi yengilgina vino yuqi ustiga toyib ketdi, shunda kuchli shiddat hosil bo'ldi, to'satdan bukilmas qattiq po'latni ko'rib, Enrike chinqirib yubordi:

„Voy-dod! Voy-dod! Men sug'urib qo'yay. Kel, men sug'urib qo'ya qolay!“

Pako esa stul oldiga toyib ketgan, fartuk matosini hamon ushlab turar, Enrike stulni tortganida pichoq unga, unga, Pakoga sanchilib qolgandi. Mana, pichoq sug'urib olindi va Pako iliq, kenggina pol ustiga o'tirib qoldi.

„Salfetkani baland tut. Uni ushlab tur!“ – baqirdi Enrike. „Uni mahkam ushla. Men doktorni chaqirib kelay. Sen ko'p qon yo'qotishing mumkin“.

„U yerda rezina piyola bo'lishi kerak“, – dedi Pako. U buni ringda foydalanganlarini ko'rgandi.

„Men to'g'ridan kelib qoldim“, – dedi Enrike yig'lagancha. „Shunchaki hafv-hatarni ko'rsatib qo'yishni xohlagandim“.

„Tashvishlanma“, – dedi Pako, uning ovozi tobora uzoqlashib borardi. „Biroq doktorni olib kel“.

Ringda ular seni ko'tarishadi va sen bilan yugurgancha seni operatsiya xonasiga olib borishadi. Bordi-yu yetib borishingdan avval qon tomirlaring bo'shab qolgan bo'lsa, u holda ular hazratni chaqirishadi.

„Hazratlardan birining o'gitlarini olsam bo'larkan“, – deya o'kindi Pako, qorning pastroq joyiga salfetkani bosarkan. U haliyam bu hodisa u bilan yuz berganiga ishonmasdi.

Ammo Enrike Karrera San Jeronimo pastlab tungi l-yordam stansiyasiga yugurib ketar, Pako esa yolg'iz, avvaliga o'tirib, keyin o'z pinjiga tiqildi, yana biroz vaqtdan so'ng polga yiqilib tushdi, sho'rlik bola po'kak ochilishi bilan vannadan suv to'kilib ketgani kabi o'z hayotining ham tugab borayotganini his qilib turardi.

KO'KKA SOVURILGAN YILLAR

– Juda yaxshi hikoya bo'libdi, – deya maqtadi bolaning otasi. – Qanchalar yaxshiligini o'zing ham bilmasang kerak.

– Men buni sizga yuborishmasin degandim, dada!

– Yana nimalar yozding?

– Bor-yo'g'i shu birgina hikoya, xolos. Rostdanam, kimdir sizga sirimni sotib qo'yibdi. Lekin bu hikoya mukofot olgach...

– O'sha birov shunchaki meni senga ko'maklashishimni istadi. Biroq hamonki, sen yozishni tuzukkina uddalar ekansan, unda sen hech kimga muhtoj emassan. Shu hikoyani yozishga qancha vaqtning ketdi?

– Uncha ko'p emas.

– Qiziq, chag'alaylar mavzusi qayerdan kallangga kela qoldi?

– Adashmasam, Bagamada ko'ruvdim ularni.

– Umringda na Kuchuk qoyalarda va na Tirsak ko'rfazida bo'lmagansan-ku. Qolaversa, Mushuk ko'rfazidayam, Biminidayam bironta chag'alayga ko'zim tushmagandi sira. Key Uest deydigan bo'lsang, u yerda atiga mittigina dengiz qushchalari in qurgan, xolos.

– Killem Petersda bor edi chag'alaylar. O'z ko'zlarim bilan ko'rganman. Ular marjon qoyalar ustiga in qurgandilar.

– Shundoqqina tekisliklar biqinidami? – deya o'smoqchiladi otasi yana, – ammo seni chag'alaylar to'g'risida buncha ko'p ma'lumotni bila qolganing ham alohida tashinga loyiq.

– Ehtimol, buni menga siz o'zingiz hikoya qilib bergandirsiz, dada.

– Nima bo'lgandayam, ajoyib hikoya chiqibdi. Hatto bu menga uzoq yillar oldin o'qigan bir hikoyamni eslatib yuboryapti.

– Ha, hamma narsa sizga doim nimanidir eslatadi, deb arazlagandek bo'ldi o'g'li otasidan.

O'sha yoz bola har kunini kutubxonada o'tkazganini otasi yaxshi bilardi, katta uylariga tushlik uchun tashrif buyurganida u o'g'lini beysbol o'ynamayotgan yoki metganlik to'garagida emasligini bilgach, uni yozish bilan band ekanligidan tezda voqif bo'lardi.

– Nimaiki muammo tug'lsa, shartta o'zinga aytgin, o'g'lim, – deya quvvatlardi ota zurriyodini, – bor bilganing haqida yozib-yozib tashlayver.

– Shunday qilayapman, – deb javob berardi bola ham.

– Har doim ham yirtig'ingga yamoq bo'la olmayman-ku-ya, – davom etardi ota, – ammo sen istagudek bo'lsang, biz ikkimiz birgalikda ijod qilsagam zo'r ish bo'lardi, buni amalda bir sinab ko'rsang chakki bo'lmasdi.

– Menimcha, o'zim eplay olaman.

– Mayli, to ko'ngling to'lmaguncha menga hech narsangni ko'rsatma, bunga zarracha qarshiligim yo'q. Haya, sal bo'lsa esimdan chiqay debdi, „Qadim-qadimda“ asari senga ma'qul bo'ldimi?

– Juda ham.

– Eshit, men nazarda tutgan hamkorlikdagi ijod bunday bo'ladi: bir tasavvur qil, biz sen bilan bozorga borib, to'ppa-to'g'ri xo'roz urishtiriladigan joyga kiramiz va

ikkimiz ham nimani ko'rsak, shuni darhol oqqa ko'chirishga tutinamiz. Qachonki, yozajak kitobing qozonida o'zing qaynab chiqmaguncha sen yaratgan asar tashiy va jonli bo'lib chiqmaydi. To'g'ri, bular senga o'ta jo'n g'oyalari bo'lib ko'rinishi mumkin; xo'rozning tumshug'ini ochib, tomog'igacha shishirish, keyin esa hakam ularga izn bergunicha parrandalarni qo'ldan chiqarmay tutib turish – sirasi, bular oddiy lavhalar. Lekin muhimi, biz uni ikkimiz birgalikda ko'rganligimiz bo'ladi.

Bola bosh iring'ab, otasining gaplarini tasdiqlagandek bo'lar va oldiga qo'yilgan ovqatiga ko'zlarini tikardi.

– Yoki bo'lmasam, bundoq qilsagam yomon bo'lmaydi, sen bilan qahvaxonaga borsak-da, oshiq-moshiq o'ynab, tasavvurlarimizni yana-da boyitsak. Yana o'yin chog'i atrofda bo'ladigan gap-so'zlarni quloqqa ilib, esda saqlab qolsak, nima deding? Sen bir qator ham yozishga urinib ko'rmaysan. Faqat ma'nosi bor so'zlarnigina miyandagi saqlab qolasan.

– Siz aytayotgan ishlar mening qo'limdan kelmaydi deb qo'rqaman, dada! Yaxshisi, men o'zim bilgancha yozishda davom etaverganim ma'qulmikin...

– Ana undan keyin yana o'zing bilgandingdek ijod qilaverasan. Men senga halaqit ham bermayman, ta'sir ham o'tkazmayman. Mening aytganlarim bor-yo'g'i sodda mashqlar, xolos. Sen bilan birga nimadir yaratishdan ko'nglim tog'dek o'sadi, to'g'ri, besh qo'l baravaras, bari yozganingam zo'r chiqavermaydiku-ya, biroq otang senga yelkadosh bo'lsa parvozing yana-da baland bo'lardi, o'g'lim.

– Baribir shu hikoyamda qanday yo'ldan ketgan bo'lsam, yana shunda ketaverganim yaxshiroq, deb o'ylayman, dada.

– Albatta, toychog'im, men bunga yo'q demayapman, – derdi otasi uning gapini bo'lib.

Uning yoshida men bunday yozolmagan bo'lardim, deb o'ylab ketardi keyin u, birovning bolam bilan teng paytida bunaqa karomat ko'rsatganini sira eslolmayman. Ustiga ustak, o'n yoshida o'q uzishni uddalagan o'g'limdan o'tkazib mo'ljalga behato ura oladigan binoyi meragan haqidayam qulog'im eshitmagan ekan, bahodirim nafaqat o'q uzib mashq qilgandi, balkim chinakam o'q uzishda chempion bo'lganlar bilan o'tkazilgan musobaqada g'olib ham bo'lgandi. O'n ikki yoshli vaqtidanoq mashq maydonlarida bemalol o'zini ko'rsatib qo'yardi. O'ziyam, o'g'lim misoli ulug' zarbaga shaylangandek katta kuch bilan o'q otardi-da. U otishda mutlaqo g'azab sochmasdi, mutlaqo mo'ljaldagi qushni yaqin kelishiga yo'l qo'ymasdi, u baland cho'qqilardayam, past uchar o'rdaklarni otganidayam nihoyatda chiroyli usul va aniqlik bilan ish tutardi.

Kaptarlarni otishdagi musobaqada-chi, unda shov-vozim tosh yo'lakdan asta yurib borgandi-da, qushlar joylashgan g'ildirakni qo'rqmay aylantirgan, so'ngra belgilangan tosh lavhaga qarab bir muddat kiprik qoqmay kutib turgandi, o'shanda butun haloyiq nafaslarini ichiga yutib, o'likdek jim qotib turgandi. O'g'lim hammani hayratga soladigan yagona mergan bo'lib yetishgandi. Ba'zi bir og'ziga kuchi yetmaganlar uning siridan ogohdek, xuddiki uni masharalagandek o'zlaricha kulib o'tirishgandi, u yelkasiga miltiqni o'rnatib, g'ildirakdagi parrandalarning oyog'ini nishonga olgancha yaxshilab tikilib turardi. Undan keyin u quroliga yaxshilab moslashib olgandi-da, chap qo'lini oldinroqqa cho'zib, bor og'irligini so'l oyog'iga tashlagandi. Miltiq qo'ndog'i bir

ko'tarilib-tushgach, o'g'lim uni u yoq-bu yoqqa sermab, yana asosiy mo'ljalga nishonni to'g'rilagandi. U o'ng oyog'ini astalik bilan ko'tarib, bor gavdasini xotirjam shaklda tutib turishniyam yaxshi bilardi.

– Tayyorman, – degandi o'g'lim past, xirillagan ovozda, odatda, bunday tovush bunaqa yosh bolalarda uchramaydi.

– Tayyor, – derdi hakam ham.

– O'q uz, – deb buyruq berardi xiriragan tovush. Kulrang kaptar oppoq, past devor tomondagi yam-yashil o'tlar ustidan uchishni boshlagan zahoti, ketma-ket ikki marotaba o'q otildi. Qush boshi bilan yerga sho'ng'irdi, u birinchi o'qdan o'qib bo'lardi.

O'g'lim o'shanda toshyo'lakdan shiypo'cha bo'ylab ohista, yuzida hech bir ifodasiz xotirjam yurib kelar, qar-sak va olqishlarga ortiqcha kerilmasdan, faqatgina „Sen burgutsan, Stiv“ deb kimdir aytgan maqrov uchungina „rahmat“ debgina indamay joyiga kelib o'tirardi.

Keyin tokchaga miltig'ini qo'yardi-da, otasining ham ishtirokini kuzatgach, men bilan birgalashib tashqaridagi barga yo'l olardi.

– Koka-kola ichsam bo'ladimi, dada?

– Bo'ladi, ammo yarimtadan ko'p emas, o'g'lim, – derdim unga mehribonlik bilan.

– Xo'p. Biroz landovurlik qilganim uchun meni kechiring. Qushni erkin uchishiga izn bermasligim kerak edi.

– Yo'q, u o'zi shunaqa kuchli va ayyorlaridan ekan, Stiv.

– Ozgina bo'shashmaganimda hech kim uning o'zarligini hatto payqamaganam bo'lardi.

– Yo'q, sen uni bopladang.

– Ha, hovurimdan tushishim kerak, havotir olmang, dada. Bir qultum oshiqcha kola chanqogʻimni qondirmaydi axir.

Navbatdagi oʻlja ham osmonda qurbon boʻlardi, ikkinchi oʻqdan soʻng yigʻilganlar bu qushning ham Stivga yengilgina magʻlub boʻlganini koʻrib hayratga tushardilar.

Bir gal mahalliy merganlardan biri bolaning ruhiyatini tushirish uchun ham qasddan:

– Shuyam otish boʻldi-yu, osongina yoʻl bilan-a! Boʻlganing shumi, Stiv? – degandi baland ovozda.

Stiv unga javoban indamay bosh irta-agandi-da, miltigʻini osgancha dadasini qidirib nari ketgandi.

– Koʻpam hayajon va hissiyotga berilish yaramaydi, oʻgʻlim, – degandim unga oʻshanda.

– Yoʻq, bu gal ular menga tuzoq qoʻyishdi, dada. Lekin men yuzingizni yerga qaratishni aslo istamayman. Mana, hozir ham diqqat bilan qarang-da, ikkinchi raqamdagi qurol qolgan toʻrttasidan koʻra ikki barobar pand beradiganga oʻxshab koʻrinyapti koʻzinga. Uni hafsala bilan moylash kerak. Ammo hozir hakamlar buni bilib qolganimni hayollariga ham keltirishmayapti.

– Lekin men koʻpincha miltiqning ovozigacha quloq solaman va shundan uning qanaqaligini bilib olaman, – derdim men, uch-toʻrt daqiqadan soʻng mening ham navbatim kelib qolgandi.

– Bilaman, ammo soʻl tomondagi ana shu qurolga hazir boʻling.

Stiv haq boʻlib chiqqandi, men oʻsha ikkinchi raqamli miltiqdan bittayam qushni otolmadim, qurol yaroqsiz boʻlib chiqdi. Axiyri men bor mahoratimni ishga solib, oʻlja past devorga yaqinlashib uchgan mahaldagina azbaroyi uyalganimdan bir amallab nishonga tekkiiza oldim.

– Kechiring, dada, – dedi oʻgʻlim, – ular miltiqni nomiga boʻlsayam yogʻlagan shekilli, tilimni tishlab tursam boʻlardi-kan-a!

Oʻsha hodisadan soʻng ota-bola alla-pallagacha oʻlja-ni qanday qoʻlga tushirish borasida gaplashib oʻtirgandik. Stiv:

– Men faqat olgʻir kaptarlarnigina qanday qilib koʻzdan qochirayotganimga tushuna olmayapman, – degandi.

– Bora-bora oʻrganib ketasan hali, lekin nozik nuqtalaringni hammagayam oshkor etaverma.

– Bundan siz havotir olmang-u, biroq oʻzim koʻzlagan niyatimga yeta olmayotganimga ichimda qattiq havotirdaman. Ularning hammasi osmondayoq halok boʻlishyapti.

– Mana, sening magʻlubiyating qayerda, – dedim unga pand bergandek ohangda.

– Shuni aytayapman-da, dada! Mening kamchiligim – shu. Ammo birona merganniyam kaptarlarni tiriklayin qoʻlga tushirganini hozirgacha koʻrmadim ham.

– Balki, yigirma yildan keyin uddalab qolarsan buni, – deb yupatdim oʻgʻlimni.

– Balki. Ammo men zoʻravon boʻlib qolishni istamayman, dada.

– Yaxshi oʻylabsan, – dedim, – lekin buniyam bosh-qalarga bildirma. Barini ichingda saqlashni oʻrgan.

Bular bari oʻgʻlining muvaffaqiyatlaridan behad magʻrurlangan otaning koʻnglidan oʻtganlari edi. Endi esa u oʻgʻlining ajoyib hikoyasi va uning iqtidori toʻgʻrisida oʻylab ketdi. Shunchalar olov ishtiyoqi bilan ham u zoʻr mergan boʻlmadi, u hozir hamma mashqlarni butkul unutib yuborgan. Ehtimol, u ogʻir miltiq koʻtarib, koʻkarib ketgan yelkasini koʻraverib, otishmalardan koʻngli sovib ketgandir.

Stiv hattoki gavgdani qanday tutish-u nishonga qanaqa qilib olishniyam esidan chiqargan. Vaznni old oyoqlariga tashlab turishni esa allaqachonlar unutib qo'ygan. Ohista o'ng tovonini ko'tarishniyam, boshini eggancha otishga tayyorlanishniyam, ehh! Bolani endi musobaqalarda qancha yutuq to'plashiyam qiziqtirmaydi. Otasi yana hayolan o'g'liga tushuntira boshladi: Gavgdangni to'g'ri-la, Stiv. Qushning o'zigamas, tumshug'ining harakatiga razm sol va o'sha tumshuqlar bilan birga ham tebranishga urin. Shu mo'ljalni ko'zdan qochirdingmi, marraga yetolmaysan, o'g'lim! Sen zafar quchishing shart!

Stiv tabiatan oqko'ngil bola edi, hatto otasi uni mer-ganlikka o'rgatganidayam u padarining ishonchini oqlay olgandi, o'nta o'ljadan yo'q deganda oltita yoki sakkiz-tasini albatta urib tushirdi. Asta-sekin to'qiztayam otadigan bo'ldi, bora-bora yigirmata qushdan naq yigir-matasini yer tishlatdi, bunday zafar esa uncha-muncha merganlarga butun umr bo'yi-da nasib qilmasdi.

U hech qachon ikkinchi hikoyasini otasiga ko'rsat-madi. Yozgi ta'til oxirlay degandayam Stiv bu hikoyasi-ni hali yakunlay olmagandi. Otasining nazdida, u qilgan ishini birovlariga ko'rsatishdan oldin avvalo o'zi chuqur qoniqish hosil qilishi zarur edi. Nihoyat, keyingi hikoya-sini bitirishi bilan Stiv uni otasiga yubordi. Bola yana bu yilgi ta'til o'tgan yillardagidan ko'ra eng yaxshisi va eng maroqlisi bo'lganini, dadasining hadeb uni o'qishdan tortishini bas qilishini, o'qish va yozish unga olam-olam quvonch bag'ishlashini bildirib hat ham yozib jo'natdi.

Oradan yetti yil o'tdi. Kunlarning birida ro'znoma sahifalarida otasi o'g'lining yana bir hikoyasi mukofot bilan taqdirlanganligi to'g'risida o'qib qoldi. Biroq otaga o'sha hikoya rosayam tanish bo'lib ko'rindi-da, u o'g'li-

ning eski ijodxonasini tintuv qila ketdi. Ko'p o'tmay, u hikoyaning qayerdan paydo bo'lganini aniqladi. Bir zamonlar unutilib ketgan qadrdon tuyg'u bir necha lah-zalarga yurakni mahv etdi. Ota titilib ketgan kitoblar ichiga bir dam asir bo'ldi, bir mahal u mashhur irland yozuvchisining kichik hikoyalar to'plamidan o'zi qidir-gan sirga yechim topdi. O'g'li o'sha to'planning barcha hikoyalarni hatto nomini ham o'zgartirmasdan so'zma-so'z ko'chirib olgandi.

Yaqin o'tgan yillar otaga o'ta dahshatli bo'lib tuyuldi. U o'g'liga bergan noto'g'ri tarbiyasidan qattiq o'kindi, u o'z zurriyodiga dunyodagi jami nopokliklarni o'rgatgan ekan, o'q otish, qon to'kish, muttahamlik qilish, o'g'ir-lash, yo Rabbiy, hattoki So'z o'g'irlash! „U aqldan ozib-di“, deb o'yladi Stivning otasi o'g'lini. „Uni men kasal qildim. Tug'ilganida va qushlarni otmasidan avval u sog'lom va g'oyatda pok edi. Ammo mening „otalarcha“ o'g'itlarim uni bir umrga xonavayron qildi“.

Endi ota o'g'lining yaxshi bo'lib ketishidan butkul umidini uzgandi. U faqat o'tgan kunlar armoni bilangina yashar va begunoh o'ljani nishonga olish alaloqibat o'z zurriyodi hayotini nishonga olish bilan yakun topganidan qattiq o'kinar edi.

bo'ylab yaxshilab surkardi, uning barmoqlari bu vazifani juda mayinlik bilan bajarmoqda edi. Boshliq qo'llarini likopcha chetiga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan olib borar, moy yuqi singib qolmasligi uchun nihoyatda muloyim harakatlanardi, peshonasi bilan ikkala yonog'i yuzasiga ham o'shanday astalik bilan moy surtib olgach, eng oxirida shishgan burni atrofini ham barmoqlari bilan zo'r hafsala qilib ishqalay ketdi. Nihoyat, bu ishini tugatib, mayor sekin o'rmiidan turdi-da, moy solingan likopchani ko'tarib, o'zi joylashib, dam oladigan xonasi tomon yo'naldi.

— Men biroz mizg'ib olmoqchiman, — deb qo'ydi u ad'yutantga qarata. Ad'yutant bu armiyada boshqa harbiylar singari hech qanday buyruqqa javobgar ofitser emas, balki o'z holicha mustaqil bir harbiy edi.

— Sen bimalol yeb-ichib o'tiravergin.

— Mayli, senor Maggore, — deb javob bergan bo'ldi ad'yutant. Shunday dedi-da, u ham stuli orqasiga bor gavdasini tashlab, uzoq esnab qo'ydi. Ozgina vaqt o'tgach, paltosining cho'ntagidan qog'ozga o'rog'lik qandaydir kitob olib ochdi-yu, lekin uni darrov stol ustiga tashlab qo'ydi, so'ngra bamaylixtir tamakisini olib tutatdi. Ad'yutant tamakini qattiq-qattiq tortib, burqsitib burqsitib tutun chiqardi-da, boyagi kitobni o'qish uchun stol ustiga eringancha engashdi. Ammo baribir o'qishga shashti bo'lmay, uni tag'in yopdi-yu, qaytarib cho'ntagiga solib qo'ydi. Busiz ham ad'yutantning bir dunyo ishlari, o'ylaydigan o'ylari ko'p edi. O'sha ishlari bitmuncha kitob o'qish ad'yutantning kallasiga sig'masdi. Tashqarida esa mart quyoshi sekin-asta purviqor tog'lar ortiga bota boshlagan, kulba devorlari ustidagi o'ynoqi nurlar raqsi ham ohista-ohista so'nib bormoqdaydi. Shu paytda xonaga qandaydir bir askar yigit kirib qoldi, u

ODDIY TEKSHIRUV

Tashqarida qor derazani ko'mib yuborguday darajada ko'p yog'gandi. Quyoshning zaif nurlari deraza tirqishlari oralab kulba ichiga quyilarkan, ular ayniqsa, kulbaning yog'och devoriga osib qo'yilgan harita yuzini kuchliroq yarqiratib turardi. Oftob tobora yuqorilangani sari uning shu'lalari ham qor uyumi tepasida shuncha ko'p tovlanardi. Kulbaning bir tomoniga chuqur handaq ham kovlab qo'yilgandi, quyosh charaqlab turgan kunlari nurlar devor ustida turli shakl-u shamoyil yasab, ajib o'yin boshlashar, ular xuddi oxirgi sovuq qordan o'ch olmoqchiday bor issiqliklarini mo'l-ko'l to'kishardi. Martning oxirgi kunlari edi. Kulba ichida devorga tirab qo'yilgan stol yonida bir mayor o'tirardi. Stolning narigi tomonidan esa unga hamroh ad'yutant joy olgandi.

Mayorning ko'zlari atrofida quyoshda qor ko'zini qamshirtmasligi uchun tutib yuradigan himoya ko'zoynagidan qolgan ikkita oppoq aylana iz paydo bo'lib qolgandi. Yuzining qolgan qismini oftob olgan, qoraytirgan, o'sha qoraygan tanasi issiq harorat taftida yanayam kuyib ketgandi. Shishinquiragan burni chekkasidagi semiz terisi ham negadir po'rsildoq-po'rsildoq bo'lib yorilib qolgandi. U qo'lidagi gazetalarga tez-tez ko'z yugurtirib chiqar, ayni damda chap qo'lini yonidagi moy solingan likopcha tomon uzatib, barmoqlarini moyga bular va uni butun yuzi

hech narsa demay, burchakda uyulib turgan qarag'ay shoxlarini oldi-da, ularni har xil uzunlikda chopib, pech ichiga birma-bir tashlay boshladi.

– Sekinroq, Penin, – deb ogohlantirgan bo'ldi uni ad'yutant o'tirgan yeridan. – Mayor dam olyapti.

Penin mayorning qo'l ostidagi askarlardan edi. U qorachadan kelgan nimjonroq yigitcha bo'lib voyaga yetgandi, u imkon qadar ovoz chiqarmay o'tinlarni joylagach, pech eshigini yopib, yana kulba orqasiga o'tib ketdi. Ad'yutant endi gazeta o'qishga tutindi.

– Ad'yutant! – Birdan ichkari xonadan mayorning ovozi keldi.

– Nima gap, senor Maggore?

– Peninni mening oldimga kiritib yuborin.

– Penin! – o'sha zahoti yigitchani chaqirdi ad'yutant.

Xonaga Penin kirdi.

– Seni boshliq ko'rmoqchi.

Yigitcha indamasdan katta xona orqali o'tib, mayorning eshigi oldiga keldi. Qiya ochiq turgan eshikni qo'rqa-pisa ikki marta taqillatgan bo'ldi.

– Senor Maggore?

– Kiraver, Penin, – ad'yutant mayorning boshliqlarga xos buyruqomuz ohangini eshitdi. – Eshikni orqangdan yopib kir.

Ichkarida mayor o'zining koyka devorga o'rnatilgan karavotini to'ldirib, yoyilib yotardi. Boshining tagiga alla-narsalar solingan ryukzagini yumaloq yostiqliq qilib qo'yib olgandi. Boshliqning uzun, oftobda kuygan, yog'langan semiz yuzi yosh askarga boqdi. Penin mayorning adyol ustiga uzala tashlangan jundor, baquvvat qo'llari tarafga qaramay ko'zlarini olib qochdi.

– Yoshing o'n to'qqizdami, Penin? – deb so'radi mayor yigitchaning chehrasiga diqqat bilan razm solarkan.

– Shunday, senor Maggore.

– Hmm, shunaqa degin, – deb qo'ydi mayor jiddiy qiyofada. Keyin yana o'shunday ohangda ta'kidlaganamo qilib savol berdi: – Umingda hech sevib ko'rganmisan? – Meni kechirasiz, bu gapingizga tushunmay qoldim, senor Maggore?

– Men sevganmisan, deb qizlarni nazarda tutyapman? – Ha, qizlar bilan gaplashib turaman.

– Yo'q, tushunmayapsan, men sendan buni so'ramadim. Men sendan biron-bir qizga ko'ngil qo'yganimisan, deb so'radim.

– Albatta, senor Maggore.

– Haa, demak, hozir kimnidir sevasan, shundaymi? Unga hat ham yozib turarkansan. Men hamma hatlaringni o'qib chiqdim.

– To'g'ri, men rostdanam bitta qizni yaxshi ko'raman, – deb tan oldi Penin, – ammo unga biron-tayam hat yozgan emasman.

– Yo'g'-ey, aniq yozmaganmisan?

– Ha, gapim rost, aniq yozmaganman.

– Ad'yutant! – mayor xuddi avvalgi ohangini buzmasdan ofitserni chaqirdi. – Mening gaplarimni eshitib turibsanmi sen?

Narigi xonadan hech qanday javob kelmadi.

– U bizni eshitmaydi, – deb qo'ydi mayor, Peninga qarab. – Xo'sh, demak, sen o'sha qizni chindanam sevingga ishonasan?

– Ishonaman, senor Maggore.

– Unday bo'lsa, – mayor askarning yuziga bir qur tez ko'z yugurtirib oldi, – sen hech qanday axloqsizlik ham qilmagansan?

– Sizning axloqsizlik, deb nimani nazarda tutganingizni bilolmadim, senor.

– Yaxshi, juda soz, – deya xulosa chiqargan bo'ldi mayor o'zicha, – u holda sendan hech qanaqa boshliq chiqmas ekan.

Penin boshini egib, ko'zlarini polga qadadi. Mayor uning qoracha yuziga, chayir qo'llariga, ozg'in gavdasiga boshdan oyoq bir-bir qarab chiqdi. So'ngra yana avvalgiday jiddiy tarzda gapida davom etdi:

– Demak, chin dilingdan istamayotgan ekansan, – mayor sukut qildi. Penin hamon poldan ko'z uzmay turardi. – Eng buyuk orzuying haqiqiy emas ekan unda. – Peninning ko'zlari haliyam polda edi. Mayor gapdan to'xtab, ryukzagi ustiga suyandi-da, jilmaydi. U yurak-yuragidan yengil tortgandi. Armiyadagi hayot jiddiy hayot ekan, u yoshlarni bulg'amay, matonatli, rostgo'y, toza qilib tarbiyalabdi. Mayor negadir xursand bo'lib ketdi.

– Yaxshi bola ekansan, – dedi u biroz yumshoqlik bilan. – Sen yaxshi bola ekansan, Penin. Lekin bu gapimga ko'pam taltayib ketmagin, senga otalarcha gapim, yigitcha, doimo kimdir-birov zimdan poylab kelib, orqangga pichoq urib ketishidan hazir bo'lib yurgin.

Penin hamon boshlig'ining karavoti yonida boyagiday sukut saqlagan ko'yi jimgina turardi.

– Mendan qo'rqma, – dedi mayor unga mehribonlik bilan tikilib. U adyoli ustidagi qo'llarini bukdi. – Men senga hech narsa qilmayman. Istasang, o'zingning vzvodingga qaytib ketishing ham mumkin. Lekin eng yaxshisi, menda, mening askarim bo'lib qolganing ma'qulroq. Bu yerda seni hech kim o'ldirib ketolmaydi.

– Mendan yana nimadir so'ramoqchimisiz, senor Maggore?

– Yo'q, – dedi mayor, – chiqib ketaver, xohlagan

ishing bilan shug'ullanaver. Ha-ya, chiqishingda eshikni ochiq qoldirgin.

Penin eshikni yopmasdan tashqariga chiqdi. Ad'yutant yigitchaning xonadan o'ng'aysizlanib yurib o'tib, kulbadan chiqib ketishini kuzatib turdi. Penin pechga qalash uchun yana qarag'ay shoxlaridan ko'tarib kirganda, butunlay qizarib ketgan, harakatlari ham oldingidan ancha o'zgarib qolgandi. Ad'yutant yosh askarining bu holatini kuzatib turib, miyig'ida kulib qo'ydi. Penin tag'in tashqariga chiqib, yana-da ko'proq o'tin ko'tarib kirdi. Ichkari xonada esa devordagi mixga osib qo'yilgan qishki ko'zoynaklari bilan lattaga o'rab qo'yilgan kaskasiga termilgancha mayor o'z karavotida o'y surib yotar, biroq uning quloqlari qo'shni xonadagi Peninning qadam tovushlarida edi. „Voy, kichkina shayton-ey, – deb o'ylardi boshliq kulimsirab, – ehtimol, u meni aldab qo'ygandir“.

MUNDARIJA

Nashriyotdan.....	3
Ketrin Mensfeld. Bahor gullari.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	5
Qismat.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	12
Oqsoch.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	24
Keyt Shopen. Ozodlik.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	34
O'kinch.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	37
So'qir.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	45
Sog'inib kutaman tunlarni.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	50
Qiyofalar.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	53
Hikmatli bir qish kuni.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	55
Benitolar xonadonining xizmatkori.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	61
Doktor Chevalerning yolg'oni.	

<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	66
Kalina.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	69
G'aroyib skripka.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	74
Oromkursi.	
<i>Dilobar Asliddin qizi tarjimasi</i>	78
Roman Xil Novales. Yillar o'tib.	
<i>Mahmud Bo'ronov tarjimasi</i>	81
Paul Yohann Lyudvig Fon Keyze. Patefon.	
<i>Dilobar Asliddin qizi tarjimasi</i>	87
Vlas Doroshevich. Adiba	
<i>Maxmud Bo'ronov tarjimasi</i>	90
Anton Chexov. Kitobxonlik.	
<i>Humoyun tarjimasi</i>	96
Najib Mahfuz. Bolalar jannati.	
<i>Ozod Sharofiddinov tarjimasi</i>	101
Emil Yusuf Avvad. Hayraning hayoti.	
<i>Sherali Turdiyev tarjimasi</i>	107
Ernest Xeminguey. Dunyoning sarmoyasi.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	111
Ko'kka sovurilgan yillar.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	127
Oddiy Tekshiruv.	
<i>Qandilal Yusupova tarjimasi</i>	136

Adabiy-badiiy nashr

KEYT SHOPEN

G'AROYIB SKRIPKA

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

Qandilal YUSUPOVA va b.

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahih	<i>Oybek Haydarov</i>
Sahifalovchi	<i>Umarjon Qodirov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
16.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.

Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,56. Adadi 5000. Shartnoma № 96-20.
Buyurtma raqami 426-20.

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ

Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

KEYT SHOPEN
G'AROYIB
SKRIPKA



ZIYO NASHR

t.me/ziyonashr
fb.com/ziyo.nashr
ziyonashr@mail.ru

